

N.I.Axmedova, A.I.Azamatov, N.I.Azamatova

BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK BOSQICHIDA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH (TENNIS)



496 342 (04.8)
H 97
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI

**O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA
VA SPORT UNIVERSITETI**

N.I.Axmedova, A.I.Azamatov, N.I.Azamatova


**BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK BOSQICHIDA
MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH (TENNIS)**

O'quv qo'llanma

61010300 - Sport faoliyati (sport turlari)

TOSHKENT

"O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI" NMIU - 2025



UO'K: 796,022:8:075

KBK: 75,715ya721

Mualliflar:

N.I. Axmedova – *“Tennis, badminton, stol tennisi nazariyasi va uslubiyati” kafedrası professori*

N.I. Azamatova – *Toshkent shahar sport boshqarmasi sport ta’lim muassasalari bilan ishlash sho’basi bosh mutaxassissi*

A.I. Azamatov – *“Tennis, badminton, stol tennisi nazariyasi va uslubiyati” kafedrası dotsenti*

Taqrizchilar:

S.K. Abidov – *Respublika olimpiya zahiraları tennis maktabi direktori.*

F.A. Pulatov – *“Voleybol, basketbol nazariyasi va uslubiyati kafedrası” dotsenti*

N.I.Axmedova, A.I.Azamatov, N.I.Azamatova. **Boshlang’ich tayyorgarlik bosqichida mashg’ulotlarni tashkil etish (tennis)** [O’quv qo’llanma] / – T.: “O’ZKITOBSAVDONASHRIYOTI” NMIU, 2025 – 260 b.

“Boshlang’ich tayyorgarlik bosqichida mashg’ulotlarni tashkil etish (tennis)” deb nomlangan mazkur o’quv qo’llanma lotin grafikasi asosida o’zbek tilida O’zDjTSU talabalari, magistrleri va muvofiq ta’lim yo’nalishiga ixtisoslashgan o’quv muassasalari, tennis maktablari o’quvchi-yoshlariga hamda maktabgacha ta’lim muassasalarining jismoniy tarbiya o’qituvchilari uchun taqdim etilmoqda. O’quv qo’llanma muallifning olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari, u tomondan muqaddam nashrdan chiqarilgan o’quv qo’llanma, uslubiy qo’llanmalar hamda xorijiy mutaxassislar tajribasi asosida ishlab chiqilgan bo’lib, unda malakali tennischilar tayyorlashga qodir bo’lgan o’qituvchi trenerlar kasbiy-texnologik-pedagogik mahoratini shakllantiruvchi nazariy, uslubiy-texnologik va me’yoriy materiallar mohiyati ochib berilgan.

ISBN: 978-9910-690-53-2

© N.I.Axmedova, A.I.Azamatov, N.I.Azamatova. 2025

© “O’ZKITOBSAVDONASHRIYOTI” NMIU. 2025

KIRISH

Yuqori malakali, iste'dodli va raqobatbardosh sportchilarni tayyorlash ko'p yillik pedagogik jarayon bo'lib, unga aynan sport-ta'lim muassasalarida (sport maktabi, olimpiya zaxiralari ixtisoslashtirilgan sport maktabi, oliy sport mahorati maktabida asos solinadi. Ushbu o'quv muassasalarga o'quvchi-yoshlarni jalb qilish, ularda sport bilan shug'ullanish motivatsiyasini uyg'otish, axloqiy-xulqiy va ma'naviy-madaniy xislatlarni shakllantirish, mashg'ulot va musobaqa jarayonlarini samarali tashkil qilish imkoniyatlari ustivor jihatdan ilmiy asosda ishlab chiqilgan me'yoriy-xuquqiy va o'quv-uslubiy dasturlar sifati bilan belgilanadi.

Hech narsa mamlakatni dunyoga sportchalik tez tanitolmaydi. Bunga isbot ta'riqasida, O'zbekiston delegatsiyasi Parij-2024 yozgi Olimpiya o'yinlarini o'z tarixidagi eng yaxshi natija bilan yakunladi, 206 davlatdan eng kuchli sportchilar ishtirok etgan o'yinlarda O'zbekiston delegatsiyasi 13-o'rinni egallab, o'z tarixidagi eng yaxshi natijani qayd etishga muvaffaq bo'ldi. Bu natija o'z-o'zidan barcha olimpiya sport turlariga yurtimizda ancha yillardan buyon shart-sharoitlar yaratilganligi va qonun qarorlar ishlayotganini ko'rishimiz mumkin.

1993 yildan boshlab O'zbekiston Tennis Federatsiyasi ITFning to'la xuquqli a'zosiga aylandi. Oradan 31 yil o'tgach, obro'li milliy tennis maktabi haqida ishonch bilan gapirish mumkin.

Hukumatning 1997-yil 25-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida tennisni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasini tashkil etish to'g'risida", 1998-yil 11-sentabrda qabul qilingan "O'zbekistonda tennisni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari nafaqat

mamlakatimizda tennisni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida sportni Olimpiya cho'qqilariga olib chiqdi, balki mamlakatimiz maktab o'quvchilari orasida ommalashishiga ham zamin yaratdi.

2009 yilda Madridda bo'lib o'tgan tennis Xalqaro Federasiya Kongressida O'zbekistonga "Tennisni rivojlantirishdagi xissasi uchun" mukofoti berilgan bo'lib, bu yosh mustaqil davlatning butun dunyo tennis oilasidagi rolini yana bir bor ta'kidlandi.

Keyinchalik Xalqaro tennis federasiyasi vise-prezidenti Anil Xanna mamlakatda tennisning ahvolini quyidagicha izohlab o'tdi: "O'zbekiston ITFning eng obro'li a'zo-mamlakatlardan biri va Markaziy-Osiyo hududidagi shubxasiz yetakchidir".

2008-yil 27-aprelda tennisning bebaho qirralarini chuqur anglagan O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidentimizning "Respublika olimpiya zaxiralari tennis maktabini tashkil etish to'g'risida"gi qarori bilan bugungi kunda mamlakatimizning barcha hududlaridan yosh tennischilar ishtirok etmoqda. Bilim va sport mahoratini rivojlantirish, malakasini oshirish maqsadida ushbu maktabda tanlab olingan. Qolaversa, chekka qishloqlarda, hattoki tuman va viloyatlarda ham tennis to'garaklarini tashkil etish, ilmiy malaka oshirish o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar haligacha yo'qligini alohida ta'kidlash joiz. Biroq yuqoridagi qarorlarda mamlakatimizda, ayniqsa, ta'lim muassasalarida tennisni ilmiy asosda rivojlantirish, o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurligiga alohida e'tibor qaratildi.

Yuqori malakali mutaxassislar va tennis murabbiylarini tayyorlash ham o'ta dolzarb vazifa sifatida qayd etildi. Ma'lumki, bu muammolarni hal etish samaradorligi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari jismoniy tarbiya va sport sohasiga ixtisoslashgan professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatiga va,

albatta, ta'lim jarayonida foydalaniladigan adabiyotlarga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025-yilgacha yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-son Farmonida mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish bo'yicha qator vazifalar belgilab berilgan. Jismoniy tarbiya va sport tizimini isloh qilish, tennisni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrdagi "Kadrlar tayyorlash va ilmiy-tadqiqot tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 414-son qaroriga ilovada asosiy maqsadli ko'rsatkichlar belgilab berilgan, ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari aniq belgilangan. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti 2022-2025 yillar uchun (ko'rsatkichlar).

Vazifaga muvofiq professor-o'qituvchilarning ilmiy-uslubiy faoliyati samaradorligini oshirish, o'zbek, rus va xorijiy tillardagi kitob va darsliklar sonini 1,7 barobarga ko'paytirish, kutubxona fondini yangilash bo'yicha vazifalar belgilandi.

O'zbekistonda ko'plab bolalar (ATF) va o'smirlar (ITF) musobaqalaridan tashqari, professional turnirlar (Futures, Challenger) ham o'tkazilmoqda. Shu tufayli O'zbekiston tennischilari uchun ham **jahon** professional tennis olamiga yo'l ochildi. Yangi muammolar paydo bo'ldi. Professional arenada mavaffaqiyatli ishtirok etish uchun juda ko'p xalqaro musobaqalarda ishtirok etish zarur. Bu esa, doimo yo'lda bo'lishni talab etadi. Chunki har bir tennischining o'z musobaqalar taqvim rejasini bor. Oldindan bilib bo'lmaydigan sharoitlardagi musobaqa-mashg'ulot rejasini tuzish kerak.

Bizning tennischilarimizni takomillashtirish jarayonida bunday vaziyatlarga tayyor bo'lmalik, musobaqalarda faqat ishtirok etish bilan chegaralanishga olib keladi. Bunday vaziyatdan chiqish barcha tennischilarga ham, nasib etavermaydi.

Musobaqa sharoitida mashg'ulot jarayonini tennischining uddaburonlik bilan maqsad sari rejalashtira olishi musobaqalarga texnik, jismoniy, taktik va psixologik tayyorgarligi bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarni samarali yechish imkoniyatini beradi. Shunga ko'ra, bizning nazarimizda kelajakda tennis elitasiga kirishni xoxlovchi tennischilar maxsus ishlab chiqilgan, sport natijalarining dinamik o'sishi va mashg'ulot jarayoni jadalligi, hamda uning ko'p sonli musobaqalardagi mazmuni bilan o'zaro bog'liqligini aniqlovchi individual-perspektiv reja-xujjatga tayanishlari kerak.

I BOB. UMUMIY VA MAXSUS JISMONIY TAYYORGARLIK ASOSLARI. TENNISCHILARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH.

Zamonaviy sport amaliyotida yuqori natijalarga erishish sportchining uzoq muddat davomida yuqori sifatli va samarali ish qobiliyatini saqlay olish imkoniyati bilan bog'liqdir.

Har xil sport turlari bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalar muddati xalqaro musobaqalar qoidalari bilan belgilanadi. Shu musobaqalar muddatida qaysi sportchi o'z ish qobiliyatini sifati va samaradorligi jihatidan qanchalik uzoq vaqt saqlay olsa yoki uni oshira olish "kuchi"ga ega bo'lsa, unga muvaffaqiyat shunchalik "kulib" boqishi muqarrar. Boshqacha qilib aytganda ish qobiliyatining sifat va samaradorlik darajasini ko'p yoki kam vaqt davomida saqlanishi umumiy va maxsus chidamkorlik sifatlarining turlari (tezkorlik, kuch, tezkor-kuchga bo'lgan chidamkorlik, sakrashga bo'lgan chidamkorlik, texnik-taktik chidamkorlik va hokozo.) qanchalik rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Ma'lumki, ish qobiliyati haqida gap ketganda, ayniqsa so'z uning sifati va samaradorligiga tegishli bo'lsa, masalaning mohiyati va pirovard "mag'izi" boshqa jismoniy sifatlarining shakllangan yoki shakllanmaganligiga borib taqaladi. Ya'ni samarali natijaga mos umumiy va maxsus chidamkorlik, kuch, tezkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik sifatlarini o'zida mujassam qilgan bo'ladi. Ushbu sifatlarining o'zaro uzviy bog'liqligi va ularning yuksak darajadagi integral natijasi mahoratning muayyan taqdirini belgilab beradi.

Jismoniy tayyorgarlik – tayyorgarlik turlaridan biri bo'lib, tennischining organizmini rivojlantirish, uning jismoniy sifat va qobiliyatlarini takomillashtirishga, hamda o'yin faoliyatini

samarali amalga oshirilishini ta'minlovchi mustahkam poydevor yaratishga qaratilgandir.

Zamonaviy tennisda shug'ullanuvchilardan nihoyatda katta kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik va egiluvchanlik sifatlarini talab qiluvchi sport o'yinlari turiga mansubdir. O'yinning mohiyati o'yinchi harakatining turli yo'nalish va o'zgaruvchan vaziyatda o'ta tezkor, aniq hamda qisqa vaqt ichida ijro etilishi bilan ta'riflanadi. Tennischining har bir o'yin davomida ko'pdan-ko'p zarba berishi va to'p kiritishi, yugurishi, to'xtashi, burilishi, egilishi va boshqa harakatlarni yuqori tezlikda ijro etishi katta jismoniy kuch, o'ta chaqqonlik, mustahkam chidamkorlik va ruhiy uyg'unlikni talab qiladi. Binobarin, ushbu yuklama (nagruzka) ta'siri shug'ullanuvchi organizmining funksional jihatdan mukammal shakllangan bo'lishini taqozo etadi.

Bugungi tennischi bo'yi jihatdan 185-195 sm va undan katta uzunlikka ega bo'lib, harakatchan, tezkor, sakrovchan ziyrak, zukko, tez fikrlovchi, o'tkir zehnli, maydonda ro'y beradigan vaziyatni tez fahmlab "foydali" javob qaytara oladigan ko'rsatkichlarga ega bo'lishi kerak. Sportchilarning yoshiga, tayyorgarligiga, malakasiga, hamda sport trenirovkasi davriga va vazifalariga qarab jismoniy tayyorgarlikni mazmuni, hajmi va shiddati turlicha bo'ladi.

1.1. Jismoniy tayyorgarlikning vazifalari va mazmuni

Jismoniy tayyorgarlikning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Sog'liqni mustahkamlash
2. Hayotiy-zarur harakat malakalarini takomillashtirish (yurish, chopish, sakrash va h.)
3. Harakat sifatlarini rivojlantirish

4. Harakat malakalari hajmini oshirish va ularning ijroi chegarasini kengaytirish

5. Organizmning o'yin davomida ishtirok etuvchi organ, bo'lim va mushak guruhlarining funksiyalarini shakllantirish

6. O'yin malakalarini samarali o'zlashtirishni ta'minlovchi maxsus sifatlarni rivojlantirish.

Jismoniy tayyorgarlik umumiy (UJT) va maxsus (MJT) jismoniy tayyorgarlikka bo'linadi.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik sport trenirovkasini muhim vazifalaridan biri sifatida shug'ullanuvchilarning to'laqonli jismoniy taraqqiyotini va har tomonlama jismoniy tayyorgarligini ta'minlashga qaratiladi. UJT hayotiy zarur harakat malakalarini takomillashtirishga va asosiy jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayondir. Maqsadi MJTning poydevori bo'lgan UJT bazasini yaratishdir.

Vazifalari - asosiy jismoniy sifatlarni rivojlantirish, organizmning funksional imkoniyatlarini oshirish, harakat malakalarining hajmi va ijroi chegarasini kengaytirish, sog'liqni mustahkamlash, tiklanish jarayonini faollashtirish, organizmning tashqi va ichki salbiy ta'sirlarga bo'lgan bardoshini oshirishdan iborat.

Umumiy jismoniy sifatlarga kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik va egiluvchanlik kiradi.

UJT - jismoniy sifatlarni alohida yoki birgalikda rivojlantiruvchi o'ziga xos jismoniy mashqlardan iborat.

UJTni amalga oshirish jarayonida har xil sport uskunalardan, anjomlardan, trenajerlardan va tabiat omillaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Sport trenirovkasining ayrim bosqich va davrlarida UJT mashqlari va mashg'ulotlarining hajmi, shiddati, yo'nalish va tuzilishi o'ziga xosligi bilan farqlanadi.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik – tanlangan sport turida yuqori natijalarga erishish maqsadida shu sport turida asosiy va hal etuvchi ahamiyatga ega bo'lgan jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayondir.

Vazifalari:

- tennisga xos maxsus harakat sifatlari va qobiliyatlarini (tezkorlik, kuch-tezkorlik, chaqqonlik, maxsus chidamkorlik va hakoza) rivojlantirish;

- o'yin texnikasini o'zlashtirishda zarur bo'lgan qobiliyatlarni rivojlantirish;

- o'yin taktikasini o'zlashtirishda zarur bo'lgan qobiliyatlarni rivojlantirish;

MJT sport trenirovkasining barcha bosqich va davrlarida hajm va shiddat jihatidan munosib me'yorda qo'llaniladi.

1.2. Jismoniy tayyorgarlikning vositalari va uslublari

Jismoniy tayyorgarlik bo'yicha qo'yilgan vazifalarni yechishda turli vositalar: tayyorgarlik mashqlari, harakatli va sport o'yinlari, o'quv o'yinlari va musobaqalardan foydalanish mumkin. SHug'ullanuvchilarning individual xususiyatlariga mashqlarning moslab qo'llanilishi asosiy shartlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Shug'ullanuvchilar uchun beriladigan jismoniy mashqlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- a) tana, qo'l, oyoq mushaklarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi kuch va tezkorlik-kuch mashqlari;

- b) chidamlilik sifatining rivojlanishiga ta'sir etuvchi (tezkorlik-chidamlilik, tezkorlik-kuch chidamliligi) mashqlar;

- v) harakatlanish tezkorligiga ta'sir etuvchi mashqlar;

- g) chaqqonlik sifatiga ta'sir etuvchi mashqlar;

d) egiluvchanlik sifatiga ta'sir etuvchi mashqlar;

Bu mashqlardan foydalanish texnik va taktik usullarni bajarish sifatiga to'g'ridan- to'g'ri ta'sir etadi.

Jismoniy tayyorgarlikda qo'llaniladigan uslublar.
Shug'ullanuvchilar uchun zarur bo'lgan jismoniy sifatlarni tarbiyalashda quyidagi uslublardan foydalaniladi.

1. Bazaviy chidamlilikni tarbiyalash uchun bir tekis uzoq muddatli yugurish

2. Maxsus chidamlilikni tarbiyalashda o'zgaruvchan yo'nalishdagi ishlarni bajarish

3. Takroriy mashq usuli. Bu usul tezkorlik, kuch va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishda qo'llanilib, bunda dam olish oraliqlari organizmning to'liq tiklanishiga imkoniyat yaratishi zarur

4. Oraliq uslub. Bu uslub asosan tezkorlik va kuch chidamkorligini tarbiyalashda qo'llaniladi. Bunda ish va dam olish qat'iy ravishda tartiblashtiriladi. Dam olish oralig'i odatda katta bo'lmaydi.

5. Almashinuvchi mashq usullari. Bu usulning muhim tomoni mashqning borishiga qarab ta'siri bir maqsadga qaratilgan xolda o'zgarishidir. Bunga turli hollarda turlicha yo'l bilan nagruzka (harakat tezligi, ish hajmi, muddati va hokazo)ning ayrim ko'rsatkichlarini to'g'ri o'zlashtirish (harakat usulini navbatlashtirish, shuningdek, dam olish oraliqlari va faoliyatning tashqi sharoitlarini o'zgartirish) yo'li bilan erishiladi. Bunda organizmning funksional imkoniyatlariga odatdagidek bo'lmagan, ya'ni tobora kattaroq talablar qo'yiladi va bu bilan ularning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratiladi. Shu bilan birga, harakat shakli va sharoitini yangilab turish tufayli o'zlashtirilgan malakalarning mazmuni va shiddatiga o'zgartirishlar kiritiladi.

Shug'ullanuvchilarda jismoniy sifatlarni tarbiyalash uchun berilayotgan mashqlar ularning yoshlik xususiyatlariga va jismoniy sifatlarning qulay yoshlik davrlariga qarab tanlanishi va rivojlantirilishi juda muhim hisoblanadi.

1.3. Jismoniy sifatlarni tarbiyalash

Ish qobiliyati, charchash, tiklanish va jismoniy imkoniyatlarni oshirish

Faoliyat turlarining xususiyatiga qarab charchoqning bir necha turlari mavjuddir. Bular aqliy, sensor (his-tuyg'u organlariga tushadigan nagruzka bilan bog'liq) emosional va jismoniy charchoqdan iborat. Sport sohasi uchun mushak faoliyati tufayli hosil bo'lgan jismoniy charchoq ko'proq ahamiyatga ega.

Odam o'z faoliyatida belgilangan yuklama shiddatini qachongacha saqlay olishini ko'rsatadigan vaqt chidamlilikning asosiy o'lchovidir. Chidamlilik bevosita va bilvosita usullar bilan o'lchanadi. Bevosita o'lchash usulida tekshirilayotganlarga biror bir topshiriqni bajarish (masalan, berilgan tezlikda yugurish) tavsiya etiladi va ish qancha vaqtgacha berilgan shiddatda bajarilishi (tezlik pasaya boshlagunga qadar) aniqlanadi.

Kishining harakat faoliyati xilma-xildir; charchoqning xarakteri va mexanizmlari ham turli hollarda turlicha bo'ladi. Sportda umumiy charchoq ko'proq uchrab turadi.

Shakl jihatdan bir xil bo'lgan mashqlarni turli shiddatda bajarish mumkin, shunga muvofiq bu mashqlarni bajarishga sarflanadigan vaqt chegarasi bir necha sekunddan bir necha soatgacha bo'ladi. Bu hollarda charchash mexanizmlari ham turlicha bo'ladi. Shuning uchun jismoniy mashqlar shiddatiga ko'ra ham turkumlanadi.

Aerob imkoniyatlarni oshirish uslubi. Trenirovka jarayonida organizmning aerob imkoniyatlariga ta'sir etish orqali uch vazifa hal etiladi:

- 1) kislorod iste'mol qilishning maksimal darajasini oshirish;
- 2) shu darajani uzoq vaqtgacha saqlab turish qobiliyatini rivojlantirish;
- 3) nafas olish jarayonlarining maksimal miqdorgacha tezroq etishini ta'minlash.

Aerob imkoniyatlarni oshirishda bir me'yorda mashq qilish usulidan, shuningdek, takroriy va o'zgaruvchan mashq usullaridan foydalaniladi. Bir me'yorda to'xtovsiz mashq qilish umumiy chidamlilikni tarbiyalashning dastlabki bosqichlarida, ayniqsa, keng qo'llaniladi.

Aerob imkoniyatlarni oshirishda, garchi birinchi qarashda tushunarsiz bo'lib ko'rinlsa ham, qisqa muddatli dam olish oraliqlariga bo'lingan takrorlash tarzida bajarilayotgan ishlar (oraliqli takroriy va o'zgaruvchan mashq usullari) ko'proq samara beradi. Qisqa vaqt ichida shiddatli faoliyat natijasida hosil bo'ladigan anaerob parchalanish mahsulotlari nafas olish jarayonlarining kuchli stimulyatori bo'lib hizmat qiladi. SHuning uchun bunday ish bajargandan so'ng dastlabki 10-90 sek. ichida kislorod iste'mol qilish ortadi, yurak ishining ba'zi bir ko'rsatkichlari ham oshib boradi – haydalayotgan qon hajmi ortadi. Agar qayta nagruzka bu ko'rsatkichlar ancha yuqori bo'lib turgan vaqtda bajarilsa, mashqni takrorlagan sari kislorod iste'mol qilish ortib boradi. CHegara darajadagi miqdorga etgach, u shu darajada barqaror bo'lib qoladi va ishning oxirigacha qayta pasaymaydi. Ish va dam olishning ma'lum bir nisbatida organizmning kislorodga bo'lgan talabi bilan kislorod iste'mol qilish o'rtasida muvozanat hosil bo'lishi mumkin.

Aerob imkoniyatlarni oshirish uchun takroriy va takroriy-o'zgaruvchan mashq usullaridan foydalanganda, asosiy vazifa ishlash bilan dam olishning eng yaxshi variantini tanlashdan iborat.

Taxminan quyidagi xarakteristikalarni ko'rsatish mumkin:

1. Ishning shiddati maksimal ko'rsatkichning taxminan 75-85% darajasida bo'lishi kerak. Tomir urushi minutiga 130 tadan kam bo'lishiga olib keladigan past shiddatli nagruzkalar aerob imkoniyatlarning sezilarli ortishiga olib kelmaydi.

2. Dam olish oraliqlari shunday bo'lishi kerakki, keyingi bajariladigan ishlar oldingi ishdan keyin ro'y bergan qulay o'zgarishlar holatida sodir bo'lsin. Dam olish oralig'i 3-4 minutdan oshmasligi kerak, chunki bu vaqtga kelib, mushaklarning ish jarayonida kengaygan qon tomirlari qisqarib ulguradi, natijada, takroriy ishning dastlabki minutlarida qon aylanishi ancha qiyinlashadi.

3. Dam olish oraliqlarining unchalik tez bajarilmaydigan ishlar (lo'killab yugurish, yurish va boshqalar) bilan to'ldirish tavsiya etiladi. Buning bir qator afzalliklari bor: dam olishdan ish holatiga va, aksincha, ish holatidan dam olish holatiga o'tish osonlashadi, tiklanish jarayonlari birmuncha tezlashadi va hokazo.

4. Takrorlashlar soni shug'ullanuvchilarning barqaror holatni tutib turish, ya'ni kislorod iste'mol qilish etarlicha yuksak darajada bo'lgan sharoitda ishlash imkoniyatlari bilan aniqlanadi. Charchoq paydo bo'la boshlashi bilan kislorod iste'mol qilish darajasi pasayadi. Odatda, bu pasayish ishni to'xtatish uchun signal bo'lib xizmat qiladi.

Anaerob imkoniyatlarni oshirish uslubi. Anaerob imkoniyatlarni oshirishda ikki vazifani hal qilish kerak:

1) fosfokreatin mexanizmining funksional imkoniyatlarini oshirish;

2) glikolitik mexanizmni takomillashtirish. Vosita sifatida, odatda, tegishli shiddatli siklik mashqlardan foydalaniladi.

Kreatinfosfat mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan nagruzkalar quyidagi xarakteristikalar bilan farqlanadi:

1. Ishning shiddati chegara darajasidagi tezlikka yaqin, maksimal tezlikning 95% gacha.

2. Dam olish taxminan 2-3 minutga teng bo'lishi kerak. Biroq mushaklardagi kreatinfosfat zahirolari juda kam bo'lganligi uchun, mashq 3-4 marta takrorlanganidan keyin fosfokreatin mexanizmining imkoniyatlari tugaydi.

Shuning uchun mashg'ulotlarda rejalashtiriladigan ish hajmini har birida 4-5 ta takrorlanish bo'ladigan bir necha seriyalarga bo'lib yuborish maqsadga muvofiqdir. Seriyalar oralig'idagi dam olish vaqti 7-10 minut bo'lishi mumkin.

3. Takrorlashlar soni shug'ullanuvchilarning tayyor ekanlik darajasi gaqarab belgilanadi.

Glikolitik mexanizmni takomillashtirishda nagruzkalar quyidagi xususiyatlar bilan xarakterlanadi.

1. Ishning shiddati mashq uchun tanlangan masofaning uzunligi bilan belgilanadi. Siljish tezligi mazkur masofadagi chegara tezlikka yaqin (chegara tezlikning 90-95%) bo'lishi kerak.

2. Dam olish oraliqlari glikolitik jarayonlar dinamikasi bilan belgilanadi. Dam olish oraliqlarini sekin-asta kamayib boradigan qilish kerak. Masalan, 1- va 2- takrorlash oralig'ida 5-8 minut, 2- va 3- sida 3-4 min, 3- va 4- sida esa 2-3 min.

3. Bunday holda dam olish oraliqlarini boshqa ish turlari bilan to'ldirish kerak emas. Faqat batamom harakatsiz qolinmasa bas.

4. Dam olish oraliqlari kamayib boruvchi faoliyatda takrorlashlar soni, charchoq tez ortib borgani sababli, uncha ko'p bo'lmaydi (3-4 tadan ko'p emas). Seriyalar oralig'idagi dam olish vaqti kamida 15-20 min. bo'lishi kerak.

Sport bilan endigina shug'ullana boshlaganlar va kichik razryadli sportchilar, odatda, bir mashg'ulotda ko'pi bilan 2-3 seriya bajarishlari mumkin.

Shunday qilib, trenirovka jarayonida chidamlilikning xilma-xil tomonlariga ko'proq ta'sir etish izchilligi quyidagicha bo'lishi kerak: dastlab nafas olish imkoniyatlarini, so'ngra glikolitik imkoniyatlarni va, nihoyat, kreatinfosfatkinaza reaksiyasi energiyasidan foydalanish qobiliyati bilan belgilanadigan imkoniyatlarni oshirishga e'tibor beriladi.

Chidamlilik umumiy va maxsus bo'ladi. Umumiy chidamlilik – bu uzoq vaqt mo'tadil sur'at bilan bajariladigan ishdagi chidamlilik bo'lib, u barcha mushak apparatlarining funksiyalarini zzig'a qamrab oladi. Lekin bu ta'rif hozirgi paytda birmuncha eskirgan. Bu o'rinda gap faoliyatning muayyan sur'ati xaqida emas, balki mushakning har qanday holatidagi faoliyat haqida borishi kerak. Binobarin, buni mushaklar ishi oxirgi imkoniyat darajasida (ya'ni uzoq vaqt) bajariladigan faoliyat deb tushunmaslik kerak, balki ishga layoqatning eng yuqori darajasini, mashg'ulotlarda bajarilayotgan ishni butun vaqt davomida saqlay olishdir.

Maxsus chidamlilik sportchining maxsus yuklamalarni o'z ixtisosligi talablari bo'yicha uzoq vaqt davomida samarali bajara olish qobiliyatidir.

Yosh tennischilarni tayyorlashda chidamlilik sifatini rivojlantirish umumiy tayyorgarlikning eng asosiy qismi hisoblanadi.

Bu yoshdagi tennischilar aerob xarakterdagi ishga tez moslashadilar. Bu esa ularda kislorod – transport tizimini rivojlantirish imkoniyatini oshiradi. SHuning uchun boshlang'ich sport ixtisosligida katta hajmdagi ishlarni nisbatan yuqori bo'lmagan shiddatda bajarish tavsiya etiladi.


Yosh tennischilarda umumiy chidamlilikni tarbiyalashda uzoq masofalarga yugurish, kross, velosiped haydash, suzish, harakatli va sport o'yinlaridan vosita sifatida foydalaniladi. Ko'p hollarda nisbatan yuqori bo'lmagan shiddatda yugurishdan foydalanilib, uning davomiyligi 5-8 dan 30-60 min.gacha oshirib boriladi. Tayyorgarligi yuqori bo'lgan yosh tennischilarda ishning davomiyligini yanada uzaytirish mumkin.

Umumiy chidamlilikni tarbiyalashda bir me'yordagi trenirovka, o'zgaruvchan mashq usuli, o'yin va qat'iy tartiblashtirilgan uslub variantlaridan foydalanish mumkin. Ayniqsa, aylanma mashq uslubidan foydalanish katta samara beradi. Chunki ushbu uslubda shug'ullanuvchilarning individual xususiyatlarini aniq e'tiborga olish imkoniyati bo'ladi.

Yosh tennischilarning umumiy chidamlilik darajasini masofa uzunligini bosib o'tish shiddati orqali aniqlash mumkin bo'ladi. Bunda shiddat maksimal tezlikning 60 %ini tashkil etishi kerak yoki 3000 m masofani qancha vaqt ichida bosib o'tish aniqlanadi.

Chidamlilikni rivojlantirish uchun quyidagi uslublar qo'llaniladi: bajariladigan mashqlar hajmi va shiddatini oshirish, o'zgaruvchan, oraliqli, o'zgaruvchan-oraliqli, takroriy.

Hajmni oshirish uslubi shundan iboratki, jismoniy mashqlarni bajarish vaqti mashg'ulotdan mashg'ulotga asta-sekin ortib boradi. Bu uslub mashg'ulotlar sonini ko'paytirishni nazarda tutadi.



Shiddatni oshirish uslubi jismoniy mashqlarni bajarish sur'ati, shuningdek, butunlay mashg'ulot zichligini mashg'ulotdan mashg'ulotga asta-sekin oshirib borishni ko'zda tutadi.

O'zgaruvchan uslub shundan iboratki, jismoniy mashqlar har xil sur'atda bajariladi. Bunda past sur'atli mashqlar o'tkaziladigan vaqt bo'laklari mashg'ulotdan mashg'ulotga kamayib, baland sur'atda o'tkaziladiganlari ortib boradi.

Oraliqli uslub shundan iboratki, bunda jismoniy mashqlar bo'laklarga bo'linib (seriyalab), sust va faol dam olish oraliqlariga bo'lib o'tkaziladi. Trenirovka vazifalari mashqlarni bajarish sur'ati va davomiyligiga, shuningdek, tennischining mashqlanganlik darajasi hamda kayfiyatiga qarab, ish hamda dam olish oraliqlari davomiyligiga ko'ra har xil bo'lishi lozim.

Takrorlash uslubi shundan iboratki, sportchi bir mashg'ulotning o'zida yoki bir nechta mashg'ulotda hajmi va shiddatiga ko'ra bir xil bo'lgan mashqlarni takrorlaydi.

Sport trenirovkasi jarayonida hamma uslublar bir-biri bilan turlicha uyg'unlashtirilgan holda qo'llaniladi. Chidamlilikni tarbiyalash samaradorligi ko'p jihatdan trenirovka jarayonining oqilona tuzilganligi bilan belgilanadi. Turli yo'nalishdagi mashqlarni bajarishda ma'lum bir ketma-ketlikka amal qilish va ularning ijobiy o'zaro ta'sir etishini ta'minlash juda muhimdir. Quyidagi ketma-ketlikka rioya etish maqsadga muvofiqdir:

- avval alaktat-anaerob mashqlar (tezkor va tezkorlik kuch), so'ngra anaerob-glikolitik (kuch chidamliligi uchun) mashqlar;

- avval alaktat-anaerob, so'ngra aerob mashqlar (umumiy chidamlilik uchun);

- avval anaerob-glikolitik, aerob mashqlar.

Agar mashqlar ketma-ketligi teskari bo'lsa, trenirovka samarasining o'zaro ta'siri salbiy bo'ladi hamda bunday mashg'ulot kam foyda beradi.

Umumiy chidamlilik o'rtacha shiddatdagi ishni uzoq muddat bajarish qobiliyatidir. Uning rivojlanishiga ta'sir qilinganda, avvalombor, organizmning yurak- tomir, nafas tizimlariga va kislorod ta'minotini takomillashtirish nazarda tutiladi.

Aerob chidamlilikni tarbiyalashda asosiy usul bu ishni uzoq muddat (10 daqiqadan ortiq) bir tekis va o'rtacha o'zgaruvchan shiddatda bajarish (tomir urishi - 130 -150 zarba/min) bilan amalga oshiriladi. SHug'ullunuvchilarni o'z- o'zining holatini nazorat qilishga o'rgatish juda muhimdir. To'g'ri mo'ljal sifatida quyidagi tartiblarni misol qilib keltirish mumkin.

Tomir urishi - 150 zarba/min.gacha bo'lsa aerob, 180 zarba/min.gacha bo'lsa - aralash, 180 zarba/min.dan ko'pi anaerob imkoniyat bo'ladi.

14-15 yoshli shug'ullanuvchilar uchun umumiy chidamlilikni oshirishda oraliq usuldan ham foydalanish mumkin. Bunda shiddat 170 zarba/min.gacha, mashqning bajarilish davomiyligi - 3 min.gacha, takrorlanish soni 5-6 marotaba, dam olish oralig'i 30-90 sek., bir urinishda 5-6 marta takrorlash, urinishlar soni 2-6 marotaba.

Maxsus chidamlilikni rivojlantirish.

Maxsus chidamlilik bu maxsus ishni berilgan vaqt oralig'ida samarali bajarish qobiliyatidir. Tennischining maxsus chidamliligi o'yin malakalarini kuch va tezkorlik chidamliligi jihatidan samarali bajarish bilan ifodalanadi. Maxsus chidamlilikni o'stirishni 13-14 yoshdan boshlash maqbuldir. Mashqlar anaerob yo'nalishda tanlanadi.

Sprint yugurish mashqlari masofasi 400-500 metrgacha (o'g'il bolalar) va 200 -300 metrgacha (qizlar) bo'lishi mumkin.

Yuklamalar qat'iy individuallashtirilgan tartibda beriladi. Tomir urishining ish oxirigacha 175 -180 zarba /min. bo'lishi saqlanadi. Bajarish maksimal tezlikni 80-85%, dam olish 45 sek.

dan 3 min.gacha, takrorlash soni 3-4 marotaba, urinishlar 2-3 marotaba, urinishlar oralig'ida dam olish davomiyligi 5 daqiqagacha bo'ladi.

Sakrovchanlik chidamliligini tarbiyalashda maksimal va submaksimal shiddatdagi mashqlar 1-3 daqiqa, takrorlash soni 4-6 marotaba, takrorlashlar oralig'idagi dam olish 1-4 min.ni tashkil etadi. Bunda quyidagi sakrash turlaridan foydalanish mumkin: o'tirib sakrash; «kenguru» holatida sakrash; sakrab uzatish, zarba berish imitatsiyasi; og'irliklar bilan (gantel, to'ldirma to'p, qum to'ldirilgan qopcha, og'irlashtirilgan belbog' va nimchalar); chuqurlikka va balandlikka sakrashlar. Axmedova N.I. "Tennischi qizlarning jismoniy va maxsus tayyorgaligini takomillashtirish yo'llari" monografiyasida to'liq yoritilgan.

Chidamlilik sifatini rivojlantirishda foydalaniladigan namunaviy mashqlar

1. 15-20 sek davomida sakrashlar. Birinchi urinishda maksimal darajada ko'p sakrash. Ikkinchi urinishda maksimal darajada balandroq sakrash. 4-5-seriyalarda 1-1,5 min. davomida to'xtovsiz sakrash. Ushbu mashqni arg'amchilar bilan ham bajarish mumkin.

2. Pastki turish holatidan 1-1,5 min. davomida turli yo'nalishlarda harakatlanishlar. 3-4-seriyalarda 2-5 kg og'irliklar bilan.

3. Hujum zarbasi va to'siqni taqlid qilib, orqa zonalarda do'mbaloq oshishni navbatlashtirib bajarish. Har bir texnik usulni 10 marotabadan.

4. Turli harakatlanishlar bilan estafetalar o'tkazish.

5. Turli yo'nalish va masofalarga «mokkisimon yugurishlar»

6. 2x2, 3x3, 4x4 tarkibda o'quv o'yinlari.

Tezkorlikni tarbiyalash

Tezkorlik deb muayyan faoliyatni qisqa muddat ichida ijro etilishiga aytiladi. Tezkorlik namoyon bo'lishining uchta asosiy shakllari mavjuddir:

1. Harakat reaksiyalarining latent (yashirin) vaqti.
2. Ayrim harakatlar tezligi (tashqi qarshilik kichik bo'lganda).
3. Harakatlar chastotasi.

Tezkorlik namoyon bo'lishining shakllari bir-biriga nisbatan bog'liq emas.

Ko'rsatib o'tilgan uchta shaklning birgalikda kelishi tezkorlik namoyon bo'lishining barcha hollarini belgilaydi. Biroq murakkab-koordinasion yaxlit harakatlardagi tezlik faqat tezkorlik darajasiga emas, balki boshqa sabablarga ham bog'liq. SHuning uchun yaxlit harakat tezligi kishining tezkorligini faqat bilvosita ifodalanadi.

Kishining tezlik qobiliyatlari umuman o'ziga xos bo'ladi. Faqat bir-biriga o'xshash harakatlardagina tezkorlik to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita bir-biriga ko'chishi mumkin.

Tezkorlikning fiziologik va bioximik asoslari. Reaksiyaning latent vaqti beshta tarkibiy qismdan iborat:

1) reseptorda qo'zg'alishning paydo bo'lishi; 2) qo'zg'alishni markaziy nerv sistemasiga uzatish; 3) qo'zg'alishning nerv yo'llari bo'ylab o'tib borishi va effektor signal hosil bo'lishi; 4) signalning markaziy nerv sistemasidan mushakka o'tkazilishi; 5) mushakning qo'zg'alishi va unda mexanik faollikning paydo bo'lishi.

Maksimal tezlikda bajariladigan harakatlar fizilogik xususiyatlarga ko'ra sustroq harakatlardan farq qiladi. Bular orasidagi eng muhim farq shundan iboratki, harakatlarni maksimal tezlikda bajarish davomida sensor bog'lanishlar hosil

bo'lishi qiyinlashadi: reflektor yoy impulslarni tashib ulgurolmaydi. Tezlik juda katta bo'lganida harakatlarni yetaralicha aniqlik bilan bajarishning qiyinligi mana shu bilan bog'liqdir.

Oddiy reaksiya tezkorligini tarbiyalash. Xarakatlantiruvchi reaksiya tezligi ta'sirga javob berishning latent vaqti bilan belgilanadi. Reaksiyalar oddiy va murakkab bo'ladi. Oddiy reaksiya oldindan ma'lum bo'lgan signalga ilgaridan ma'lum bo'lgan harakat bilan javob berishdir.

Tezkorlikning juda ko'p o'tishi (boshqa biror harakatga o'tishi) oddiy reaksiyalar uchun xarakterlidir: ayrim vaziyatlarda tezda biror qarorga keluvchi kishilar boshqa sharoitdarda ham tezroq biror fikrga keladilar. Tez bajariladigan xilma-xil mashqlar bilan shug'ullanish oddiy reaksiya tezkorligini yaxshilaydi.

Harakatlantiruvchi reaksiya tezkorligini anchagina yaxshilash g'oyat murakkab vazifadir.

Oddiy reaksiya tezkorligini tarbiyalashda bir necha usullardan foydalaniladi. Bulardan eng ko'p tarqalgani to'satdan paydo bo'ladigan signalga yoki tevarak-atrofdagi vaziyatning o'zgarishiga javoban mumkin qadar tezroq reaksiya ko'rsatish usulidir. Bu usul yangi shug'ullanuvchilar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda tez orada ijobiy natijalar ko'rsatadi. Afsuski, shundan keyin reaksiya tezkorligi stabillashib qoladi va uning yaxshilanishi ancha qiyin bo'ladi.

Reaksiya tezkorligi katta ahamiyatga ega bo'lgan hollarda uni takomillashtirish uchun maxsus usullardan foydalaniladi. Bu usullardan biri – reaksiya tezkorligini engillashtirilgan sharoitlarda va uni keyingi harakat tezligini ayrim-ayrim takomillashtirishdan iboratdir.

Reaksiyaning latent vaqti reaksiya ko'rsatishdan oldingi rasional xatti-harakat hisobiga birmuncha yaxshilanishi mumkin. Jumladan, diqqatning yo'nalishi ahamiyatga ega bo'ladi: agar diqqat bajarilajak harakatga qaratilgan bo'lsa (reaksiyaning motor tipi), u holda reaksiya ko'rsatish vaqti diqqat signalni idrok qilishga (reaksiyaning sensor tipi) qaratilganligidan ko'ra kamroq bo'ladi. Mushaklar bir oz kuchlanganda ham reaksiya tezkorligi ortadi. Reaksiya tezkorligi, shuningdek, signalni kutish vaqtiga ham bog'liq: dastlabki va ijro komandalari orasidagi optimal vaqt 1,5 sek.ga yaqindir.

Murakkab reaksiya tezkorligini tarbiyalash. Murakkab reaksiyaning ikki xili, ya'ni harakatdagi ob'ektga bo'ladigan reaksiya va tanlash reaksiyasi ustida to'xtalib o'tamiz.

Harakatdagi ob'ektga bo'ladigan reaksiyada to'p qabul qiluvchi o'yinchining harakatlarini ko'rib chiqaylik. Bu holda o'yinchi quyidagilarni bajarishi kerak: 1) to'pni ko'rish; 2) to'pning yo'nalishini va uning uchish tezligini baholash; 3) bajariladigan amal rejasini tanlash; 4) bu rejani ro'yobga chiqara boshlash. Mazkur holda reaksiyaning yashirin davri mana shu to'rt elementdan tashkil topadi. Harakatdagi ob'ekt to'satdan paydo bo'lganda, bu ob'ektga reaksiya ko'rsatish 0,25 sek. - 1 sek. vaqtini oladi. Bu vaqtning asosiy qismi birinchi elementga, ya'ni to'pni tez ko'rib olishga sarf bo'lishi tajribalarda kuzatilgan. Sensor fazaning o'ziga juda kam - 0,05 sek. vaqt ketadi. Shunday qilib, harakat qilayotgan to'pni ko'ra bilish asosiy ahamiyatga ega. Aynan mana shu qobiliyatni o'stirishga alohida e'tibor berish kerak. Buning uchun harakatdagi buyumga reaksiya ko'rsatishga doir mashqlardan foydalaniladi; trenirovka talablari harakatdagi buyumning tezligini oshirish, ob'ektning to'satdan paydo bo'lishi, sportchi bilan buyum

o'rtasidagi masofani qisqartirish hisobiga amalga oshiriladi. Kichik to'p (tennis to'pi) bilan bajariladigan harakatli o'yinlar juda foydalidir. Ob'ekt (jumladan, o'yindagi to'p) siljiy boshlaguncha ko'rib qolingan bo'lsa, reaksiya vaqti ancha kamayadi. Bunda to'pga zarb berayotgan o'yinchining harakatlariga binoan to'pning yo'nalishini va uchish tezligini aniqlay bilish katta ahamiyatga ega.

Harakatdagi ob'ektga reaksiya ko'rsatishning aniqligi shu reaksiya tezligini o'stirish bilan parallel ravishda takomillashtirib boriladi. Faqat dastlabki bir necha mashg'ulotnigina reaksiya aniqligini rivojlantirishga maxsus ajratish kerak. Bunda shug'ullanuvchilarga harakatdagi ob'ektdan ildamroq harakat qilish zarurligini tushuntirish lozim.

Tanlash reaksiyasi raqib hatti-harakatlarining yoki tevarakatrofdagi sharoitning o'zgarishiga muvofiq ravishda mumkin bo'lgan harakatlantiruvchi javoblardan keragini tanlab olish bilan bog'liq. Tanlash reaksiyasining murakkabligi sharoitning o'zgarish imkoniyatlari rang-barangligiga, chunonchi, raqibning xilma-xil harakat qilishiga bog'liq. Tennischilarning murakkab reaksiyasiga bo'lgan talab nihoyatda katta.

«Murakkab reaksiyani tarbiyalashda» oddiydan murakkabga degan pedagogik tamoyilga rioya qilinib, sharoitning mumkin bo'lgan o'zgarishlari soni asta-sekin oshira boriladi. Masalan, dastlab oldindan kelishib olingan zarbga javoban qanday himoyalaniş kerakligi o'rgatiladi; keyinchalik shug'ullanuvchiga ehtimol tutilgan ikki xil usuldan biriga, so'ng uch xildan biriga, to'rt xildan biriga va hokazo javob berish tavsiya qilinadi. Asta-sekin bu mashq haqiqiy sharoitga yaqinlashtirib boriladi.

Xarakat tezkorligini tarbiyalash uslubiyati.

Harakat tezkorligini tarbiyalash jarayonida organizmning harakat faoliyati xilma-xil turlaridagi (bevosita amaliy va sport faoliyatidagi) tezlik xarakteristikasini belgilovchi funksional imkoniyatlarni har tomonlama oshirib borish zarur. Shug'ullanuvchi biror-bir faoliyatda namoyon qilishi mumkin bo'lgan maksimal tezlik shu kishida faqat tezkorlik qanchalik rivojlanganligiga emas, balki bir qator boshqa omillarga – dinamik kuch, chaqqonlik, texnikaning egallanganligi darajasi va boshqalarga bog'liq. Shuning uchun harakat tezligini tarbiyalash boshqa jismoniy sifatlarni tarbiyalash hamda texnikani takomillashtirish bilan mustahkam bog'liq holda olib borilishi kerak.

Maksimal tezlikda bajarish mumkin bo'lgan mashqlardan (bularni odatda, tezkor mashqlar deb ataydilar) tezkorlikni tarbiyalash vositasi sifatida foydalaniladi. Ular quyidagi talablarni qondirishi kerak:

1) texnika mashqni juda tez bajarishga imkon beradigan darajada bo'lishi kerak;

2) mashqlarni bajarish vaqtida asosiy irodaviy zo'riqish mashqni bajarish usuliga emas, balki ularni bajarish tezligiga qaratilishi uchun mumkin darajada yaxshi o'zlashtirilgan bo'lishi kerak;

3) mashqlarning davomiyligi ularni bajarish oxirida charchash tufayli tezlikning kamayib ketishiga olib kelmasligi kerak.

Tezkorlikni tarbiyalash usullari ichida takroriy mashq usuli keng qo'llaniladi. Bunday asosiy tendensiya mashg'ulotda o'z maksimal tezligini oshirib borishga intilishdir. Usulning barcha xususiyatlari (masofaning uzunligi, bajarish shiddati, dam olish oraliqlari, takrorlash soni va boshqalar) shunga bo'ysundirilgan.

Masofaning uzunligi (yoki mashqning qancha davom etishi) har galgi mashq bajarish oxirida siljish tezligi (ishning shiddati) kamaymaydigan qilib tanlanadi. Harakatlar maksimal tezlikda bajariladi; shug'ullanuvchilar har safar o'zlari uchun eng yaxshi natija ko'rsatishga intiladilar. Mashq bajarish gallari o'rtasidagi dam olish oraliqlari kuchning nisbatan to'la tiklanishini ta'minlaydigan darajada katta bo'lishi lozim. Harakatlar tezligi takrorlashlar o'rtasida sezilarli drajada kamaya borishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Tez bajariladigan mashqlar takrorlanganda, to'la tiklanish uchun dam olish oraliqlari etarli bo'lmaganligi sababli charchash nisbatan tez boshlanadi, tashqi tomondan bu tezlikning pasayganligida ifodalanadi. Tezlikning pasa-yishi mazkur mashg'ulotda tezkorlikni tarbiyalashni to'xtatish uchun birinchi signal bo'lib xizmat qiladi: bundan keyin mashqni takrorlash faqat chidamlilikning o'sishiga yordam beradi xolos.

Tezkorlikning namoyon bo'lishi uchun mashg'ulotlarda o'yin va, ayniqsa, musobaqa usulidan foydalanish katta ahamiyatga ega. Musobaqalar, odatda, ko'tarinki ruh paydo qiladi, kishini anchagina zo'r berishga majbur etadi – bu esa ko'p hollarda sport natijalarining yaxshilanishiga olib keladi.

Yangi shug'ullanuvchilar bilan ishlashning asosiy vazifasi sportchini biror-bir alohida mashqni bajarishga ixtisoslashtirmay, balki boshqa vositalarni qo'llab va ularni ko'p jihatdan o'zgartira borib, nisbatan yuqori natijalarga erishishdan iboratdir. Bunda tezkorlik mashqlaridan standart holda emas, balki o'zgaruvchan sharoit va shakllarda foydalanish kerak. Jumladan, harakatli o'yinlar va sport o'yinlari, ochiq joyda bajariladigan mashq va hokazolar ayniqsa foydalidir.

Biror-bir harakatda asosan ikki yo'l bilan tezlikni oshirish mumkin:

- 1) maksimal tezlikni oshirish hisobiga,
- 2) maksimal kuchni oshirish hisobiga.

Tajriba ko'rsatadiki, maksimal tezlikni sezilarli oshirish juda ham qiyin, kuch imkoniyatlarini oshirish esa birmuncha yengil hal qilinadi. Shuning uchun amalda tezlik darajasini oshirish uchun kuch oshiradigan mashqlardan keng foydalaniladi. Harakat vaqtida yengish lozim bo'lgan qarshilik qancha ko'p bo'lsa, bu mashqlarning samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Harakatlar tezligini oshirishga qaratilgan kuch oshirish tayyorgarligi jarayonida ikki asosiy vazifa hal qilinadi:

1) maksimal mushak kuchi darajasini (kuch qobiliyatlarining o'zini) oshirish;

2) tezkor harakatlar sharoitida eng ko'p kuch namoyon qilish qobiliyatini (tezkorlik-kuch qobiliyatlarini) tarbiyalash.

Tezkorlik-kuch mashqlarini kuch mashqlarining o'ziga asoslanib, ular bilan birgalikda qo'llash kerak.

Tezkorlik sifatini rivojlantirishda foydalaniladigan namunaviy mashqlar

1. Ko'rish signaliga ko'ra turli dastlabki xolatlardan(turib, o'tirib, yotib) tezlanib yugurishlar.

2. Harakat yo'nalishini tez o'zgartirib yugurishlar.

3. Ayrim harakat usullarini tez o'zgartirib taqlid qilish.

4. Bir turdagi harakatdan boshqa turdagi harakatlarga tez o'tish.

5. Tezkorlikni talab etuvchi estafetalar.

Kuch sifatini tarbiyalash

Tashqi qarshiliklarni mushak kuchi yordamida engish yoki unga qarshi turish kuch sifatini ta'riflaydi. Mushaklar kuchi quyidagicha namoyon bo'ladi:

1) o'z uzunliglarini o'zgartirmay (statik, izometrik);

2) o'z uzunliglarini qisqartirib (qarshiliklarni enguvchi, miometrik);

3) uzayib (yon beruvchi, pliometrik).

Qarshiliklarni yenguvchi va ularga yon beruvchi mushak kuchlari birgalikda «dinamik rejim» deb ham yuritiladi. Kuch sifatini taqqoslashda quyidagi kuch turlari farqlanadi:

1. Nisbiy kuch. Nisbiy kuch deganda o'z vaznining bir kilogrammiga to'g'ri keladigan kuch miqdori tushuniladi.

2. Absolyut kuch. Biror bir harakatda o'z og'irligidan qat'iy nazar namoyon qilingan kuch tushuniladi.

3. Tezkor kuch (portlovchi kuch). Qisqa vaqt ichida katta miqdordagi kuchning namoyon qilinishi tushuniladi.

Qarshiligi oshirilgan mashqlar kuchni rivojlantirishda asosiy vosita bo'lib hisoblanadi. Bu vositalar ikki guruhga bo'linadi.

1. Tashqi qarshiliklarni engish bilan bajariladigan mashqlar. Odatda, tashqi qarshilik sifatida quyidagilardan foydalaniladi: buyumlarning og'irligi; sherikning qarshiligi; elastik buyumlarning qarshiligi; tashqi muhit qarshiligi;

2. O'z vazni og'irligini yengib bajariladigan mashqlar.

Og'irlik ko'tarib bajariladigan mashqlar juda qulay bo'lib, ular yordamida ham kichik, ham katta mushak guruhlariga ta'sir ko'rsatish mumkin. Bu mashqlarni me'yorlash ham oson. Og'irlik ko'tarib bajariladigan mashqlarda dastlabki holat etakchi rolni o'ynaganligi sababli, bunga alohida e'tibor qaratish zarur bo'ladi.

Cho'ziluvchan va elastik buyumlar (prujinali espanderlar, rezinka) bilan bajariladigan mashqlarda harakatning oxiriga borib zo'riqishning ortib borishi xarakterlidir.

O'z gavda og'irligini yengish mashqlari, odatda, osilish va tayanish holatlarida amalga oshiriladi.

Kuch mashqlarining yuqorida keltirilgan tasnifi bilan bir qatorda, ularning saralab ta'sir etish darajasiga (umumiy va nisbatan ma'lum bir joyga ta'sir etishiga) ko'ra, shuningdek, mushaklarning ishlash rejimiga ko'ra, statik va dinamik, kuchlilik va tezkorlik-kuch, qarshiliklarni yenguvchi va yon beruvchi mashqlarga bo'linishini ham e'tiborga olish kerak.

Agar shug'ullanuvchining kuchiga muntazam ravishda zo'r berilmasa, mushak kuchi o'smay qolishi, hatto kamayib ketishi ham mumkin.

Maksimal darajada zo'r berishni turli yo'llar bilan hosil qilish mumkin:

1. Chegaraga yaqin bo'lmagan og'irliklarni (qarshiliklar-ni) engishni chegarada darajasida ko'p marotaba takrorlash;
2. Tashqi qarshilikni chegarada darajagacha oshirish (dinamik va statik faoliyatlarda)
3. Qarshiliklarni chegarada darajadagi tezlik bilan engish.

Kuch sifatini rivojlantirishda foydalaniladigan namunaviy mashqlar

1. Kaft va panjalarni sherikning qarshiligini yengib (yoki gantellar bilan) bukib-yozish mashqlari.
2. Turli og'irlikdagi to'ldirma to'plarni irg'itish. Asosiy e'tibor qo'l harakatlariga qaratiladi.
3. Qo'llarga tayanib yotgan holda ularni bukib-yozish, yerdan uzib chapak chalish mashqlari.
4. Amortizatorli jihozlarni cho'zish bilan boradigan tuzilishi bo'yicha texnik usullarga o'xshash mashqlarni bajarish.
5. Og'irliklar (shtanga lappagi, gantellar, qum to'ldirilgan qopchalar) bilan gavdaning aylanma harakatli mashqlari.
6. Shtangani ko'krakka ko'tarib o'tirib-turish mashqlari;
7. Shtangani elkaga olib sakrashlar. Og'irlik maksimalning 50% hajmida.

8. Arg'amchi bilan sakrashlar.

9. Joydan va yugurib kelib yuqoriga ilib qo'yilgan predmetga qo'l tekkizish yoki olish;

10 Bir va ikki oyoqda uzunlikka sakrashlar.

11. To'siqlar ustidan ko'p sakrashlar.

12. Chuqurlikka sakrashlar.

Chaqqonlikni tarbiyalash

Chaqqonlik bir qancha ko'rsatkichlar bilan aniqlanishi sababli yagona ta'rifga ega emas.

Har qanday harakat biror bir aniq vazifani hal qilishga qaratilgan bo'ladi: mumkin qadar balandroq sakrash; to'pga zarba berish; to'pni uzatish va boshqalar. Harakat vazifasining murakkabligi ketma-ket bajariladigan harakatlarning uyg'unligi bilan belgilanadi. Harakatlarning koordinasion murakkabligi chaqqonlikning birinchi mezonini hisoblanadi.

Agar harakat etarli darajada aniq bo'lsa, harakat vazifasi bajariladi. Harakatning aniqligi chaqqonlikning ikkinchi o'lchovini hisoblanadi.

Agar shug'ullanuvchi o'zi uchun yangi harakatlarni tezda bajara olsa, ushbu harakatlarni o'zlashtirib olishga ko'proq vaqt ketkazgan shug'ullanuvchiga nisbatan chaqqonroq hisoblanadi. Shuning uchun harakatlarni o'zlashtirib olishga sarflanadigan vaqt chaqqonlik ko'rsatkichlaridan biri bo'lishi mumkin. Yuqoridagilarni hisobga olib, chaqqonlikni yangi harakatlarni tezda o'zlashtirib olish, harakat faoliyatini to'satdan o'zgarayotgan sharoit talablariga muvofiq ravishda tezda qayta qurish qobiliyati deb atash mumkin bo'ladi.

Chaqqonlikni tarbiyalash koordinasion jihatdan murakkab harakatlarni o'zlashtirib olish, harakat faoliyatini to'satdan o'zgargan sharoit talablariga muvofiq ravishda qayta qurish qobiliyatini tarbiyalashdan iborat. Bunda muvozanat saqlash,

galma-gal zo'r berish va bo'shashtirish harakatlarini tanlab takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Chaqqonlikni tarbiyalashning asosiy yo'li yangi xilma-xil harakat ko'nikma va malakalarini o'rganib olishdir. Bu harakat zahiralarning ortib borishi va harakat analizatorining funksional imkoniyatlariga samarali ta'sir etadi. Yangi harakatlarga o'rgatishning uzluksiz bo'lishi tavsiya etiladi. Chunki shug'ullanuvchilar yangi harakatlarga muntazam o'rgatib borilmasa, harakatlarga o'rganish qobiliyati pasayib ketadi.

Harakat faoliyatini tez va maqsadga muvofiq ravishda qayta qurish qobiliyati sifatidagi chaqqonlikni tarbiyalash uchun to'satdan o'zgargan sharoitdagi ta'sirlarga darhol javob berish bilan bog'liq bo'lgan mashqlar qo'llaniladi. Chaqqonlikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar nisbatan tez charchashga olib keladi. Ayni paytda esa bu mashqlarning bajarilishi mushaklarning nihoyatda aniq sezib turishini talab etadi va charchash sodir bo'lganda kam samara beradi. Shuning uchun chaqqonlikni tarbiyalashda dam olish oraliqlari to'liq tiklanish uchun etarli bo'lishi lozim.

Tennisda muvozanat saqlash va uni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratiladi.

Muvozanat deganda gavdani turg'un bir holatda saqlash qobiliyati tushuniladi. Tennisda muvozanatni saqlash statik (deyarli harakatsiz muvozanat) va dinamik (harakat vaqtidagi muvozanat) bo'lishi mumkin. Muvozanat funksiyasi qanchalik takomillashgan bo'lsa, u muvozanatni shunchalik tez tiklab oladi, unda tebranish amplitudasi shunchalik kichik bo'ladi.

Muvozanat saqlashni ikkita asosiy yo'l bilan tarbiyalash mumkin. Birinchisi muvozanat saqlash mashqlarini qo'llash, ya'ni muvozanat saqlashni qiyinlashtiradigan sharoitlardagi

mashqlar va holatlar. Ikkinchi yo'l muvozanat (vestibulyar va harakat muavozanati) yo'qolmasligini ta'minlovchi analizatorlarni tanlab takomillashtirishga asoslangan. Vestibulyar funksiyani takomillashtirish uchun to'g'ri chiziqli va burchakli tezlanishlar bilan bajariladigan mashqlardan foydalaniladi.

Chaqqonlik sifatini rivojlantirishda foydalaniladigan namunaviy mashqlar

1. Bir va ko'p marotaba oldinga va orqaga do'mbaloq oshishlar. Xuddi shu mashq ayrim texnik usullarni bajargandan so'ng

2. Turgan joydan va yugurib kelib 180° , 270° , 380° ga burilib bir va ko'p marotaba sakrashlar. Burilishlar bilan turli texnik harakatlarni bajarish.

3. Turli buyumlar orasidan va ustidan o'tib harakatlanishlar.

4. Gimnastika ko'prikchasidan depsinib havoda turli harakatlarni bajarib sakrashlar

5. To'siqlar osha estafetalar.

6. Turli signal va ta'sirlarga belgilangan harakatlar bilan javob berish. Signallar va ta'sirlar sekin-asta ko'paytirib boriladi.

Egiluvchanlikni tarbiyalash

Egiluvchanlik deganda tayanch-harakat apparatining morfo-funksional xususiyatlari tushunilib, bu xususiyatlar shu apparatning zvenolari harakatchanligini belgilaydi.

Harakatlarning maksimal amplitudasi egiluvchanlikning mezoni bo'lib xizmat qiladi. Amplituda burchak o'lchovlarida yoki chiziqli o'lchovlarda ifodalanadi. Egiluvchanlikning ikki turi farqlanadi: faol va sust egiluvchanlik.

Faol egiluvchanlik kishining o'z mushaklari kuch berishi hisobiga namoyon bo'ladi. Sust egiluvchanlik gavdaning harakatlanayotgan qismiga tashqi kuchlar-og'irlik kuchi, sherikning qarshiligi va shu kabi kuchlardan foydalanganda namoyon bo'ladi.

Egiluvchanlik mushak va to'qimalarning elastikligiga bog'liq bo'ladi. Mushaklarning elastiklik xususiyatlari ko'p darajada markaziy nerv tizimining ta'sirida o'zgarishi mumkin.

Egiluvchanlikning namoyon bo'lishi muhitning tashqi haroratiga ham bog'liq bo'ladi. Egiluvchanlik charchash ta'sirida sezilarli o'zgaradi, jumladan, faol egiluvchanlik ko'rsatkichlari kamayadi, sust egiluvchanlik ko'rsatkichlari ortib boradi.

Egiluvchanlikni tarbiyalash uchun harakat amplitudasi oshirilgan (cho'ziluvchanlikni oshiradigan) mashqlardan foydalaniladi. Harakatlarda biror bo'g'indagi harakatchanlikning ortishi shu bo'g'indan o'tadigan mushaklarning qisqarishi hisobiga ro'y beradi. Harakatlar bajarilish xarakteriga ko'ra bir-birlaridan farq qiladi: bir fazali mashqlar va prujinasimon mashqlar; silkinish va ma'lum holatlarni qayd qilib turish; og'irliklar bilan mashqlar. Cho'ziluvchanlikni oshiradigan mashqlarni seriyalar bilan har birini bir necha marta takrorlab bajarish tavsiya etiladi. Bunda seriyadan seriyaga o'tgan sari harakat amplitudasi orttirib boriladi. Har bir mashg'ulotda cho'ziluvchanlik mashqlarini sal-pal og'riq paydo bo'lguncha bajarish lozim. Egiluvchanlik mashqlari mustaqil bajarish uchun topshiriq sifatida berilishi mumkin. Egiluvchanlik mashqlari tayyorgarlik qismida, asosiy qismning oxirida va boshqa mashqlar oralig'ida bajariladi.

Egiluvchanlikni rivojlantirishda foydalaniladigan namunaviy mashqlar

1. Sherikning qarshiligini engib bajariladigan cho'zilish mashqlari.

2. Gimnastika xalqalarida tebranishlar va aylanma xarakatlar.

3. Rezinka va prujinali amortizatorlar qarshiligi-ni engib bajariladigan aylanma (qo'l va oyoqlar uchun) harakatlar.

4. Oldinga va orqaga ketma-ket engashishlar (og'irliklar bilan ham bajariladi).

5. Predmet ustiga (gimnastik devorchaga) oyoqlarni yuqori ko'tarib qo'ygan holda ushlab turish. Oyoqlar holati navbatlashtirib turiladi.

Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotining asosiy tarkibiy qismi hisoblanib, jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayondir (tezkorlik, kuch, chidamlilik, koordinatsiya qobiliyati).

Sportchining jismoniy tayyorgarligi uning mutaxassisligiga va takomillashuv shakli uzviy aloqador bo'lib trenirovka uslubiyatining xususiyatiga va sport yilnomasiga bog'liq.

Kun davomida tennischilarning boshqa sport turlari vakillari kabi, bir nechta trenirovka mashg'ulotlari o'tkaziladi. Ular asosiy va qo'shimcha mashg'ulotlarga bo'linadi. Asosiy mashg'ulotlarda, qoida bo'yicha, kunlik va yuklamaning asosiy vazifasi yechiladi, ya'ni qo'shimcha mashg'ulotlargagina nisbatan katta hajmdagi ish bajariladi. Qo'shimcha mashg'ulotlarda quyidagi vazifalar o'z yechimini topadi.

- sportchi organizmini asosiy trenirovkaga tayyorlash;
- asosiy trenirovkadan keyin tiklanish;
- trenirovka samaradorligini oshirish maqsadida asosiy mashg'ulotdagi vazifalarni takrorlash;
- asosiy vazifalardan farq qiluvchi, qo'shimcha vazifalarni mustaqil takrorlash.

Qoida bo'yicha, yuqori malakali tennischilar, kun davomida ikki – uch mashg'ulot o'tkazadilar. Birinchi – nonushtagacha, ikkinchi – nonushta va tushlik orasida va uchinchi – tushlik va kechki ovqatlanish orasida. Mahoratli sportchining birinchi trenirovka mashg'uloti, oddiy insonlar "ertalabki badan tarbiya" bajarayotganlarida boshlaydilar. "Ertalabki badan tarbiya" ga

kiritilgan, uyqudan uygʻonish va mushak tonusini koʻtarish kabi, oddiy vazifalardan tashqari, sportchilar bir kun oldingi faol mushak ishi va tungi dam olishdan keyingi yigʻilib qolgan koʻrinishlarni yechishlari kerak.

Ikkinchi va uchinchi trenirovka vazifasi, tayyorgarlik tizimida trenirovka kunining joyi va shu bosqichda yechilishi zarur boʻlgan vazifalarga bogʻliq. Jahonning yetakchi tennischilar bir kunda 5 – 5.5 soat shugʻullanadilar.

Ikkinchi mashgʻulot – ertalabki nonushtadan bir soat keyin oʻtkaziladi. Unda jismoniy tayyorgarlik, texnik usullar va harakatlarni takomillashtirish vazifalari yechiladi. Mashgʻulot uch soat davom etadi.

Kunning ikkinchi yarmidagi uchinchi mashgʻulot, tushlikdan soʻng oʻtkaziladi va dam olish. Mashgʻulotda tennischilar, musobaqa vaziyatlarida va kombinatsiyalardagi texnik – taktik harakatlar samaradorligi va ishonchliligini qayta ishlaydilar.

Tennis – favqulotda juda koʻp qirrali sport turi hisoblanadi. Bu sport turida, takomillashgan texnika yoki alohida texnik usullar, oʻyinni olib borish, iroda yoki yuqori jismoniy koʻrsatkichlar kabi yetakchi sifatlarni bir nechta yoki bittasi hisobiga yuqori natijalarga erishish mumkin. Albatta, haqiqatdan ham bir nechta sifatlarni har tomonlama rivojlantirmasdan yuqori darajadagi mahoratga erishish imkoniyati yoʻq, lekin mahorat choʻqqisi har bir tennischi uchun individualdir. Tennischining texnik, taktik va musobaqa tayyorgarligi vaqt boʻyicha katta hajmga ega boʻlganligi va individual reja asosida oʻtkazilishini hisobga olib, har bir tennischining jismoniy tayyorgarligi uchun, uning trenirovka kuni davomidagi qulay vaqtini topish lozim va u individual reja asosida tartibli oʻtkazilishi shart.

Mushaklarni bo'shashtirish xususiyati, egiluvchanlik, kuch, tezlik, sakrovchanlik, epchillik va chidamkorlik, bu sifatlardan har birini birgalikda rivojlantirish lozim, ya'ni birgina sifatni rivojlantirib boshqalarini nazardan chetda qoldirish mumkin emas. O'yin harakatlarida ham ular yagona bo'lib namoyon bo'lmaydi. Masalan: uchib kelayotgan to'pga uzoq sakrash – axir bu tezlik, sakrovchanlik va epchillik mujassamlashgan emasmi? Bundan kelib chiqadiki, sifatlarni tarbiyalash aralash tavsifga ega bo'lib, vositalar majmuasi yordamida amalga oshiriladi, masalan, sakrash, yugurish, akrobatik mashqlar. Jismoniy tayyorgarlik sifatlarini bir – biriga bog'lab, to'g'ri rivojlantirishni nazarda tutadi: ammo bilmasdan yondoshish, ulardan ayrimlarini tennis hususiyatini hisobga olmasdan shakllantirilgan bo'lib qoladi. Masalan: kuchni rivojlantirib, harakatdagi zo'riqishga asoslangan bo'shashishi hususiyati va egiluvchanlikni bo'g'ib qo'yishi mumkin. (Belits - Geyman)

O'zbekistonda o'smirlar terma jamoasi darajasidagi 12 -14 yoshli yosh tennischilarni kelajakdagi individual rejalarida vazifalarini yechish uchun jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirishga yo'naltirilgan mashqlar majmuasini tavsiya qilamiz. Mashqlar vazifalar hususiyatidan kelib chiqib bo'limlarga jamlangan. Jismoniy tayyorgarlik bo'yicha kundalik yuklamada asosiy qismiga rejalashtirilgan mashqlar. Jismoniy sifatlarni takomillashtirishga bag'ishlangan vaqt hajmida taxminan 80 % tashkil qiladi. Qolgan qism boshqa mashqlar bilan to'ldiriladi yoki asosiy mashqlar hisobiga hajmi ko'paytiriladi.

Chigil yozdi mashqlar

Trenirovka kunida faol jismoniy ishiga organizmni uyg'otish va tayyorlash muammosini yoga gimnastikasi asosini tashkil etgan mashqlar majmuasi bilan yechish maqsadida muvofiq.

Ijobiy fiziologik ta'sir ma'lumki mushak to'qimalarida va ichki organlarda yig'ilib qolgandan xolos qilib, organizmda modda almashinuv jarayonini faollashtirish va asab tizimi tonusini oshirishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, yog mashqlari egiluvchanlikni samarali rivojlantiradi. Biz taklif qilayotgan majmua O'zDJTI da muammolar lobaratoriyasida professor A.I. Yarotskiy qo'l ostida ishlab chiqilgan.

Mashqni nafas mashqlari bilan boshlash zarur.

1 – mashq. Yelka va ko'krakni to'g'rilab tik turish, qo'llarni diafragma qo'yiladi – sakkizgacha sanab, sekin uzliksiz burundan nafas olinadi. Nafas olish diafragmadan boshlanib, qorin bo'shlig'ini to'ldirish, qo'llar qorindan nafas olinganda qorin bo'shlig'ini nazorat qiladi. Keyin nafas bilan to'ldirish yuqoriga, ko'krak qafasini to'liq to'ldirib, halqumgacha borishi kerak. So'ng taxminan 4 sanoqgacha nafas ushlab turiladi va orqaga 8 sanog'ida lablarni og'izda biroz siqib, butun nafasni chiqariladi. Nafas olish va chiqarish sikli uch marta bajariladi.

2 – mashq. Lotos holati. Son, tizza va boldir po'lga, oyoq panjalari osti bilan bir – biriga tegib turadi, tirsak bo'g'imlaridan to'g'rilangan qo'llar ikkala oyoqni ushlaydi, gavda tik holatda, ko'krak to'g'ri. Holatni shoshilmasdan qabul qilish lozim. Qabul qilingan holatni to'g'rilashni tekshirib va his qilib, yuqorida keltirilgan nafas siklini ikki marta bajarish, bunda diafragma ishiga diqqatni qaratish lozim.

3 – mashq. Po'lda o'tirib, oyoq panjasi son va tizzadan bukilib yon tomonga ochilib po'lda to'liq yotadi. Gavda to'g'ri, qo'l panjalari orqada "qulf" kabi bir – birini ushlagan. Birinchi mashqdagi kabi ikkinchi mashqda ham holatni tekshirish va his qilish kerak, nafas sikli ikki marta, diafragma ishiga diqqat qilib bajariladi.

4 – mashq. Po'lda o'tirib, oyoqlarni oxirigacha yon tomonga ochiladi. Oldinga egiilib peshona po'lga tegishi kerak, qo'llarni ichkariga burib oyoq panjalari ushlanadi. Nafas mashqlari bilan ikki sikl bajariladi.

5 – mashq. Po'lga qorinda yotish, kerilib oyoq panjalarini tashqaridan ushlab, oyoq panjalarini boshga tortib maksimum krilish. Nafas mashqi diafragmani faol cho'zib ikki sikl bajariladi.

6 – mashq. Po'lda o'tirib tizzalar bukilgan oldinga egilish, peshono va yelkalar po'lga tegadi, qo'llar yon tomonga oyoqlar orasidan o'tib maksimum yoziladi. Oyoq panjalari po'lga to'liq qo'yiladi. Nafas mashqlari diafragmani faol cho'zib ikki sikl bajariladi.

7 – mashq. Po'lda qorinda yotish, kerilib qo'llar bilan oyoq boldiridan ushlanadi, oyoq barmoqlari qo'l tirsaklari bo'g'imi ostida turadi. Maksimal darajada kerilib, yelka va ko'kraklarni, qo'llar bilan oyoqlarga yuqoridan tayanish hisobiga ko'tarish.

8 – mashq. Po'lda o'tirib oyoqlar oldinga cho'zilgan, nafasni to'liq chiqarib oldinga bukilib, qo'l bilaklari uzunasiga erkin qo'yilgan. Nafas mashqlari ikki siklda bajariladi.

9 – mashq. Polda yuzlanib yotib, kerilib boldirlar krest holatiga oyoq uchidan qo'l bilan ushlab, oyoq uchini boshga tortib maksimal darajada kerilish. Nafas mashqlari ikki siklda bajariladi.

10 – mashq. Oyoqlarni oldinga cho'zib po'lda o'tirish, to'liq nafas chiqarib oldinga bukilib, peshona bilan po'lga yotish, bilaklarni erkin tashlash, maksimal darajada bukilib qo'l tirsaklarini ham maksimal darajada orqaga tortish. Ikki sikl nafas mashqlari.

11 – mashq. Polga yuzlanib yotib, kerilib bilaklardan krest xolatdagi qo'llar bilan o'yoq uchini ushlab, maksimal darajada kerilib, oyoq uchlarini boshga tortish. Nafas mashqlari diofragmani faol cho'zib ikki sikl bo'ladi.

12 – mashq. Bukilgan o'ng oyoqqa o'tirib, chap o'yoq oldinga cho'zilgan, oldinga bukilib nafasni to'liq chiqarish, peshona polga tegib, bilaklar chap oyoq yoniga erkin qo'yiladi. Chap oyoq barmoqlarini qo'l panjalari bilan ushlab, oldinga tortilish. Nafas mashqlari ikki sikl bo'ladi. Keyin oyoqlar holati almashtiriladi.

13 – mashq. Po'lga yuzlanib yotib, kerilib, krest holatidagi oyoq panjalarini krest holatida bilaklar bilan ushlab, maksimal darajada kerilish, oyoq panjalarini boshga tortish. Nafas mashqlari diafragmani faol cho'zib ikki sikl bajariladi.

14 – mashq. Po'lda oyoqlarning boldir son bo'g'imiga o'tirib, qo'l orqada qulf, 8 sanoqda sekin nafas chiqarib, oldinga bukilish. 8 sanoq ichida nafasni ushlab turish va 8 sanoqda sekin nafas olib to'g'rilanish. 2 marta takrorlanadi.

15 – mashq. Po'lga yuzlanib yotib, oyoqlarni tizzadan orqaga bukib, oyoq panjalariga tayanish hisobiga yelka va boshni ko'tarish. Nafas mashqlari ikki sikl bajariladi.

16 – mashq. Tik turishda maksimal darajada to'liq nafas olish. So'ng sekin asta va uzluksiz 8 sanoqda bukilib boldir panja bo'g'imidan ushlab, 8 sanoqda bor havoni chiqarish. Holatni o'zgartirmasdan 8 sanoqda nafas ushlab turish. Keyin aksincha 8 sanoqda sekin nafas olib to'g'rilanish.

17 – mashq. Oyoq boldir panja bo'g'imida turib, oyoq panjalariga orqadan qo'llar bilan tayanib kerilish, nafas mashqlari ikki sikl bajariladi.

18 – mashq. Dastlabki holat. Oyoqlar ochiq, o'ng qo'l yuqorida, chap qo'l pastda. Chap tomonga egilish, chap qo'l oyoq panjalarigacha sirpanib tushadi, o'ng qo'l gorizontal holatni egallaydi. Shu holatni o'zgartirmasdan ikki sikl nafas mashqlari bajariladi. Mashqni boshqa tomonga takrorlab bajarish.

19 – mashq. Dastlabki holat. Tik turishda, oyoqlar ochiq, orqaga kerilib, boldirga tayanish.

Nafas mashqlari ikki siklda bajariladi.

20,21,22,23,24,25, mashqlar. Dastlabki holat. Orqalab yotish. Bel va tosson bo'g'imidan oyoqlar polga paralel bukish, qo'l tirsakdan bukilib tos qo'larga tayangan. Shu holatda ikki sikil nafas mashiqi bajariladi va dastlabki holat qaytish.

21 – mashq. Dastlabki holat shuni o'zi faqat qo'llar yuqorida oyoq barmoqlarini qo'l panjalarga tekkizish. Shu holatda ikki sikil nafas mashiqi va dastlabki holatga qaytish.

22 – mashq. Dastlabki holat shuni o'zi qo'llar yuqorida, oyoq uchi qo'l panjalardan o'tib polga tekaziladi. Shu holatda ikki sikil nafas mashiqi va dastlabki holat qaytish.

23 – mashq. Dastlabki holat shuni o'zi. Gavda bukilganidan so'ng tiza bukilib polga qo'yiladi, qo'llar bilan oyoqlarni tizza bo'g'imidan aylanib ushlanadi. Shu holatda ikki sikl holat mashqi bajariladi va dastlabki holatga qaytish.

24 – mashq. Dastlabki holat shuning o'zi gavda bukilgandan so'ng, to'g'ri tortilgan oyoqlarni maksimal darajada tomonlarga ochish, oyoq uchlari polga tegishi lozim, qo'llar yuqorida. Shu holatda ikki sikl nafas mashqlari bajariladi va dastlabki holatga qaytish.

25 – mashq. Dastlabki holat shuning o'zi faqat qo'llar orqada va tizza bukilib polga qo'yiladi. Shu holatda ikki sikl nafas mashqlari bajariladi va dastlabki holatga qaytish.

26 – mashq. Dastlabki holat polga orqalab yotishdan, oyoqlarni bukib tosga yaqinlashtirish, qo'llarni bukib panjalarni kuraklar tagiga qo'yish. Shu holatda ikki sikl nafas mashqlari bajariladi va dastlabki holatga qaytish.

27 – mashq. Dastlabki holat shuning o'zi "ko'prik" holatini qabul qilish. Shu holatda ikki sikl nafas mashqlari bajariladi va dastlabki holatga qaytish.

28 – mashq. Dastlabki holat “parter” chap oyoqni, chap qo‘l bilan orqadan ushlab yuqoriga tortish. Shu holatda ikki sikl nafas mashqlari bajariladi va dastlabki holatga qaytish. So‘ng boshqa qo‘l va oyoqlarda takrorlash.

29 – mashq. Dastlabki holat “qaldirg‘och”, o‘ng qo‘l bilan o‘ng oyoq barmog‘idan ushlanadi, chap qo‘l oldinga cho‘zilgan, shu holatda ikki sikl nafas mashqlari bajariladi va dastlabki holat. Oyoqlarni almashtirib takrorlash.

Yoga mashqlari asosida tuzilgan ertalabki gimnastika majmuasi, mushaklarning katta guruhini cho‘zadi va siqadi, hamda ichki organlarga uyqu vaqtida yig‘ilib qolgan salbiy qoldiqlarni siqib chiqaradi. Nafas mashqlari bilan samaradorlik oshadi. Chuqur nafas, to‘qimalarni kislorod bilan boyitadi, markaziy asab tizimi tonusini ko‘taradi, diafragmani faol ishi esa ovqat xazim qilishni faollashtiradi. Bunda egiluvchanlik va bo‘g‘im harakatchanligi rivojlanadi.

Chigil yozdi mashqlar

Har bir trenirovka sikli boshlanish vazifasi organizmni trenirovka yuklamasiga tayyorlash bo‘lgan chigil yozdi mashqlari o‘tkazilishi shart. Chigil yozdi mashqlari turli mushak guruhlarini rivojlanishiga va organizmning turli funksional tizimlarini shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari o‘qishning boshlang‘ich bosqichida harakat faolligi yuqori bo‘lmagan chigil yozdi mashqlariga qo‘shimcha mashqlarni kiritish, tayyorlov mashqlarini umumiy hajmini oshiradi.

Chigil yozdi mashqlarni ikki qismga bo‘lish mumkin: umumiy va maxsus. Chigil yozdi mashqlarini birinchi qismi funksional tizimlar ishini faollashtirada – markaziy asab tizimi, harakat aparati va vegetativ asab tizimi. Bu qismda, organizmdan umumiy ishchanlik qobiliyatini oshirish uchun, umumiy rivojlantiruvchi mashqlardan foydalaniladi. Ikkinchi qismda maxsus tayyorgarlik mashqlardan foydalaniladi.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik mashqlari, mashg'ulotni asosiy qismlarida sportchi faoliyatini samaradorligini aniqlashga hamda shu faoliyatni ta'minlovchi vegetativ funksiyalarni kuchaytiruvchi, harakat apparatini markaziy va periferik zvenolarini eng qulay holatini yaratishga yo'naltirilgan.

Kunduzgi trenirovka sikli boshida bajariladigan biz tavsiya qilgan mashqlar majmuasidan birinchi guruh chigal yozdi mashqlari, tayanch harakat apparatini meyyorlashga va funksional tizim tonusini oshirishga (asosan vestibulyar apparat, bosh miya va yurak qon tomir tizimi retikulyar shakllanishda) yo'naltirilgan: Bularga quydagi mashqlar kiradi:

1 – mashq. To'g'ri turib, yelka va ko'krakni to'g'irlab qo'llarni diofragmaga qo'yib – sakkiz sanoqda, burundan sekin tanaffuzsiz nafas olish. Nafas olishni diofragmadan qorin bo'shlig'ini to'ldirib boshlash zarur, bunda qorinda joylashga qo'llar nazoratchi vazifasini bajaradi. So'ng nafas xalqumigacha yuqoriga ko'tarilib ko'krakni to'liq to'ldiradi. Keyin, taxminan nafasni 4 sonigacha ushlab turib, aksincha ketma – ketlikda lablarni biroz chiqib chiqariladi. Nafas olish va chiqarish sikli 3 marta bajariladi.

2 – mashq. Bir oyoqda muvozanatni saqlab, boshqa oyoqda aylana bo'ylab aylanma harakat, bunda oyoqlar yerga tegmasligi va bir tomonlama to'liq aylanib, song ikkinchi tomonga bajariladi. Har bir oyoqda 5 – 6 ta aylanma harakat bo'ladi.

3 – mashq. Bir oyoqda muvozanatni saqlab, ikkinchi oyoq tizzadan ushlab ko'krakka tortilgan, yerga oyoqni tekkazmasdan oyoqlarni orqaga harakatlantirib nafas olib "qaldirg'och" holatini qabul qilish va shu holatni 5 soniya saqlab turish. Mashq har bir oyoqda 5 -6 marta bo'ladi.

4 – mashq. Tennis zarbalarini aks ettirib, taxminan 200 m bo'lak masofaga yugurish – qisqartirilganga yetish, ongdan va

chapdan sakrab ko'tarilgan to'pga zarbalar, o'ng va chapga yon tomonga sakrash bilan, orqa bilan oldinga harakatlanib "smesh".

Keyingi mashqlar guruhi, yelkadan yuqori qismini, tana mushaklarini va vestibulyar apparatni faol ishga jalb qiladi. Masalan: 5 – mashqni yugurishdan tez yurishga o'tgandan keyin bajarish maqsadga muvofiq – maksimal katta aylana bo'ylab biroz bo'shashgan to'g'ri qo'l bilan aylanma harakatlar - birinchi qadamda tez, siltanishli oldinga aylanma harakat, keyingi qadam shu harakat faqat orqaga. 20 – 30 aylanma harakat bajarilishi shart.

6 – mashq aylana bo'ylab qadamlab harakatlanishda bosh bilan aylanma harakatlar bajariladi. Bosh bilan to'liq aylana bo'yicha navbatlashtirib chapga va o'ngga, harakatlar bajariladi, bunda yanoqlar yelkaga, iyak ko'krakka, ensa esa yelkaning orqa qismiga tegishi lozim. Bosh bilan bitta to'liq aylanma harakat, taxminan ikki qadamda bajariladi, umumiy 10 – 15 aylana. Bu mashq vestibular retseptorlarni faol qo'zg'atadi. A.N. Yarotskiy fikricha bajariladigan mashqlar hajmini vestibulyar apparatning funksional darajasini ushlab turish uchun zarur bo'lgan me'yorga to'liq javob berishi lozim. Vestibular apparat tennis kabi yuqori koordinatsiyali o'yinlar juda muhim organ hisoblanadi.

Navbatdagi mashqlar guruhi, umurtqa pog'onasi asosiy o'qlari bo'yicha – yonbosh, oldinga – orqaga va burulishlar kabi harakat faolligini oshirishga yo'naltirilgan. Gavdaga beriladigan mashqlarni oyoqlarga beriladigan yuklama bilan aralashtirish lozim. Quydagi ketma – ketlikni tavsiya qilamiz:

7 – mashq. D.x. Oyoqlar ochiq, qo'llar pastda, yon tomonlarga egilish. Bu mashqni oldinga egilmasdan qat'iy yonbosh chiziq bo'yicha amalga oshirish lozim. Taxminan, turli tomonga navbatma – navbat, har biriga amplitudani oshirib

borib 10 marta bajariladi. Keyin, harakatni to'xtatmasdan, maksimal tezlikkacha tezlanishni boshlash lozim, lekin amplitudani imkon boricha kamaytirmaslik kerak. Bunda sodir bo'ladigan shaxsiy tana inertsia kuchini yengib o'tish bilan mushak kuchi rivojlantiriladi.

8 – mashq. 30 – 40 metr masofaga bir oyoq bilan yuqoriga sakrab yengil yugurishga o'tish.

9 – mashq. D.X. – oyoqlar ochiq, qo'llar oldinga cho'zilgan. Qo'llar polga tekkuncha oldinga egilish, to'g'irlanib orqaga egilish, qo'llar yuqoridan yon tomonga. O'nta sikl mashq davomida maksimal amplitudada, keyingi o'nta siklda esa amplitudani kamaytirmasdan maksimal tezlikka erishish lozim.

10 – mashq. "qurbaqa" sakrash bilan oldinga harakatlanish, ya'ni ikki oyoqqa tayanib o'tirishdan oldinga sakrab yana ikki oyoqqa o'tirish. Masofa 30-40m.

11 – mashq. D.X. – oyoqlar ochilgan oyoqlar uchlari biroz ichkariga burilgan, qo'llar yon tomonda, tana o'qi bo'yicha (turli tomonlarga) navbatma navbat buralib harakatlanish. Mashq quyidagicha bajariladi. Boshlanishida maksimalamplitudagacha yetkazish, keyin maksimal tezlikkacha.

12 – mashq. O'tirishdan oyoqlarni yon tomondan oldinga o'tkazib, tosni ko'tarmasdan harakatlanish. Masofa 30-40 m.

13 – mashq. Oldinga egilishdan gavgdani burish. D.X. – oyoqlar ochiq qo'llar yonda, to'g'ri burchakkacha oldinga egilish. Mashq maksimal amplitudagacha 10 ta sikl, maksimal tezlikka erishguncha 10 ta sikl bajariladi.

14 – mashq. Tizzalarni ko'krakkacha tortib yuqoriga sakrash – "kenguru".

15 – mashq. Orqaga egilishda gavgdani burish. D.X. – oyoqlar ochiq, orqaga kerilib, qo'llar yonga. Umurtqa pog'ona o'qi bo'yicha har bir tomonga 30 martadan navbatma – navbat gavgdani burush.

16 – mashq. Devorga qo'l bilan tayanib turish. Bu mashq organism holatini gidrostatik o'zgartirib, yurak qon – tomir tizimi, bosh miya gigiyenasini, ko'rish retseptorlarini yukini yengillashishini ta'minlaydi.

17 – mashq. Bo'shashishiga mashq. Qo'llarni pastdan yuqoriga harakatlantirib chuqur nafas olish. Nafas chiqarib oyoq uchiga tortilish, shu holatda 2-3 soniya ushlanish (barcha mushak guruhlarini tarang tortish). So'ng keskin nafas chiqarib bo'shashish: bu yerda bo'shashishni o'zida ongli his etishga e'tiborni qaratish lozim.

Chigil yozdi mashqlarning ikkinchi qismida biz tennisga xos maxsus jismoniy dinamikani rivojlantirishga qaratilgan maxsus tayyorgarlik mashqlar majmuasini tavsiya etamiz. Bu qismdagi mashqlarni ham o'zgartirish usuli bo'yicha qo'llash maqsadga muvofiq: yelka qismiga mashqlar, so'ng oyoqlarga va xakozo.

Yengil atletika (molot) aylantirish.

(Molot) bilan birinchi mashq (18 – mashq, 44 – rasm) – qo'llarni gorizantal holatga cho'zilgan qo'llarda (molot) ni soat millari bo'yicha aylantirish. Bir urinishda 40 ta aylana, ikkinchi mashq shu xolatda faqat soat millariga qarshi aylanish. Uchinchi va to'rtinchi mashqlar – bir qo'lda gorizantal chiziq bo'ylab, o'ng va chap qo'lda navbatlashtirib aylantirish, 20 marta soat millari bo'yicha hamda aksincha (45- rasm)

Bu mashqning maqsadi yelka mushaklarini va yelka mushaklarini mustaxkamlash hisoblanadi. Shuni takidlab o'tish kerakki, tennisda to'pni o'yinga kiritishda yelka mushaklarining har birini o'z roli mavjud. Agar mushaklarni bir guruhi zarba uchun raketkani harakatlantirsa, boshqalari uni zarur holatda ushlab turishda ishtirok etadi. Raketkani harakatlantiruvchi mushaklar guruhi ko'p martalik takrorlashlar hisobiga yuqori darajadagi kuch va quvvatga ega bo'ladi, hamda dinamik kuchni

rivojlanishiga yordam beradi, bu harakatni nazorat qilishga yordam beruvchi ko'pgina mushaklar, kuchli yuklamaga duch kelmaydi, tabiiyki bunday rivojlanishga ega emas.

To'pni o'yinga kiritish bajarilayotganda ko'pincha kamchiliklar yuzaga keladi, ya'ni to'p aniq uzatilmaydi yoki zarba nuqtasi o'zgaradi, biror bir sabab tufayli harakat surati yoki tuzilishi buziladi. Bunda dinamik kuchni rivojlantiruvchi kuchli quvvat o'z yo'nalishini o'zgartirib, yetarli darajada kuchli quvvat o'z yo'nalishini o'zgartirib, yetarli darajada kuchli bo'lmagan va to'satdan ularning zimmasiga yuklanadigan sinovga bardosh bera olmaydigan mushaklarga tushadi, va bu mushaklar jarohatlanadi; ya'ni birinchi (gemotoma) hosil bo'ladi, so'ng jarohatlangan mushaklarda og'riq paydo bo'ladi. Bunday natijalardan qochish uchun, to'pni o'yinga kiritishda asosiy harakatlarni bajarishda ishtirok etmaydigan mushaklarni mustaxkamlab borish maqsadga muvofiq. Bizning nazarimizda bunday mashqlar yengil atletika (molot) ni gorizantal tekislikda aylantirish hisoblanadi. Renirovka amaliyoti shuni ko'rsatadiki, to'pni o'yiga kiritish bilan kuchaytirilgan tartibda shug'ullanish, ya'ni ko'pmarta, yuzmarta maksimal zo'riqishda harakatlarni bajarish jarohat extimolini ko'paytiradi. Keyin profilaktika mashqlari bilan xaddan ziyod shug'ullangan tennischilar, yelkadagi og'riqdan aziyat chekadi. Bizning vaziyatimizda yelkaga berilayotgan kuchaytirilgan yuklamani hisobga olganda ham, bundan harakatlar deyarli bo'lmaydi. Molot bilan mashqlarga urinishlar orasida oyoqlarga mashqlar qo'llanilishi kerak: 30 metrga bir oyoqda sakrash, keyin navbatdagi urinishda 30 metrga boshqa oyoqda sakrash.

20 – mashq. "Meditseinbolni uloqtirish". Buning uchun bir kilogramdan 3 kg gacha turli og'irlikdagi to'plardan

fo'ydalaniladi. Mashq juftlikda bajariladi. Ikki sportchi oldindan aniqlangan masofaga, taxminan 5 metrga bo'linadilar va navbatma – navbat to'pni bir biriga uloqtiradi. Turli usulda uloqtirish mumkin, to'pni o'yinga kiritishni rivojlantirish uchun quyidagi ikki uslub qo'llaniladi: birinchi – to'pni ikki qo'lda ushlab boshdan baland ko'tariladi, keyin orqaga chuqur kerilib, gavgani to'g'irlash hisobiga to'pni oldinga yuqoriga uloqtiriladi oyoqlar va qo'llar biq xilda ishlaydi. (46-rasm) To'pni shunday uloqtirish kerakki, bunda qarshi tomondagi sherik yuqoriga ko'tarilgan qo'l bilan to'pni gavgani orqaga egilishi hisobiga keyinchalik to'pni qayta uloqtirish uchun tutib oladi va shu bilan d.x. navbatdagi to'pni tutish uchun qaytadi. Shuni aytib o'tish kerakki, bizning fikrimizcha bunday usulda to'pni tutish, to'p uloqtirishga nisbatan kam bo'lmagan mushak guruhlarini kuchini va koordinatsiyasini rivojlantiradi. To'pni uloqtirishni ikkinchi usuli, o'sha nishonni ko'zlovchi – murakkab koordinatsiya harakatlari dinamikasini moslashtirish va jivojlantirish – tennisda to'pni o'yinga kiritish bir qo'lda va (1-rasm)da ko'rsatilganidek aniq bo'ladi.

O'sha nishon-murakkab koordinatsiya harakatlar dinamikasining moslashishi, ammo oldinga harakatlanib o'ngdan va chapdan zarbalarda, o'ng va chap zarba usulida meditsinbolni uloqtirish mashqini ko'zlaydi.

Sanab o'tilgan har bir mashq bir urinishda 20-30 marta bajariladi. Kundalik jismoniy tayyorgarlik majmuasiga bu mashqlar bir yoki ikki urinish qo'shib boriladi.

Aytib o'tish joizki, boshlang'ich davrda tennis zarbasiga xos bo'lgan o'xshash usulda harakatda to'pni uloqtirish mashqini qo'llash juda katta xatoliklar bilan bajariladi. To'p tekis (duga) shaklida uchmaydi va oxirgi kuchlanishi to'pning uchish

vektoriga mos kelmaydi. To'p aylanib, noaniq va qisqa masofaga uchadi.

Shuning uchun, tennischilardagi bunday nomutanosib bazaviy harakat orqasida, tennis raketkasini yuqori samaradorlikda tezlashtiradigan va to'pga yo'naltirilgan zarba berishga imkon bermaydigan nuqsonlar yashiringan.

Yuqorida tasvirlab berilgan usulda to'ldirma to'pni uloqtirish mashqini doimiy qo'llanilganda, bir oydan so'ng harakat dinamikasida har tomonlama va maqsadga muvofiq yaxshilanishini ko'rish mumkin. O'zgartirish uchun oyoqlarga yuklama berish mashqini qo'llash mumkin: yuqoriga o'tirishdan sakrash yoki sakrab yuqoriga ko'tarilish.

21- mashq. "Xodani bolta bilan chopish". Tennischi aynan to'pni o'yinga kiritish harakatini yakuniy fazasida, siltanishning oxirgi nuqtasidan to'pga zarba paytigacha boltaning yuzi bilan uni oldida osilib turgan xodani chopish kabi harakatlarni bajaradi. Xoda yetarli darajada og'ir bo'lishi kerak chunki zarba kuchini yo'qotib tebranmaslik lozim. Bolta o'rtacha og'irlikda, ya'ni shug'ullanuvchi tennischi kuchidan kelib chiqib, bir yoki ikki kg bo'lishi mumkin.

Mashq ko'p marta, bir urinishda qirq martagacha bajariladi. Bunda quyidagi vazifalar o'z yechimini topadi: birinchi boltaning og'irligi balistika nuqtai nazaridan ortiqcha harakatga yo'l qo'ymaslik kerak va aksincha zarba anjomining tezlanish trayektoriyasi chizig'iga moslashuviga yordam beradi. Demak, ushbu mashq to'pni o'yinga kiritish texnikasini to'g'ri shakllanishiga yordam beradi. Ikkinchi – og'irlik bilan ko'p martalik takrorlash – ushbu harakat dasturini bajarish uchun mos mushak guruhlarini tanlash va jalb qilishga yordam beradi.

Chigil yozdi mashqlarining yakunida, 10ta joydan uch karra

sakrash yoki 30 metrga 5 tezlanish seriyasidan musobaqa seriyasini o'tkazishi mumkin.

Biz taklif qilgan razminka varianti trenirovka vaqtini 40 daqiqasini egallaydi, trenirovkaning asosiy qismiga sportchi faoliyati samarali bo'lishi uchun uning organizmini yaxshi tayyorlaydi va tennisda zarbalar texnikasini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina muammolarni yechadi.

Razminkaning davomiyligi, mashqlar tanlovi va ularning o'zaro munosabati tebranishi mumkin va sportchining individual xususiyatlari, oldindagi ishning tavsifi, tashqi muhit sharoitiga bog'liqdir.

Jismoniy sifatlarning rivojlanishi – tezkorlik, kuch, chidamlilik, koordinatsiya xususiyatlari, trenirovka mashg'ulotining asosiy qismida o'z yechimini topadi.

V.A. Galenko, A.P. Skorodumova va Sh.A. Tarpishevalarning "Tennis maktabi" va "Tennis Akademiyasi" kitoblarida tennischining maxsus jismoniy tayyorgarligi eng muxim tarkibiy qism sifatida ajratilgan:

1. Tezkorlik xususiyati, unga – a) harakat reaksiyasining lotent vaqti, b) yakka harakat tezligi, v) harakat chastotasi, g) harakatning tez boshlanishi (keskinlik).

2. Kuch, harakatlanish tezligi, balandga va uzoqqa sakrashni, zarba kuchini oshiradi.

3. Epchillik, birinchidan tennischiga namoyon bo'luvchi asosiy zarbalarni o'zlashtirilish tezligi, ikkinchidan o'yinni taktik xilma – xil olib borish uchun zarur bo'lgan turli zarbalarni bajarish imkoniyatidir.

4. Egiluvchanlik, zarba harakatlarini keng amplitudasini ta'minlaydi.

**“Umumiy va naxsus jismoniy tayyorgarlik asoslari”
mavzusi bo'yicha nazorat savollari.**

1. Ish qobiliyati, charchash, tiklanish va jismoniy imkoniyatlarni oshirish haqida qisqacha gapirib bering.

2. Aerob imkoniyatlarni oshirish uslubiyati deganda nimani tushunasiz.

3. Anaerob imkoniyatlarni oshirish uslubiyati deganda nimani tushunasiz.

4. Egiluvchanlikni rivojlantirishda foydalaniladigan namunaviy mashqlardan misollar keltiring.

5. Kuchni rivojlantirishda foydalaniladigan namunaviy mashqlardan misollar keltiring

6. Chidamkorlikni rivojlantirishda foydalaniladigan namunaviy mashqlardan misollar keltiring.

7. Tezkorliklikni rivojlantirishda foydalaniladigan namunaviy mashqlardan misollar keltiring.

8. Chaqqonlikni rivojlantirishda foydalaniladigan namunaviy mashqlardan misollar keltiring

II BOB. TEXNIK USULLARGA O'RGATISH.

Texnik tayyorgarlik, sport turi xususiyatlariga xos va yuqori natijalarga erishishni ta'minlovchi harakat tizimlarini sportchi tomonidan o'zlashtirilishidir. Texnik tayyorgarlikka yuzaki yondoshib bo'lmaydi. Uni sportchining jismoniy, ruhiy, taktik va boshqa imkoniyatlar, hamda sport faoliyatida bajariladigan tashqi muhitning aniq sharoitlari bilan o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan bir butunlik sifatida qabul qilish lozim.

Zamonaviy tennisda texnik usullar va harakatlar xilma-hil bo'lib, uning hajmi asta-sekin kengayib bormoqda. Bu albatta tabiiy, chunki tennischi egallagan usul va harakatlar soni qanchalik ko'p bo'lsa, u shunchalik musoboqa jarayonida vujudga keladigan murakkab taktik vazifalarni yechishga tayyor bo'ladi, hamda o'yin davomida raqibning hujum harakatlariga qarshi turib, uni qiyin ahvolga tushirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, sport taktikasini rivojlantirish, musobaqa qoidalari va anjomlarini o'zgarib borishi va hokazolar, sportchining texnik tayyorgarligiga albatta ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Masalan, tennisda yog'och raketkani plastikka almashishi, tennis kortiga yangi qoplamalarni tadbqiq qilinishi, yangi qoidalar (tay-brek) sportchining harakat faoliyatida aks etadi.

Tennischining texnik tayyorgarlik tuzilishidan, asoslangan va qo'shimcha texnik harakatlarni ajratib olish juda muhim hisoblanadi. Bazaviy tennischi musobaqa kurashini samarali olib borishi uchun imkoniyat yaratib beruvchi, uning texnik tayyorgarlik asosini tashkil qiluvchi faoliyat va harakatlar. Bazaviy harakatlarni o'zlashtirish sportchi uchun juda zarur hisoblanadi. Qo'shimchi faoliyat va harakatlar, tennischining

individual xususiyatlaridan kelib chiqib, ikkinchi darajali faoliyat va harakatdir, bu o'z navbatida sportchining individual texnik manera va stilini aniqlaydi.

Texnik tayyorgarlik jarayoni – bu sportchining turli tayyorgarlik bosqichida texnik takomillashuv va musobaqa faoliyatida yuqori natijalarga erishish uchun funksional imkoniyatlaridan to'liq foydalanish samaradorligini ta'minlovchi bilim va ko'nikmalarni hosil qilish demakdir.

Tennisda asosiy texnik faoliyat ko'nikmalarini o'zlashtirish, o'rganishning birinchi 4 yilligida amalga oshiriladi. Bu davrda harakatlarni umumlashtirib bajarish, keraksiz harakatlardan hamda ortiqcha mushak zo'riqishidan ozod bo'lish shakllantiriladi.

Sportchilarni keyingi takomillashuv davrida (12 yoshdan 16 yoshgacha), harakat qismlarini hayolan nazorat qilishdan ozod bo'lish va uni aniq sharoitda asosiy harakat vazifalarini yechishga jalb etish hamda harakatlarni boshqarishni avtomatlashtiruvchi muhim harakat ko'nikmalari shakllantiriladi. Shu bilan tennis uchun muhim bo'lgan harakatlar, ya'ni to'pni his qilish, tempni his qilish, raqibni his qilish va hokazolar ta'minlanadi.

Texnik takomillashuv bosqichining ahamiyatli tomoni shundaki, bu bosqichda sportchining to'liq harakat moduli (obrazi) sensor va mantiqiy nazorat hissiyotlari shakllantiriladi. Mantiqiy nazorat asosida, harakatlarni boshqarish qonuniyatlaridan foydalanishning ahamiyatini chuqur tushinish va fikrlash etadi.

Bu bosqichda, asosiy elementlarni avtomatlashishiga olib keluvchi harakat faoliyatlarini muntazam takrorlash prinsipi bilan bir qatorda, texnik takomillashuvining asosiy prinsipi bo'lgan, qilyinchiliklarni asta sekin o'sib borishi hisoblanadi.

Shu maqsadda, tennis o'yini uchun texnik usullar (zaxirasi) jamlash va ularni musobaqa jarayonida erkin va tartibli qo'llashga yo'naltirilgan an'anaviy uslubiyat va vositalardan foydalaniladi. Bu birinchi navbatda mashg'ulot devorida o'yin, tennis to'plari solingan savatchadan foydalanuvchi sparring – sherik bilan mashg'ulot, alohida texnik usullarni takomillashtirish maqsadida tennis kortida ikki tomonlama o'yin, musobaqa shaklidagi o'yin. Bularning hammasi tennischining texnik kamchiligini aniqlash hamda texnik ko'nikmalarni mustaxkamlash uchun zarur hisoblanadi.

Sport takomillashuvi jarayonida, belgilangan diapazonda majburiy harakat faoliyatini bajarishni ta'minlovchi turli noan'anaviy usul va vositalar qo'llaniladi. Masalan, nishon bo'yicha o'yin, turli tennis zarbalari usuli bo'yicha to'ldirma to'plarni uloqtirish, to'pni o'yinga kiritish usulida xodani bolta bilan chopish va yengillashtirilgan sharoitda texnik detallarni o'zlashtirish uchun turli trenajorlar. Ayniqsa maxsus tanlangan vazifalarga yo'naltirilgan ikki tomonlama o'yin katta ahamiyatga ega.

Tennis texnikasining murakkabligi shundaki, tennischi raketkaning juda "sezgir" torli yuzasi bilan to'pni urishi kerak, shuning uchun eng kichik noaniqlik zarbaning muvaffaqiyatli bajarilishiga xalaqit berishi mumkin. Bundan tashqari, tortishish odatda kort atrofida tez harakatlanayotganda amalga oshirilishini yodda tutish kerak. Tennis to'pining tez uchishi (sekundiga o'rtacha 25-30 m), uning turli xil aylanishi va erdan sakrashning turli yo'nalishlari bilan tezkor reaksiya, diqqatni jamlash, harakatlarni yaxshi muvofiqlashtirish va ritm tuyg'usini talab qiladi. Tennischining texnikasida harakatlarning to'g'ri ritmi, ya'ni vaqt va makonda to'pning tezligi bilan zarbalar bilan bog'liq bo'lgan harakatlarning aloqasi va izchilligi

katta rol o'ynaydi. Kuch va ritmik harakatlarni bir xilda qo'llash harakatlanuvchi to'pni urish jarayonini osonlashtiradi va tezlashtiradi. Har bir tennischi biladiki, uning harakatlari to'g'ri harakat ritmi topilgandan, ya'ni harakat uchun zarur energiya sarfi to'g'ri harakat namunasi bilan birgalikda topilgan va uning harakatlari o'z vaqtida uyg'unlashgan paytdan boshlab, ayniqsa muvaffaqiyatli va samarali bo'ladi. raqib tomonidan yuborilgan to'pning parvozi bilan ta'minlanadi. O'yin tezligi qanchalik tez bo'lsa, zarbalar ritmi shunchalik tez va shiddatli bo'ladi va aksincha, o'yin tezligi qanchalik sekin bo'lsa, ularning ritmi shunchalik xotirjam va sekinroq bo'ladi. O'yinning tez sur'ati bilan harakatlar juda tejamkor va aniq bo'lishi kerak. Ba'zi tennischilar ma'lum bir tempda yaxshi o'ynashadi, lekin o'yin tempi o'zgarganda ularning o'yinlari darhol yomonlashadi, chunki ular harakat ritmini o'zgartirishni yaxshi bilmaydilar. Ritmni yaxshi biladigan tennischilarning harakatlari har doim erkin va notinch emas: ularning zarbalarga tayyorgarligi o'z vaqtida. Eng kuchli tennischilar orasida tebranish davomiyligi - raketkaning orqaga harakati va uning to'pga qarab oldinga siljishi nisbati o'yin tempining o'zgarishidan qat'iy nazar saqlanib qolishi xarakterlidir. Ko'pincha, yerdan sakrab tushgan to'pni urganda, bu 2: 1 nisbatda ifodalanadi, ya'ni tebranish vaqti raketkaning to'pga qarab harakatlanishidan ikki baravar ko'p bo'ladi, garchi tebranish uzunligi yo'l taxminan raketkaning to'p tomon yo'nalishiga teng. Bu raketka harakatida tezlashuvning ortishi bilan izohlanadi. Tennischilarning texnikasida tez-tez uchrab turadigan kamchiliklar zarbalarga juda kech tayyorgarlik ko'rish va to'pni kerak bo'lgandan ertaroq urish istagidir. Biz bunday tennischilar haqida ularning zarba ritmi yomon, deymiz. Ular zarbaga tayyorgarlik ko'rishni (ya'ni zarba yo'nalishi bo'yicha burilish, raketka bilan qo'lni silkitish) faqat to'p erga tekkanda va ko'pincha keyinroq - erdan

uchib ketish paytida boshlanadi. Shuning uchun belanchakda shoshqaloqlik, loyqa aritmik harakat. Ko'pgina xatolar, hatto oson to'plar bilan ham, zarbalarga kech tayyorgarlik tufayli sodir bo'ladi. Raketani aniq va o'z vaqtida belanchakning oxirgi nuqtasiga olib kelishga ulgurmagan o'yinchi harakatni moylash va raketani tezda to'p tomon yo'naltirishga majbur bo'ladi.

Raketani ushlash usullari


Tennischi texnikasining asosiy elementlaridan biri, ayniqsa, dastlabki mashg'ulotlar paytida, uning raketkani ushlab turish usulidir. To'g'ri zarbalarni bajarish texnikasini shakllantirish raketani to'g'ri ushlab turish usuliga bog'liq. Ko'pincha qobiliyatli tennischilarning atletik rivojlanishiga faqat bitta tutqichdan foydalanish to'sqinlik qiladi (odatda oldingi zarbalar uchun), bu ular boshqa mashqlarni samarali bajarish uchun raketkani ushlashni o'rganmaganliklari sababli ular uchun qulay bo'lib qoldi zarbalar. Juda yuqori o'yin darajasiga erishgan o'yinchilarning o'z tutqichlarini o'zgartirishga urinishlari odatda katta qiyinchiliklarga olib keladi. Uzoq vaqt davomida butun o'yin noto'g'ri ketadi, chunki raketka tekisligining to'pga yaqinlashish burchagi o'zgaradi va bunga moslashish juda qiyin.

Shuning uchun mashg'ulotning boshidanoq zarbalarining to'liq turlarini o'zlashtirishga imkon beradigan va ularning doimiy sport takomillashuviga hissa qo'shadigan tutqichlarni o'zlashtirish juda muhimdir. Raketani ushlab turishning turli usullarini tavsiflashga o'tishdan oldin uning dizaynini ko'rib chiqaylik. Tennis raketkasi bosh, bo'yin va tutqichdan iborat.

Bosh - ko'ndalang va bo'ylama torlari bo'lgan raketaning qismi. Ba'zan u raketa oynasi deb ataladi. Biz tennischining boshlang'ich holatida erdan yuqorida joylashgan raketka halqasining yuqori qismini va erga yaqinroq bo'lgan pastki qismini ataymiz.

Bo'yin - raketkaning tutqich va boshni bog'laydigan qismi.

Raketaning uchi sakkizburchak shakliga ega.



Guruch. 2. Tennis raketkasi qismlari nomi:

- 1 - bosh,
- 2 - bo'yin,
- 3 - tutqich,
- 4 - boshning yuqori qismi,
- 5 - boshning pastki qismi,
- 6 - uzunlamasina iplar,
- 7 - ko'ndalang iplar

Raketka ko'ndalang torlar bilan erga perpendikulyar o'rnatilganda, tutqichning qirralari mos ravishda yuqori va pastki (har birida uchta qirrali), o'ng va chap yon qirralari (har biri bitta qirra) deb ataladi. Raketani ushlab turish usullari qo'lning raketka tutqichida uning yuqori qirralariga nisbatan joylashishi bilan belgilanadi. Biz tutqichning uchta yuqori chetini chaqiramiz: chap (a), o'rta (b) va o'ng (c) yuzlar. Ikki yuz tomonidan hosil qilingan burchaklarga yuz qirralari deyiladi. Tennis o'ynash texnikasi va taktikasi doimo rivojlanib bormoqda, shuning uchun o'yinchilar va murabbiylar takomillashtirishning yangi usullarini qidirmoqdalar. Tabiiyki, bu qidiruvlar turli xil zarbalarni bajarish uchun raketkaning eng qulay tutqichini tanlashga tegishli. Tajriba shuni ko'rsatadiki, turli xil zarbalarni samarali bajarish uchun undan foydalanish tavsiya etiladi.



Raketka tutqichi chetlari:

- 1 - yuqori qirralar (a - chap, b - o'rta, c - o'ng), 2 - pastki qirralar, 3 - chap tomonning qirrasini, 4 - o'ng tomoni chekkasi

O'rganish va takomillashtirishda turli tutqichlarni o'zlashtirish va nuqta davomida tutqichlarni o'zgartirish qobiliyatiga ega bo'lishda ba'zi qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Ammo yuqoriga ko'tarilish mashqlarini qo'llashda tutqichlarni almashtirishni o'zlashtirish unchalik qiyin emas va

u odatiy holga kelgandan so'ng, tutqichlarni almashtirish avtomatik ravishda amalga oshiriladi va tennischining juda tez sur'atda o'ynashiga umuman xalaqit bermaydi. Yangi boshlanuvchi tennischilar uchun raketka tutqichlarini o'zlashtirish va o'zgartirish bo'yicha barcha uslubiy mashqlar qo'l va barmoqlarni ko'proq kuchli va sezgir va yuqori sport mahoratiga erishish uchun zarur bo'lgan texnikani rivojlantirishga yanada hissa qo'shadi.



Raketani ushlab turishning birinchi usuli (yon ko'rinish)



Raketani ushlab turishning birinchi usuli (yuqori ko'rinish)


Turli tutqichlar bilan qo'lning raketka tutqichidagi holati o'zgaradi. Bu holat bosh barmog'i va ko'rsatkich barmog'i tomonidan hosil qilingan burchakning cho'qqisining tutqichning yuqori qirralarida joylashgan joyi bilan belgilanadi. Peshonadan ko'pchilik kuchli xorijiy tennischilar raketani ushlab turish usulidan foydalanadilar, biz buni shartli ravishda birinchi usul deb ataymiz (tennis adabiyotida u odatda "sharqiy tutqich" deb ataladi). Ushbu tutqich bilan bosh barmog'i va ko'rsatkich barmog'i tomonidan hosil qilingan burchakning cho'qqisi tutqichning o'rta yuqori chetining o'rtasida joylashgan. Qo'lning barmoqlari bir oz yoyilgan va tutqich bo'ylab yo'naltirilgan.

Ko'rsatkich barmog'ining tagidan diagonal ravishda qo'lning kafti raketka tutqichining o'ng tomonida - raketaning zarba tekisligining qarama-qarshi tomonida joylashganligi ko'rsatilgan zarba, bu raketani qattiqroq ushlab turishga imkon beradi va shuning uchun zarbaga ko'proq kuch beradi.

Ushbu tutqich yordamida orqa qo'l bilan zarbalarni samarali bajarish mumkin emas, chunki orqa qo'l zarbasi raketkaning boshqa tomoni bilan amalga oshiriladi va tutqichning zarbaga qarama-qarshi tomonida, bu tutqich bilan faqat barmoqlarning

uchlari mavjud, bu yaxshi yordam bo'la olmaydi. Shuning uchun, orqa qo'l bilan urish uchun qo'lni chapga siljitish kerak, shunda bosh barmog'i uchta chap chetida va raketka tutqichiga 45° burchak ostida joylashgan bo'ladi.

Keling, bu tutqichni raketkani ushlab turishning ikkinchi usuli deb ataymiz. Bu tutqich bilan bosh va ko'rsatkich barmog'idan hosil bo'lgan burchak cho'qqisi chapga siljiydi. yuqori qirrasini.



Raketka tutqichiga qo'lni o'q otish uchun joylashtirish



Raketani ushlab turishning ikkinchi usuli (yon ko'rinish)



Raketani ushlab turishning uchinchi usuli (yon ko'rinish)

Bosh barmog'i qo'lning eng kuchli barmog'idir. U diagonal ravishda raketaning urish tekisligining orqa tomonidagi tutqichda joylashgan bo'lib, to'pni urish paytida qo'lning mustahkamligini ta'minlaydi.

1. "Xodani bolta bilan chopish". Mashqning mazmuni shundan iboratki, tennischi to'pni o'yinga kiritish harakatini bajaradi, siltanishning oxirgi nuqtasidan to to'pga zarba berish paytigacha oldinda osilib turgan xodani boltada chopadi, bu harakatlar yakuniy fazada qo'llaniladi. Xoda

2. yetarli darajada og'ir bo'lishi lozim, chunki zarba kuchini yengib tebranmasligi kerak. Bolta o'rtacha kattalikda bo'lishi mumkin, yani tennischining mahoratidan kelib chiqib 1kg dan 2

kg gacha bo'ladi (2-3 rasm)



3-rasm

Mashq bir urinishda 40 tagacha takrorlanib bajariladi. Bunda quydagi vazifalar o'z yechimini topadi: birinchi – bolta bolistika nuqtai nazaridan ortiqcha harakatlar qilishga yo'l qo'ymaydi, aksincha zarba bajariladigan predmetning harakat trayektoriyasiga moslashishga yordam beradi. Bundan kelib chiqadiki, ushbu mashq, to'pni o'yinga kiritish texnikasi sur'atini to'g'ri shakllantirishga yordam beradi. Ikkinchi - yuk bilan ber necha marta takrorlab bajarish. Ushbu harakat dasturini bajarish uchun mos keluvchi mushak guruhlarini tanlashga va jalb qilishga yordam beradi.

4. Osilgan tennis to'pidan foydalanib to'pni o'yinga kiritish harakatini aks ettirish mashqi. Tennis to'pi gorizantal cho'ziladigan rezinkaga osilgan va zarba vaqtida tennischi raketkasining yuqori qismi yetadigan maksimal balandlikka o'rnatilgan. Tennischi osilgan to'pga nisbatan shunday

jo'lashishi kerakki, bunda to'pning vetikal proyeksiyasi o'ng oyoq bilan oldinga bir qadam masofada yerda joylashgan bo'ladi. Raketga to'pga biroz yuqoridan zarbani amalga oshirishi kerak, agar tennis to'pini soat ko'rsatkichlari deb tasavvur qilsak, unda soat millari ikki yarimni ko'rsatishi kerak.



4-rasm

Shuning uchun, to'pni albatta gorizontal cho'ziluvchi rezinkaga osish shart, chunki vertical holatda osilgan to'pga zarba berganda to'pni ushlab turuvchi rezinka halqaning yuqori qismiga tegishi kerak bo'ladi. Bu bilan mashq butunligi buziladi. Ushbu mashq harakatni aniq bajarilishini rivojlantiradi.

Tennisga xos bo'lgan xatolarni, to'pni o'yinga kiritish fazasida, ya'ni siltanishning oxirgi nuqtasidan to'pga zarba berish paytigacha bo'lgan oraliqda aniqlash mumkin. Tirsak holati va raketkani o'ta joylashishi, to'pni o'yinga kiritishning oxirgi siltanish fazasidagi texnik xatolar hisoblanadi.

V.Golenko fikricha, - "Tushib ketgan tirka bilan, sportchi to'pni o'yinga kiritishda tezkorlik imkoniyatidan to'liq foydalana olmaydigan bir qator salbiy holatlarga duch keladi".


- tana yuqori o'ng qismining yirik mushaklari yetarli

darajada cho'zilmaydi (mushaklarni keyingi qisqarishiga zarur sharoit yaratilmaydi);

- tirsak bo'g'imining oldingi - orqa asos atrofidagi harakatlarni (aylanma harakatlarning burchak tezligi hosil bo'ladigan "bog'lamga" raketkani burash), tirsak bo'g'imi yelkaga nisbatan 90 burchak ostida bo'lgandagina bajarish mumkin;

- tushirilgan tirsakda bog'lamga raketka boshchasining eng past holatdan to'pga nisbatan harakati oldinga - yuqoriga emas, balki yuqoriga yo'naltirilgan bo'ladi, bu o'z navbatida sportchi tanasida bog'lamni yaqin buralishiga hamda raketkaning yakuniy nuqtasi chiziq tezligiga bog'liq bo'lgan, raketkaning aylanma radiusini kamayishiga olib keladi.

Raketka gavdaga yaqin juda past tushgan va o'ng yelkadan chapga og'ishi mumkin emas. Raketkani ko'tarishdagi xatolar: - raketka siltanishning oxirgi nuqtasidan to'p bilan uchrashgunga qadar yetarlicha to'g'ri chiziq bo'ylab harakatlanmaganligi. Raketka bilan to'pga zarba berilganda uchraydigan xatolar: agar tennischi maksimal baland nuqtada zarbani amalga oshira olmasa. Yassi va kesma to'p uzatishda raketkaning to'pga beradigan zarba nuqtasi, to'pning gorizontal chizig'idan pastda bo'lsa. Bunday vaziyatlarda yo'l qo'yilgan xatolar davom etib, keyinchalik esa majburiy xatolar vujudga kela boshlaydi: To'pni o'yinga kiritish kvadratiga tushadigan to'p proyeksiyasini ushlash uchun raketka bilak bilan pastga sirg'anadi, hamda zarbada qo'l panjalar harakati chegaralanadi va siqiladi (5-rasm).



5-rasm

To'pga raketka bilan dinamikasiz zarba berish tennisda qo'pol xato hisoblanadi. Zarba vaqtidagi raketkaning to'g'ri geometrik harakatida ham bu holat sodir bo'lishi mumkin. Bunga sabab, to'pni o'yinga kiritish texnikasini to'liq o'zlashtirilmaganligidir. Tashqaridan qaraganda bu raketka bilan to'pga zarba berishning yakuniy fazasida tezlanishsiz siqilgan kabi ko'rinadi. Harakatning oxirgi fazasida maksimal yuqori nuqtada qo'l panjalariga urg'u berib kuchli siltanish bilan zarba berish taklif qilingan mashqlarni o'zlashtirish uchun zarur etalon hisoblanadi. Bundan tashqari bu mashqlar bajarilayotganda oyoq va tana ishini kuzatish mumkin. Siltanishda oyoqlar prujinasimon biroz bukiladi, so'ng to'g'irlani tanani oldinga yuqoriga itaradi, bunda chap o'yoq uchi yerga birozgina tegadi, so'ng zarba paytida tananing butun og'irligi to'pga tushadi. Yuqorida keltirilgan to'pni o'yinga kiritish vaqtidagi vujudga keladigan texnik xatolar ayniqsa zarba harakatlarini aks ettirishda ochiq namoyon bo'ladi va bu xatolarni tuzatish choralarini yengillashtiradi. Ko'p martalik

takrorlanishlar, to'g'ri harakat ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

4. "To'p spitsda" trenajorini qo'llab to'pni o'yinga kiritish harakatida to'pni aylanishida qo'l panjalari harakatini takomillashtiruvchi, aks ettiruvchi mashqlar quydagicha bajariladi: Uzoq nuqtasida bir yuzida aylanayotgan tennis to'pi biriktirilgan spits oldinga yuqoriga cho'zilgan chap qo'lda ushlanadi, o'ng qo'l siltanishning oxirgi nuqtasidan to'pni o'yinga kiritishda raketka bilan to'pga kerakli aylanishni berib sirg'anuvchi zarba beradi. Kesma zarba harakatini ishlab chiqish uchun to'pga yonlanma aylanish beriladi, spitsdagi to'p esa yuqoriga – oldinga – o'ngga chiqariladi. Burama zarbada raketkaning oyna yuzasi to'pni yo'nalishi bo'yicha pastdan yuqoriga – oldinga sirg'anishi kerak, spitsdagi to'p esa, zarba uchun tekis va kesma to'pni o'yinga kiritishga qaraganda biroz pastda, chap yelkaga yaqin, bosh ustida turishi kerak. Mashq tennis kortida kesma va burama to'pni o'yinga kiritishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar oldidan har urinishda 30-40 zarbadan bajariladi.

5. "Velosiped g'ildiragi" trenajoridan foydalanib, o'ngdan va chapdan sakrab ko'tarilgan to'pga burama zarbalarni takomillashtiruvchi aks ettirish mashqlari. Bunda bel darajasida joylashgan, o'z o'qi atrofida aylanayotgan velosiped g'ildiragiga raketkaning oyna yuzasi g'ildirak bo'yicha pastdan yuqoriga – oldinga sirg'anish uchun, o'ngdan va chapdan sakrab ko'tarilgan to'pga zarba texnikasida raketka bilan zarba beriladi. Mashq har bir urinishda 30 – 40 zarbadan bajariladi.

2.2. Kiritilayotgan to'pni qabul qilish texnikasi

Sapchigan to'pga zarba berish – xujum, qarshi xujum va ximoyaning asosidir. Bular juda ko'plab va xususiyati bo'yicha

xilma-xil bajariladigan, va ular yordamida xarakteri jixatdan taktik vazifalarni xal qiluvchi zarbalardir, Sapchigan to'pga zarba berish bu javob xarakatidir. Shuning uchun uning taktik yo'nalishi va bajarish xususiyati, birinchi navbatda konret shart-sharoitga, raqibi tennischini qanday xolatga majburlab zarbani bajarish imkoni yaratishiga bog'liq.

Zamonaviy atletik o'yinda xarakatlarni o'tish tezligi aniqligi katta ahamiyatga egadir. Tennischi kortda shunday xarakatlanishi kerakki, zarba berish momentida eng qulay xolatda bo'lmog'i kerak. Qulay fursat zarba berish nuqtasiga ertaroq borib statistik xolatda turib to'p yaqinlashishini kutishdan iborat emas. O'z xarakatlanish hisobini shunday olish kerakki, zarba berish momentiga, gavdani eng tez xarakati va tayanch oyog'da kuchli tepsinish fursatiga mos, biomexanika nuqtai-nazardan esa gavda, yelka, qo'llar va kistlar xarakatlanish garmonikasiga uyg'un kelishi lozim.



6-rasm.

Tennischiga nufuzli turnirlarda o'ynashi va yutishi uchun doimo izlanishda bo'lishi, ba'zida yangicha g'aroyib texnik priyomlar va taktik kombinasiyalar topishi kerak bo'ladi.

Bu izlanishlar natijasi tajribasiz tennischilarga fantastik xolatdek tuyiladi, texnik bajarilishi esa oddiy xammabopdek. Masalan, ba'zida tog'lardagi toshlarning o'sishini ko'rib, xuddi tabiat aqldan ozgandek ko'rinadi. Lekin, biz bilamizki bu tabiatni asosiy qonuni, ular oqsamaydilar, shunchaki tushunib muxokama qilish lozim. Xuddi shuningdek tennis zarbalarini biomexanikasi kabi, yetakchi tennischilarni zarbalari nima uchun bunchalik unumli bo'lishiga faqat shugina to'g'ri javob bo'ladi. Tennis zarbalarini asosida quyidagi prinsip yotadi – maksimal energiyani yig'ish va shunga mos koordinasion zanjir orqali tezlik va massani o'zaro bog'liqligini xisobga olib, to'pga maqsadga muvofiq ravishda unumli va kerakli xarakterdagi zarbani berish. Zarbaga shunday chiqish kerakki, zarba oldidan oyoqlarni joylashuvi, (6-rasm) to'rdan uzoqda turgan oyoqdan to'rga yaqin oyoqlarga qarab xarakatlanayotgan gavda massasi energiyasini oldinga o'tkazishga imkon yaratishi. to'pni uchish trayektoriyasi yo'nalishi bo'yicha uzatilishi kerak.

Juda ko'pchilik yuqori klassdagi zamonaviy tennischilar o'ngdan zarbani ochiq xolatda turish bilan bajaradilar, ya'ni zarba paytida ularning yelkalari ochiq va to'rga parallel xolatda bo'ladi. Zarba yakunida urayotgan qo'lning tirsagi yuqoriga ko'tarilib, raketka chap yelka ustidan o'tib ketadi. Bu xolatda qo'shimcha ravishda tanani son yoki bel atrofida aylanishidan xosil bo'ladigan moment kuchidan foydalaniladi. Balkim bu xarakat golfchilarnikidan olingangandekdir, xar qalay ushbu xarakat klyushka bilan zarba berishga juda o'xshaydi. Lekin golfda tik turib uriladi.

Tennischilar ochiq turish bilan urayotganida, chiziqli moment kuchi va aylanma xarakatdan bo'ladigan burchakli moment kuchini birlashtirib zarba yo'nalishiga uyg'unlash-

tirishi lozim. Bizning tennischilarda xar doim xam bunday bo'lavermaydi.

Bizdagi yosh yetakchi tennischilarimiz o'ngdan zarba berishdagi muammolari quyida 7,8 rasmlarda yaxshi ko'rinib turibdi.




7- rasm



8- rasm

Ularning sapchigan to'pga zarbasini sifati keng maxovik xarakatlari va to'pni xis etishi xisobiga ta'minlanadi. Vaxolanki asosan joyda turgan xolda – to'pga ishonchli kuchli xarakatlar yo'q, ayniqsa qisqartirilgan zarbalarda. Zarba paytida xarakat energiyasi oldinga tashlangan oyoq bilan tormozlanib qoladi. Qolgan energiyani esa zarbadan keyin gavdani orqaga burish uchun sarf qilinadi.

Biomexanika nuqtai-nazaridan o'ngdan unumli zarba berish uchun zarbani aylanish richagini o'qi (gavda, qo'l, raketka) yerga perpendikulyar xolda chap yelka orqali o'tishi kerak. Bunda zarba yo'nalishi bo'yicha xarakatlanayotgan, gavda massasini xarakat energiyasining chiziqli moment kuchi va aylanma xarakatdan bo'ladigan burchakli moment kuchi bilan uyg'unlashib yuqori yelka kamarini zarba richagini xosil qilishi muximdir.



9-rasm.

Agar bu ikki energiya manbai zarba paytiga birlashib, bitta moment kuchini xosil qilsa, juda kuchli zarba rezonansi paydo bo'ladi. Yig'ilgan energiya potensialidan rasional foydalanish muximdir. Xamman oldin tennis to'pini massasi taxminan 60 grammiligini hisobga olish kerak. Shuning uchun to'plangan energiyadan maksimal darajada foydalanish, piravordida raketka va to'pni to'qnashish tezligiga bog'liq. Ya'ni kuchli to'p uzatish yoki parvozdan zarbalarni qabul qilishda to'pni raketkada yetarlicha qattiq va jips xolda kutish kerak.

Lekin yumshoq yarimbalandlikdagi (polusvechka) zarbaga unumli javob berish uchun, raketkaga maksimal fursatda tezlanish berish kerak. Bundan tashqari, qaysi yo'nalish va aylanishiga bog'liq xolda to'pga ishlov berishga energiya berganda, kuchni tarqalishi yuzaga keladi. Bu raketkani torli yuzasi xolatini to'pni uchish yo'nalishiga nisbatan tutishiga, hamda qo'l va raketkani trayektoriyasiga bog'liq bo'ladi. Bular

birgalikda to'pga ishlov berishda chuqur individual tarzda bexisob turlicha o'ynab to'pni yutishni tashkil etadi. Asosiysi energiyani maksimal darajada ishlab chiqib to'plash, va undan eng unumli darajada foydalanishdir.

Sapchigan to'pga o'ngdan zarba berishda tennisdagi boshqa zarbalarga nisbatan ko'proq turli xildagi raketka tutishlar(xvat) ishlatiladi. **Jahonni** yetakchi tennischilarini kuzatish va chiqishlaridan ko'rinadiki, xar tipdagi raketka tutishga o'ziga xos va mos tipdagi zarbalar varianti - o'zining kamchil va ustunliklari bilan to'g'ri keladi.

O'ngdan zarba berishda eng ko'p foydalanadigan raketka tutish bu - sharqona tutish. Bu tutish tekis va yengil aylantirilgan zarba berish uchun qulay. Bu zarbalarda paytida ishlab chiqarilgan kuchlar kort bo'ylab yo'naltiriladi, g'arbiy va yarimg'arbiy tutishlardan farqliroq, kontakt nuqtasi pastroq va tanadan uzoqroqda bo'ladi.

G'arbona raketka tutish baland aylantirma zarbalarni bilan almashinayotgan paytda qulayroq bo'ladi. Lekin. ba'zida topspinga ortiqcha berilib ketishga olib keladi. Bu tutishdan foydalanadigan o'yinchilar, pastki zarbalar bilan o'ynaganlarida ko'pincha muammolarga duchor bo'ladi. Shuning uchun bunday raketka tutish ko'proq sekin kortlardagi o'yinlarda mos keladi.

Yarim g'arbona tutish - yuqori klassli o'yinchilar ko'proq foydalanadigan tutishdir. Sharqona stabil tutishdan aylantirib g'arbiy tutishga o'tish bilan birgalikdagi kombinasion tutishda o'ynash qisqartirilgan, dioganal va aylantirib o'tuvchi (obvodka) zarbalarda juda qulay. Zarba asosida yuqori yelka kamarini zarba richagidan paydo bo'ladigan chiziqli va burchakli moment kuchlarini garmonik uyg'unlashuvi yotadi. Raketka xarakati to'pni pastki qismidan oldinga-yuqoriga qarab zarba nuqtasiga boradi va davom etib ketadi. O'ng oyoq oddiygina buralib va chap oyoq darajasida to'xtaydi.

Zarba paytida to'pga maksimal tezlik berish uchun to'pni kuzatib qoluvchi xarakatni ajoyib elementi shundaki, gavda burilayotganda zarbadan keyin tirsakni yelka darajasiga ko'tarilishidir. Bu urayotgan qo'lni jaroxatdan saqlash uchun sekinlashish imkoniyatini beradi, lekin bunda ko'p energiya bekordan sarf bo'ladi.

Kontinental yoki universal raketka tutish sapchigan to'pga o'ngdan zarba berishda unchalik qulay emas, chunki baland to'plarni bunday ushlab uddalash qiyin. Bunaqa raketka tutishda qo'pincha zarba kechikibroq qoladi va zarba kuchini yetishmasligiga sabab bo'ladi. Bu tutishlardan ko'pincha tez kortlarda kesilgan zarbalar va o'ngdan to'sib(blok) qabul qilish uchun foydalanish mumkin. Yana undan asosiy zarbalarni almashlab, xamma turdagi zarbalarda (qisqartirilgan, past parvozdagi to'pga, parvozdagi to'suvchi zarba "stop-volleys", va x.k.)

O'ngdan zarba berishda Sharqona, G'arbona, Yarimg'arbiy raketka tutib ko'pchilik o'ynovchilar uchun, chapdan bir qo'lda zarba berishda raketka tutishni almashtirish kerak bo'ladi. Tutishni raketka "zamax" uchun orqaga qaytarilgan paytda bo'sh qo'l bilan o'zgartiriladi. Bir qo'llab chapdan zarba berish uchun ikki tipdagi raketka tutishlar mavjud: Sharqona va Kontinental. Chapdan zarba berish texnikasini asosiy bajarish prinsiplari nuqtai nazaridan o'ngdan zarba berish bilan umumiy jixatlari ko'p. Shuning uchun chapdan zarbani aloxida jixatlariga e'tibor qaratish kerak, avvalo "zamax" xarakatiga, bu ikki qo'lda bajarilib ozgina uzoqroq ishlanadi. Chap qo'l bilan tennischi raketkani "bo'ynidan" ushlab orqaga qaytarish uchun yordam qiladi. Ikki qo'llab "zamax" qilish gavdani burilishiga, undan tashqari chap qo'lni faolligi o'ng qo'lga yengillashiga imkoniyat yaratadi. O'ngdan zarbadan ko'ra gavdani burilishi ko'proq

bo'ladi.

To'pga raketkani olib borishda bukilgan o'ng qo'lni asta sekin tirsak bo'g'inidan to'g'rilab boriladi, zarba momentiga butunlay to'g'rilanadi yoki ozgina bukilgan xolda bo'ladi. Raketkani to'pga borishi va zarbani tugallanishi butun qo'limizni birdaniga yakdil xarakati bilan bajariladi, va bu gavdani burilishi, oyoqlarni to'p yo'nalishi bo'yicha ishlash xarakatlariga mos ravishda uyg'unlashishi lozim.



10-rasm.

Tekis zarbani turli aylantirma zarbalardan farqi – qo'lni raketka bilan xarakatini to'pga borishdagi oxirgi momentiga va bevosita raketka va to'pni xamjixatdagi xarakati bilan bog'lanadi. To'pni unumli aylantirish uchun, zarba berish momentida to'p raketka yuzasi bo'ylab dumalayotgandek ko'rinadi. Agar to'pni kuchliroq aylantirish kerak bo'lsa, zarba jarayonida raketka to'pdan o'zib ketishi kerak bo'ladi, bunda to'pni chiziqli bo'ylab uchish tezligini yo'qotiladi. Barcha xolatlarda "provodka" kerak, ya'ni ko'zlangan maqsad yo'nalishida raketkani to'p bilan kontaktda tezlanishdagi xarakatni davomiyligi zarur. "Zarba richagini" duga xosil qiluvchi xarakatini to'g'rilanishi, asosan tirsak bo'g'ini va oyoqlarni zarba yo'nalishi bo'ylab xarakati xisobiga bo'ladi.

Ko'p xollarda trenirovka jarayonida chapdan zarbalarni majburiy – o'tkazuvchi sifatida qaraladi, u xujum zarbasi sifatida

ko'rilmaydi. Shuning uchun xarkatlarni koordinasion zanjiri faol kuch bilan ishlatilib o'rganilmaydi. Natijada bizning yosh yetakchi tennischilarimiz chapdan bir qo'lda zarba berishda to'pni urganda butun gavdasi bilan orqaga suriladilar.

Quyidagi 10-rasmda ko'rinadiki, tennischini yetarlicha kuch va zichlikka ega bo'lgan zarbasi, asosan faqatgina yuqori yelka kamari xisobiga bo'lmoqda, oyoqlar yaxshi yordam bermayapti yoki aksincha sekinlatmoqda. Masalan, chapdan zarba berishda, gavda massasi zarba yo'nalishi bo'yicha oldinga xarakatlanishida o'ng oyoq tayanch sifatida ushlab qolmoqda. Zarba paytida gavda og'irligi (og'irlik markazi) o'z oldida to'pni kutib olib unga o'tkazilmayapti. Ko'rinib turibdiki, tennischi yarim o'tirib, egilgan xolda va bir qo'llab gavgdasiga yaqin nuqtadan urmoqda.



11-rasm.

Tennis zarbalarini asosiy prinsipial muammolari bu - energiyani maksimal to'plab, zarbaga mos koordinasion zanjir orqali unumli va maqsadga muvofiq ravishda bu energiyani to'pga o'tkazishdan iborat, bu tezda xosil bo'lmaydi. Lekin qachonki, bunga ehtiyoj paydo bo'lganda, orqaga qaytishga

to'g'ri keladi, va qandaydir o'rnatilgan dinamik stereotipdagi zarbani buzib, yuqori ko'tarilish uchun, yangi unumliroq zarbalar ustidan ishlashga to'g'ri keladi.

Yosh tennischilarni trenirovka jarayonida ko'pincha joydan turib zarbani rivojlantirish uchun juda ortiqcha ahamiyat beriladi. Partnyor bilan o'ngdan o'ngga, chapdan chapga, diagonali va chiziqli bo'ylab, trenerni savatdagi to'p bilan ishlashi asosan aniq ritm va belgilangan yo'nalishda bo'ladi. O'z vaqtida, mashhur mutaxassis professor S. Belis-Geyman o'tkazgan izlanishlari shuni ko'rsatadiki, jismonan zarbani o'zini bajarish, bu zarbaga tennischini tayorgarlik ko'rishi uchun bajariladigan ishni kichik bir qismini tashkil qiladi xolos. Tayyorgarlik, bu raqibni maydondagi turish xolatini aniqlash, uning zarba qaytarish imkoniyatlari. To'pni uchishi, tezligi, yo'nalishi va yerga tushish nuqtasi optimolini topish. Masofani o'tib eng rasional ravishda to'pga chiqib borish. Buning uchun ko'p mashq qilgan ko'z chamasi (glazomer), to'p uchish vaqtini maxsus xis qilib o'zini maydon bo'ylab samarali xarakatlanishi kerak. Va yana ushbu xollardagi javob imkoniyatlari va javob tanlash, qanday va qayerga javob qilish. Bularni xammasi intuitiv ravishda, xarakatlarni avtomatik boshqaruvi asosida, bu detallarni nazorat qilish fikridan xoli ravishda bajarilishi lozim. Shundagina tennis uchun zarur bo'lgan xarakatlar quyilmasi ta'minlanadi: zarba berishda to'pga chiqishdan samarali foydalanish, maxsus ko'nikmalarni takomillashtirish – to'pni xis qilish, tempni xis qilish, raqibini xis qilish kabi v.x.

Bu davrning texnik takomillashuvini asosiy prinsipi, asosiy elementlarni avtomatlashtirishning omili bo'lgan xarakatlar jarayonini ko'p marta qaytarish prinsipi bilan bir qatorda sekin asta qiyinchiliklarni kuchaytirishdan iborat, va ayniqsa murakkab xarakatlarni o'zlashtirish aloxida muxim ahamiyatga egadir.

Yosh iqtidorli tennischilarni kuzatuv natijalari ko'rsatmoqdaki, ma'lum bir rivojlanish darajasida, xarakterli muammolar ko'rinmoqda ular sapchigan to'pga zarba berishda xarakatni dinamik potensialidan foydalanma-yaptilar. Ba'zida ikki-uch qadam tezlanish qilib, yuqori nuqtadagi to'pni urish o'rniga, tennishi to'p kelishini kutib, past nuqtadan, to'pni tushayotgan trayektoriya bo'ylab uchayotganda urishga to'g'ri kelmoqda. (11-rasm). Yana shunday norasional variantlar bo'ladiki, tennishi qisqartirilgan to'pga zarba berish uchun majburan oldinga yuguradi, zarba oldidan to'xtab olishga, xarakatni dinamik potensialini so'ndirish uchun energiya sarflaydi. Bularni xammasi egiluvchanlikni yetishmasligi, shu bilan birga xarakatda ishlangan, o'yinda xar qanday situsiyasiga reaksiya qilishga qodir dinamik stereotipdagi zarbani takomillashtirmagani oqibatidir. Davr sinovlaridan o'tgan, kerakli zarbalarni shakllantirish uslubini rivojlantirish uchun quyidagicha mashqlar mavjud.

O'rgatishni boshlang'ich davri uchun:

1. Mashg'ulot boshlashda doimo maydon aylanasi bo'ylab oddiy yugurish o'rniga, tennisni asosiy zarbalarini imitasiya qilib yugurish (o'ng va chapdan sapchigan to'pga zarba, qisqartirilgan to'pga yetish, parvozdagi to'pga sakrab zarba berish kabi). Bu mashqlar, to'pga xarakatdagi barcha zarbalarni koordinsion zanjirini shakllantirish va sayqallashga yordam qiladi.

2. Yugurib kelib og'ir (nabivnoy) to'pni xarakatda o'ngdan va chapdan uloqtirish. Bu mashqlar, barcha imkoniyati bor manbalardan to'plangan energiyani moment kuchini jamlab birlashtirishga yordam qiladi.

O'rgatishni keyingi takomillashtirish davri uchun:

1. Mashqlarda to'rt nafar sportchi qatnashadi. Xamma sportchi kortni orqa chizig'idan tashqarisida turadilar, birinchi sportchi o'ngdan qisqartirilgan aylanma zarba bilan diagonal bo'ylab to'pni raqib tomonni to'p uzatish kvadratini 1-zonasiga yo'naltiradi. Kortni qarama-qarshi yarmining o'ng tomonida chiziq ortida turgan sportchi diagonal bo'yicha qisqartirilgan to'pga peshvoz chiqib yugurib keladi va xarakatda kesilgan to'g'ri zarba bilan qarshi tomondagi to'p uzatish maydonini 2-zonasiga to'pni yo'naltiradi. Albatta bir yoki ikki qadam bilan oldinga to'p yo'nalishi bo'yicha xarakat qilib kuzatib qoladi va darhol joyiga chiziq ortiga qaytib oladi. Uchinchi sportchi bu to'pga yugurib chiqib chapdan aylantirilgan zarba bilan diagonal bo'ylab qarshi tomonni to'p uzatish maydonini 2-zonasiga o'ynaydi va orqa chiziqqa joyiga qaytadi. To'rtinchi tennischi yugurib kelib chapdan kesilgan to'g'ri zarba bilan to'pni qarshi tomonni to'p uzatish maydonini 1-zonasiga yo'naltiradi va orqa chiziqdagi joyiga qaytadi. Shu tarzda to'pga chiqib xarakatdagi "sakkizlik" o'ynaladi.

2. Uchta ishtirokchi bilan mashqlar. Ikki tennischi orqa chiziq tashqarisida kortni o'rovchi to'r yaqinida turadi, uchinchi tennischi kortni qarshi tomonida o'ziga qulay joyidan turib to'pni o'yinga kiritadi. Orqa chiziq tashqarisidagi tennischilardan biri to'pga qarab javob zarbani berish uchun xarakat qiladi, buni zarba momentini unumli bo'lishiga maksimal tezlanishdagi xarakatda bajarishi kerak. Tennischi tezlanishda noto'g'ri xisob olib to'pga to'qnash kelib noqulay nuqtadan bir qo'lda majburiy zarba bersa xam yomon, shuningdek tennischi to'pga tezroq borib olishi va zarba momentida sekinlab yoki to'xtab turib zarba bajarsa xam yomon, u zarbani tez xarakatda to'g'ri hisob olib tezlanishda bajarib orqadagi dastlabki joyiga

qaytishi kerak. Yakka turgan sportchi bir xilda to'pni raqibmaydoniga qaytarib turishi, ikki sportchi navbatma-navbat to'pga yugurib chiqib zarbalarni to'g'ri bajarishga xarakat qilib orqaga dastlabki joyiga qaytishi lozim.

Bu ikkala mashqlar tennischida ko'z chamasi (glazomer), oniy xotira sifatlarini ishlab rivojlantiradi, va ekstrapolyasiya orqali(ko'nikmalarni kengaytiradi,oldingi faoliyati tajribalarini yangisi bilan boyitib o'zlashtirish) dinamik stereotipdagi tennis zarbasini shakllantiradi. Xarakatdagi uzilishlarni (diskretnostni-aloxida bo'limlardan iborat uzilgan xarakatlar) oldini olib. To'plangan energiyani koordinasion zanjir bo'ylab o'tishini ta'minlashdagi xarakatlar ko'nikmasini rivojlantiradi.

Zikr etilgan mashqlardan tashqari tennischilarni o'rgatish jarayonida ko'pdan-ko'p tennis to'pi va dastasi bilan bajariladigan an'anaviy mashqlar qo'llaniladi; "tup doira ichida", "cho'qqichadan dumalayotgan to'p", "devorgacha dumalat", "to'pni dumalatib nishonni yiqit", "to'pni to'pga qarshi aniq dumalat", "to'p urib kim o'zdi poygasi" (estafeta), "ikki kishi to'p uzatib estafeta yugurish" va hokazo.

Mazkur mashqlar o'z mazmuni bilan an'anaviy bo'lgani uchun ularni ijro etish tartibini va izohini yoritishga hojat bo'lmasa kerak, deb o'ylaymiz. Lekin barcha mavjud an'anaviy mashqlarni noan'anaviy mashqlar (maxsus bo'lmagan) ishtirokida bajarish katta samara berishi mumkinligi ba'zi sport o'yinlarida qisman isbotlangan va ushbu omil tennischilarni tayyorlashda ijobiy natijalarni yuzaga keltirishi kafolatdan holi emas.

O'rgatish bosqichlari, uslublari va vositalari

O'rgatish bosqichlari va ularning nomi	O'rgatish uslublari	O'rgatish vositalari
1-bosqich: O'rgatilayotgan malaka (harakat) haqida tushuncha hosil qilish	Tushuntirish-tahlil qilish, ko'rsatish-izoh berish	So'z, suhbat, muloqot, munozara, rasmlar, andozalar, videofilmlar
2-bosqich: Malakalarga oddiy sharoitda o'rgatish (yakka tartibda qo'shimcha vazifalarsiz)	Qismlarga bo'lib, element va fazalarga bo'lib o'rgatish, malakani to'liq holda o'rgatish, xatolarni tuzatish, rag'batlantirish, qaytarish	Tayyorlov-yondosh tiruvchi, yo'naltiruvchi turdosh taqlidiy va asosiy texnik mashqlar
3-bosqich: Malakalarga murakkablashtirilgan sharoitda o'rgatish (vaziyatli vazifalar berish, juftlikda, uchlikda va h.)	Malakalarni to'liq holda o'rgatish, tezlik va aniqlikni kuchaytirib o'rgatish, turli yo'nalishdagi harakatlardan so'ng ijro etish, reproduktiv qaytarish asosida o'rgatish, o'zaro tahlil va baholash asosida o'rgatish.	1-2-bosqichlardagi barcha vositalar, umumiy va maxsus mashqlar katta tezlik va aniqlikda qo'llaniladi, juftlik, uchlikda qo'llaniladigan mashqlar, trenajer va texnik vositalar
4-bosqich: O'rgatishni davom ettirish, takomillashtirish va mukammallashtirish	Barcha uslublar	Barcha vositalar va jamoa o'yinlari

O'rgatish jarayonida qo'llaniladigan umumiy va maxsus pedagogik prinsiplar

T/r	O'rgatish prinsiplari	Prinsiplarni qo'llash xususiyatlari va uslubiy ko'rsatmalar
1.	Ilmiylik	O'rgatishda bolalar yoshi jinsi, jismoniy va psixofunksional imkoniyatlar e'tiborga olinib, mashqlar me'yorlanadi. Natija testlar yordamida ilmiy tahlil qilinadi
2.	Onglilik va faollik	O'rgatilayotgan malaka (harakat) larga ongli tasavvur etilishi zarur, o'rgatishda bolalar faolligi ta'minlanishi lozim
3.	Muntazamlilik va uzviy bog'liqlik	Bosqichma-bosqich o'zlashtiruv takomillashuv va mukammallashuv ta'minlanadi
4.	Mutanosiblik va muvofiqlik	Mashqlar murakkablik va yuklama salohiyati (hajmi, shiddati, yo'nalishi, takrorlanishi va muddati) jihatlaridan shug'ullanuvchi

		imkoniyatiga mos bo'lishi dardkor
5.	Mukammallik	Texnik jihatdan to'g'ri o'zlashtirilgan malakalar takomillashuv asosida turg'un va barqaror darajaga ko'tariladi
6.	Uzluksizlik	Yildan-yilga o'rgatish va takomillashtirish jarayoni murakkablashib borishi dardkor, uzilishlarga yo'l qo'yish salbiy natijalarga olib keladi
7.	"Yengilidan og'iriga"	O'zlashtirishga loyiq yengil yuklamalar progressiv yo'nalishda, lekin "to'lqinsimon" shaklda kuchaytirib borilishi kerak
8.	"O'tilganidan o'tilmaganiga"	Shug'ullanuvchi o'zlashtirgan (unga tanish bo'lgan) mashqlardan ya'ni mashqlarga o'tish, o'rgatish samaradorligin oshiradi
9.	"Oddiydan murakkabga"	Eng oddiy mashqlarni o'rgatish va takomillashtirish davomida sekin-asta murakkablashtirib borilishi lozim
10.	Umumiy va maxsus tayyorgarlik birligi	O'rgatish va takomillashtirish jarayonida jismoniy texnik-taktik va psix'ofunksional tayyorgarlik birligi, ularni o'zaro bog'liqligi ta'minlanishi zarur

2.3. Yo'nalish bo'yicha zarba berish texnikasiga o'rgatish.

Tennisda musobaqa o'yinlarida to'p uzatish muxim xal qiluvchi element. Shu bilan birga u anchagina murakkab zarba berish hisoblanadi. To'p uzatishni samarali bo'lishiga uning tashkillashtiruvchi texnikaviy, taktikaviy va ruxiy tayyorgarliklarini doimiy takomillashtirib borish xisobiga erishiladi. To'p uzatish texnikasi ko'plab mashxur mutaxassislar tomonidan o'rganilgan. Juda ko'p xolatlar aniq ilmiy izlanishlar bilan asoslangan.

Shunga qaramasdan tennischilarni keng ommasi tomonidan to'p uzatishni asosiy prinsiplaridan foydalanilmay kelinmoqda, bunga ularning to'la ishonchi yo'q yoki umuman qarama-qarshi fikrlar bildirilmoqda. Albatta to'p uzatish texnikasi juda

murakkab, bu to'g'risidagi hozirgi bilimlar darajasi uni yanada o'rganish va ko'p xolatlarga aniqlik kiritish kerakligini bildirmoqda. Ko'pchilik tennischilarni to'p uzatish texnikasini takomillashtirishdagi asosiy muammosi shundan iboratki, amalda to'p uzatish xarakatining ilmiy asoslangan prinsiplari yo'q, ishlamayapti, gap shundaki bu prinsiplardan o'yinning murakkab va muhim elementi – to'p uzatishni o'rgatishda va takomillashtirishda foydalanilmayapti.

Shuning uchun ham, fikrimizcha hozirgi kun dolzarb masalasi sifatida ko'proq bizning O'zbekiston tennischilarini o'rganib, turli izlanishlar o'tkazish, to'p uzatish texnikasini takomillashtirish darajasi va amaldagi natijalariga bog'liqligini namunasini ko'rgazma sifatida namoyon qilishimiz kerak. Va shuningdek to'p uzatishni turli aspektlarini takomillashtiruvchi ilmiy asoslangan tavsiyalar berishimiz kerak.

20-30 yillarni o'zidayoq tennis bo'yicha kitoblar va qo'llanmalar mualliflarida tennis o'yinining to'g'ri texnikasi omillari to'g'risida, yoki o'sha davrda aytilishicha yaxshi o'yin stili haqida savollar ko'tarilgan edi. O'sha davrdagi mutaxassislar xali xarakatlar tezligini o'rganib izlanishlari uchun imkoniyati va usullari bo'lmagan bo'lsada, lekin mexanika bilimi, tajribasi va intuisiyasi odamni zarba berish paytidagi xarakati asl biomexanik mag'zini shakllantirish uchun yetarli bo'lgan. "Hamma xarakatlarni bitta asosiy chiziq bo'ylab yo'naltirish kerak. O'sib borish tartibida quyidagicha tebranish: avval oyoqlar, keyin son, gavda, yelka, qo'llar, va xatto bosh va bosh orqasigacha bo'lishi lozim. Ushbu aloxida kuchlanishlarning bo'laklari ketma-ketligini xammasi birlashuvi natijasida katta bir kuch paydo bo'ladi. Har bir aloxida olingan muskul umumiy ishning ozgina qismini bajaradi xolos, chunki butun

gavda o'zining tebranishi bilan eng ko'p ishini bajaruvchi, hamda kuchni saqlovchi hisoblanadi"- deb yozgan edi B.Ulyanov yuz yillar oldin. Keyingi avlod mutaxassislari tennis xarakatlarini biomexanika asoslarini chuqur o'rganib izlanishlar o'tkazishni davom ettirib kelmoqdalar. Hozirgi davrda to'p uzatish xarakatlarini xamma tan olgan asoslovchi prinsiplari jamlangan. Ular ko'p marta tennis o'rgatishni boshlang'ich qo'llanmalarida yozilgan. O'zbek tennischilarini to'p uzatishining samarasini o'rganishdagi amaliy izlanishlar shuni ko'rsatmoqdaki, biomexanika etaloni sifatida tasdiqlangan prinsiplarga xilof ravishdagi anchagina ajoyib o'ziga mos farqlanish namoyon bo'lmoqda.

O'yinchini to'p uzatishdagi xarakatlari kompleksini odatda uch fazaga bo'linadi: tayyorlovchi, zarba berish va yakunlovchi fazalar.

Tayyorlovchi fazani vazifasi to'pga zarba berish uchun maksimal darajada energiya potensialini jamlashdan iborat. Buning uchun uzatuvchi dastlabki xolatdan, erkin xarakat bilan zo'riqishsiz ochilib, zarba xarakatida ishtirok etuvchi xamma muskullarini optimal darajada cho'zadi. Gavdani yuqori qismini o'ngga burib, o'ng yelkani faol xarakati bilan raketka ushlagan qo'lini chuqur orqaga qaytaradi. Gavdani burilishi son atrofida gavdani o'ziga xos buralishi bilan birgalikda olib boriladi. Shu momentda, xuddi kuchli tortilgan prujina kabi, gavdani oldi qismidagi kuchli muskullar qattiq cho'ziladi.



12-rasm



13-rasm

Qaytarish (*zamax*) xarakati bilan birvaqtda to'p tashlash uchun chap qo'l yuqoriga va ozgina o'ngga qarab ko'tariladi. "Zamax"ni tugallash momentiga tennischi ozroq oldinga intilib prujina kabi bukilgan oyoqlari bilan yuqoriga ko'tariladi.



14-rasm



15-rasm

Bunda gavdani yuqori qismi va raketka tutgan qo'l xuddi orqaga tissarilgan xolatda turadi, shu paytda o'ng oyoq oz-moz oldinga tortiladi. Natijada zarba berish xarakati oldidan uzatuvchini tana og'irligi ikkala oyoqlari uchiga o'tadi, ular birozgina bukilgan, xuddi prujina kabi to'g'rilanishga tayyor turgandek xolatda bo'ladi. O'ng oyoq 14- rasm uchi bilan tayangan xolda muvozanatni saqlashga yordam qiladi. Raketka tutgan o'ng qo'l tirsak bo'g'imidan bukilgan, o'ng tirsak yelka darajasida va iloji boricha orqaga qaytarilgan. Tayyorlovchi faza to'pni chap qo'lda tashlash bilan tugallanadi, qaysiki to'p yo'nalishi qo'lni yuqoriga tabiiy xarakatini davomi bo'lib u barmoqlarni yo'naltiruvchi xarakati bilan yakunlanadi. To'p barmoqlardan qo'l umuman yuqoriga cho'zilgan momentda ajralib chiqadi. Tayyorlovchi fazani tugashi va zarba berish fazasi boshlanishi, xuddiki butun bir to'p uzatish xarakatini aniqlovchi nazorat-sinov xolat hisoblanadi.

O'rganishni boshlang'ich davrida, yosh tennischilar tayyorlovchi faza - "zamax"ni asli ma'nosini yaxshi tasavvur qilolmasdan, chiroyli ko'rinishdagi murakkablashgan xarakatlar bilan o'ralashib, tajribaga asoslanmagan zarba berish xarakati fazasini o'ylab topishmoqda. Ushbu baza asosida takomillashish jarayonida dinamik stereotip xosil bo'ladi, va buni keyingi jarayonda o'zgartirish anchagina mushkul bo'lib qolmoqda.

14 va 15 rasmlarda "zamax" ni oxirgi fazasida, to'p juda baland tashlangani sababli, qisinib to'xtalgan xolatlar ko'rsatilgan. Bunda orqaga ortiqcha egilgan xolatda, zo'riqish pozasida, to'pni zarba berishga kulay nuqtaga tushishini ancha kutishga to'g'ri keladi. Yana to'p tashlash ortiqcha chaproqqa bajarilganligi sababli, zarba berishni bajarish, dinamika pozitsiyasi xolatidan kelib chiqsak, noqulay vaziyatda chap yelka ustida amalga oshirishga to'g'ri kelmoqda.

Boshqa turli xil muammolar bo'ladi. Masalan, 5 rasmda: "zamax" paytida yelka, qo'l va gavdani nomutanosib xarakati. Oyoqlarni turishi faol xolatda emas. Bularni xammasi "zamax"ni dastlabki xolatini dinamik tarang tortilishini yo'qolishiga olib keladi. Va oxir oqibat natija - to'p uzatishni samaradorligini yo'qotishga olib keladi.

Uzatuvchining zarba berish fazasidagi asosiy vazifasi – to'pga aniq va kuchli zarba berishdan iborat. Zarba berish fazasi oyoqlarni prujinasimon to'g'rilanib, gavdani qayrilib zarba yo'nalishi bo'yicha burilishi, o'ng yelkani yuqoriga-oldinga ko'tarilishi va raketkani "petlya" deb nom olgan xolatga chiqishidan boshlanadi.

Oyoq, gavda, raketka tutgan qo'l xarakatlari bir-biri bilan uyg'unlashib birdaniga bajariladi. Oyoqlar va gavda zarba xarakatini boshlab beradi, raketka ushlagan qo'l yakunlaydi. Uzatuvchining tana a'zolari quyidagicha ketma-ketlikda: oyoqlar va gavda, keyin yelka, bilak, va oxirida raketka tutgan kist zarba xarakatiga kirishadi. Raketkani to'pga chiqarish va "petlya" xarakati, to'pga zarba urish bilan bir vertikal tekislikda amalga oshiriladi. To'p uzatishni eng muxim ma'suliyatli momenti – bu bevosita to'pga zarba urilishi momenti hisoblanadi. Tennischi, yuqoriga to'la cho'zilib turib, butun gavdani birozgina oldinga o'ziga xos "tashlagan" xolatda, to'pga keskin qamchisimon zarba uradi. Raketka tutgan qo'l, gavda tayanch oyoq yuqori chekka tomoni bir oz oldinga egilgan bir chiziqni tashkil qiladi. Kist faol xarakat qilib, zarba momentiga bilaklarga yetib oladi va o'zinig keskin xarakati bilan to'pni uchish yo'nalishiga mos ravishda raketkaga qo'shimcha tezlik qo'shilishiga yordam ko'rsatadi. Raketka to'pni ura turib tezda to'p uchish yo'nalishi bo'yicha xarakatini davom ettiradi (20-rasm). Qo'l raketka bilan oldinga xarakatlanadi, kist faol

ishlagan xolda raketkani burash (*pronasiya*) xarakatida ishtirok etadi. To'p uzatishdagi xarakat strukturasi samaradorligida quyidagi faktorlar xal qiluvchi rol o'ynaydi: raketkani ushlash (*xvat*), to'pni tashlash, va koordinasion zanjirni maqsadga muvofiq ishlashi.



16-rasm.

To'p uzatish samaradorligidagi ko'pgina to'sqinliklar rayetkani noto'g'ri ushlash(*xvat*) bilan bog'liq. To'p uzatishda raketka ushlash xuddiki chapdan zarba berishdagi kabi universal yoki g'arbona bo'lishi kerak. Faqat shunday tutishlardagina to'p urayotgan qo'lni bilak bo'g'inlari optimal tartibda ishlay oladi. Ochiq xoldagi raketka tutishda (*xvat*) zarba urishda kist xarakati chegaralanib va bo'linib qoladi. Bunday tutishda tekis va aylantirilgan to'p uzatishlarda raketkani to'pga urish nuqtasi to'pni gorizont al o'rta chizig'idan pastda bo'lib qoladi. (16-rasm). To'pni uzatish kvadratiga tushish trayektoriyasini saqlab qolish uchun raketka bilak bilan birga pastga qarab sirg'aladi, va shu bilan to'pni raketkadan urilib uchish nuqtasini ancha pastlatib yuboradi. Bundan tashqari zarba kuchini

bo'linib yoyilib ketishiga sabab bo'ladi. Bular xammasi uzatish maydonini va zarba quvvatini yo'qotilishiga obyektiv ta'sir ko'rsatadi. Tennisni yetakchi mutaxassislari to'p uzatishni o'rgatishda sharqona (*xvat*) tutishdan boshlash kerak va asta sekinlik bilan universal va g'arbona (*xvat*) tutishga o'tish kerak deb hisoblashadilar.

Bo'ylari baland bo'lmagan tennischilar to'p uzatishni raketkani noto'g'ri tutish (*xvat*) bilan bajarib, to'pni baland osilib uchadigan trayektoriya yo'nalishida uradi, tabiiyki, bu to'pni uchish tezligini anchagina pasaytiradi. Yuqori malakali baland bo'yga va kuchli keskin zarbaga ega bo'lgan tennischilar xam, to'p uzatishda noqulay raketka tutishdan (*xvat*) foydalanishi natijasida o'zlarini to'p uzatishdagi samaradorligini yo'qotishi mumkin.

To'p tashlash va urish nuqtasi xam katta ahamiyatga ega. To'pni ortiqcha baland tashlansa, to'pni yetarli urish nuqtasiga tushishini kutishga, ko'pincha zo'riqqan pozada kutishga to'g'ri keladi (17-rasm).



17-rasm.

Zarba urish nuqtasi past bo'lsa, kordinasion zanjir ishini buzilishiga sabab bo'ladi.

Yana V.A.Golenkoni xisoblari shuni ko'rsatmoqdaki, o'rtacha bo'yli uzatuvchida to'g'ri tekis to'p uzatishda urish nuqtasi bir santimetrga yuqori bo'lsa, uzatish maydonidagi "mo'ljal" uzunligiga o'n santimetr qo'shiladi.

To'pni chaproqqa tashlanishi, gavda xarakatining kuch vektori chap yonboshga qarab ketadi, va bu raketkani tezlanish olib to'pga zarba urishida samara bermaydi.

Oldinga uzoqroqqa tashlangan to'pni urishda faqat amalda bitta qo'lni o'zi bilan bajariladi. To'pga cho'zilib zo'rg'a yetishi sababli kist bilan to'pni keskin bosib kerakli yo'nalishga o'zgartirib bo'lmaydi.

To'pni tashlashni eng qulay optimal darajasi to'pni urish nuqtasidan birnecha santimetr yuqorida bo'lishi lozim, yuqoriga tashlangan to'pni kortga tushish nuqtasi, orqa chiziqdan 25 santimetr ichkarida, uzatuvchini o'ng yelkasi ro'parasida bo'lishi kerak.

Tennisda birinchi uzatishda uning xarakteri to'laroq namoyon bo'ladi: tekis va turli aylanma xarakatdagi - aylanma(parron) xarakatli yoki kesilgan uzatish. Xar-xil to'p uzatishlarda zarba urish paytida, to'pni uchishi va sapchishigan qarab raketkani to'p bilan bog'liq kontaktdagi xarakati turlicha bo'ladi. Lekin doimo quyidagi asosiy qonuniyatni unutmaslik kerak: "kuch bu massani tezlikka ko'paytirilgan xosilasidir".

Tennischini tanasida butun massasi bilan to'plangan moment kuchini raketka orqali 60 grammligi to'pga o'tkazish uchun, raketkani xarakat tezligi xal qiluvchi omil bo'ladi.



18-rasm.


Tekis uzatishda raket-kani to'p bilan to'qnashadigan momenti suratga olingan. To'p raketkaga jipslashgani ko'rinmoqda, raketka egilishni boshlaydi. Keyingi laxzalarda to'p uchishni boshlaydi (18-rasmda), ko'rinib turibdiki, lekin raketka xamon egilgan xolatda xarakatni davom ettiradi. Yaxshi tasavvur qilish uchun, yengil atletikachini langarcho'p bilan balandga sakrashiga o'xshatish mumkin. Sportchi yugurib kelib energiyani jamlaydi, langarga tayanib uni bukadi, langar to'g'rilanib energiyadan xolos bo'layotgan momentda, sportchi oyoqlari bilan kuchli depsinib yuqoriga sakraydi, shu bilan u langar to'g'rilanishi va oyoqlar bilan yuqoriga oxirgi depsinish kuchlari rezonansini tutib oladi. Agar 18-rasmdagi xolatni yengil atletikachini sakrashi bilan solishtirsak, bu atletni yuqoriga sakragandan keyin, langarni xali bukilgan xolatidagi variantga o'xshaydi.

Egilib xarakatlanayotgan raketka, tarang tortilgan tori va unga jipslashgan to'pdagi elastik kuchdan foydalanish uchun, raketkani xarakat tezligini davom ettirish va bu tezlikni, raketka

va to'pni dastlabki to'qnashgandagi to'pni uchish tezligidan oshirish lozim. Faqat shundagina, kistni kuchlanish kuchi, raketka, uni tori va unga jipslashgan to'pni elastik energiyasi kuchlaridan xosil bo'lgan – rezonans kuchlarini to'pga o'tkazish mumkin bo'ladi.




19-rasm



20-rasm

To'pni uchish tezligi tekis uzatilgan to'pga nisbatan aylanma (parron) va kesilgan uzatishlarda anchagina past bo'ladi. Biroq ko'p xollarda bu uzatishlarda xam tennischilar bir qator afzalliklarga ega bo'lishi mumkin. Birinchidan, uzatish paytida to'p raketkani torli yuzasi bo'ylab sirg'alib boradi va shuni hisobiga to'pni uchishi uzoqroq cho'zilib nazoratda bo'ladi, hamda to'pni uzatish maydoniga tushish ehtimoli oshib ishonchliroq va aniqroq bo'ladi. Ikkinchidan, tennischi to'pni aylantirish darajasi va xarakterini o'zgartirib variatsiya qilib xar-xil taktik o'yin variantlaridan, kutimagan elementlar

kiritib, to'pni o'zgacha chopchishidan foydalanib raqibini qabul qilishini qiyinlashtirishi mumkin. Masalan, agar raketkani boshini yuqoriga-o'ngga xarakatlantirib to'pni aylantiruvchi parron xarakat berilsa, u duga xosil qiluvchi trayektoriya bilan yetarlicha balandlikda uchadi, biroq, to'p yerdan chopchigan paytda, raqibni chap tomoniga qarab burilib uchadi. Raketkani sirg'altirib to'pni o'ng tomoniga zarba urilsa, to'pni uchish trayektoriyasi chapga qarab buralib ketadi, yerga tegib chopchiganda, to'p yanada chapga qarab pastlab uchadi, va shu bilan raqibni maydon tashqarisiga chiqib ketishiga majbur qiladi.



21-rasm. Turli xil uzatishlarda to'pni uchish trayektoriyasi va yerdan sapchish yo'nalishlari:

- _____ tekis uzatish;
- aylanma uzatish;
- · - · - kesilgan uzatish;

Aylanma (parron) xarakatli to'p uzatishlarni yana bir qulayligi bor, ular bo'ylari uzun bo'lmagan va o'rta bo'yli tennischilar uchun samaralidir. Bunday bo'y bilan tekis to'g'ri to'p uzatishni muntazam ravishda aniq va kuchli bajarishni favqulodda iloji bo'lmaydi.

Muskullar apparati ishini va xarakatlarni rasional tuzilishi xarakterini o'rganib bilgandan keyin, qaysi gurux muskullarni zaruratiga qarab, rivojlantirishni muxim faktori bo'lgan turli xil mashqlarni tanlab foydalanish kerak. Bularsiz kuchli zarba urish xarakatini bajarishni iloji yo'q.

Tennisda zarbani kuchi ko'proq sportchi tanasini barcha muskullarini bir-biri bilan qanchalik ko'p kelishilgan, xamohang tarzda zarba xarakatida ishtirokiga bog'liq. Bunda, zarba xarakatida qancha ko'p tanani a'zolari faol bo'lib ishtirok etsa, zarba kuchi shunchalik ortib boradi. Tennis zarbalarini berishda ko'pgina gurux muskullarini o'zaro kelishuvda ishlashini takomillashtirishda samarali usul bu turli xildagi og'irliklar bilan xarakatlarni imitatsiyada bajarish.

Eng ko'p og'ir (*medisinbol*) to'pni uloqtirish mashqlari tarqalgan bo'lib, turli tennis zarbalari xarakatini imitatsiya qilinadi. To'p uzatish texnikasini takomillashtirish uchun *medisinbol*ni otish bir qo'lda aynan uzatishni oxirgi fazasidagi suratda bajariladi. Bu mashqni juftlik tarzda taxminan 5 metr oralig'ida bir-biriga otiladi, bir urinishda(*podxod*) mashqni 20-30 marta bajariladi.

Shuni e'tiborga olish kerakki, bu mashqdan foydalanishni boshlang'ich davrida tennis zarbalariga o'xshagan xarakatdagi usul bilan og'ir to'pni uloqtirishni bajarishda xato va katta kamchiliklar bo'ladi. Ular, to'pni tezlanish olishi tekis duga bo'ylab ketmasligi, oxirgi zo'r berishni to'p uchishi vektoriga mos tushmasligi, yana to'pni aylanib uchib uzoqqa bormasligi,

noaniq ketishi kabilardir. Shunga bog'liq ravishda, tennischini bazasidagi xarakterlarining bunday nomuofiqligi va kelishmovchiliklaridan, unda ko'pgina yashirin yetishmovchiliklar bor deyish mumkin. Qaysiki, ular tennischiga yuqori samarada raketkaga tezlanish berish va to'pga yo'naltirilgan zarba berish imkoniyatini chegaralab qo'yadi. Muntazam ravishda og'ir to'pni otish mashqi bilan yuqorida ko'rsatilgandek usulda shug'ullanib borish, bir oyda xarakterlarni dinamikasini maqsadga muofiqlashtirish garmonikasi va to'p uchishini samarali bo'lishini yaxshilanishida ko'rish mumkin. Bu maqsadda – to'p uzatish texnikasini takomillashtirishda, boshqa imitasion mashqlardan xam foydalanish mumkin, masalan: to'p uzatish xarakati usulida toshni uzoqlikka otish. Bu mashq xammadan xam, kistni rasional harakatini shakllantirishda samara beradi. Kistni kuchini va aniq ishlashini rivojlantiradigan juda yaxshi mashq bu - "Rubka toporom brevno" (*To'nkaga bolta urish*). Mashqni mazmuni shundan ibratki, 23-rasm tennischi to'p uzatish xarakati bilan;



23-rasm.

Aynan xarakatni yakunlovchi fazasida, "zamax"ni so'nggi nuqtasidan to'pni urish nuqtasigacha vaqtda, boltani o'tkir yuzasi oldinda osilgan to'nkani chopishdan iborat. To'nka zarbani kuchini so'ndirish uchun juda og'ir bo'lishi va tebranmasligi kerak.

Bolta o'rtacha og'irlikda, tennischilarni tayyorgarlik darajasi va kuchiga qarab, bir yoki ikki kilogrammgacha bo'lishi mumkin. Mashqni ko'p marta bajariladi, bir urinish (*podxod*)da qirqtagacha bajariladi. Bunda quyidagi vazifalarni yechiladi: birinchidan – boltani og'irligi ballistik nuqtai-nazardan noo'rin xarakatlarga imkon bermaydi, va urish pedmetini rasional chiziq trayektoriyasi bo'ylab tezlanish olishiga yordam qiladi. Yana, bu mashq to'p uzatish texnikasini to'g'ri suratda shakllantirishga ta'sir qiladi, hamda kistni aniq ishlashiga yordam ko'rsatadi. Boltani o'tkir tig'ini daraxtni kesish momenti, aynan vaqti va xarakteri bo'yicha uzatish paytidagi to'pni urib kuchaytirish momentiga mos keladi. Bu mashqni og'irlik bilan ko'p martalab qaytarish, ushbu dasturni bajarishga moslashgan muskullar guruxini jalb qilib saralash uchun yordam qiladi.

Ko'pincha tennischilar tekis-to'g'ri to'p uzatishni takomillashtirish jarayonida, raketka yuzasini to'pga urish nuqtasiga olib chiqishda, o'zlari uchun urish nuqtasini optimal darajasini aniqlashga qiynaladi. Bu muammoni yaxshi yechimi sifatida quyidagi mashqni ko'rish mumkin, osilgan tennis to'piga uzatish xarakatini imitatsiyasini bajarish lozim. Bunda tennis to'pi gorizontal tortilgan rezinaga boylanib, iloji boricha balandlikda, qaysiki, tennischilarning zarba berishda raketka yuzasini tepa qismi bilan cho'zilib yetish imkoni bo'lishi lozim (23-rasm).



23-rasm

Bu mashqda osilgan to'pga nisbatan, to'pni yerga tushgan vertikal proyeksiyasi tennischini o'ng oyog'idan bir qadam oldinda bo'lishi kerak. Raketka tekis zarbani to'pga yuqoridan sekin urib bajarishi kerak, agar to'pni soat millari deb faraz qilsak, taxminan kun vaqtini ikkiyarimlariga to'g'ri mos keladigan xolatda to'pga urish lozim. To'p albatta vertikal tortilgan rezinaga osilgan bo'lishi shart, aks xolda raketkani aytilgandek vertikal osilgan to'pga urishni xoxlasakda, raketka yuzasini yuqori qismi bilan urishni bajarib bo'lmaydi. Unda mashqni foydali baxosi buziladi, bu mashq xarakter aniqqligini kuzatib boshqarishga imkoniyat yaratadi.

Kist xarakterini, kesilgan to'p uzatishda, rivojlantirib takomillashtirish uchun juda samarali mashq, bu "spisadagi to'p" trenajyorida bajariladigan mashqlardir (24-rasm).



24-rasm

Bu mashq quyidagicha bajariladi: Chap qo'l bilan oldinga-yuqoriga cho'zilgan xolda spisani ushlab turiladi, spisani uchiga bir tekislikda aylanadigan tennis to'pini (*yoki diametri teng g'altak bo'lishi mumkin*) teshib bog'lanib maxkamlangan, o'ng qo'l bilan to'p uzatish "zamax"ini ohirgi fazasidagi xolatda raketka bilan to'pga sirg'anuvchi zarba urib, to'pni aylantirib kerakli yo'nalishni beradi.

Kesilgan zarba xarakterini rivojlantirib ishlov berish uchun to'pni yonboshdan aylantiriladi, "spisadagi to'p" yuqori-oldinga-o'ngga ko'tariladi.

Aylantirilgan (parron) zarbada raketkani yuza tekisligi to'pga sirg'alib pastdan yuqoriga-oldinga qarab xarakatlanadi, "spisadagi to'p" zarba uchun boshni tepasida, chap yelkaga yaqinroq, boshqa tekis va kesilgan uzatishlarga nisbatan pastroq xolda bo'lishi lozim. Mashqni bir urinishda(*podxod*) 30-40 marta bajariladi, agar kortda kesilgan va aylanma (parron) xarakatli to'p uzatish mashg'ulotlaridan oldin, trenaj-yorda mashq ishlansa maqsadga muvofiq bo'ladi, yoki almashlab "spisadagi to'p" trenajyorida imitatsiya 30-40ta zarba

+ kort maydonida 20-30 ta to'p uzatishni bajarish kerak.


Zamonaviy tennisda professional tennischilar to'p uzatishni sakrab bajarishga odatlanishmoqdalar. Demak buning uchun, ular tanasini tayanchsiz muallaq xolda boshqarishni takomillashtirgan bo'lishi kerak.

To'p uzatish paytida ular kort yuzasidan depsinish jarayonida energiyani olib, to'pga zarba urish jarayonida energiyani to'pga o'tkazib so'ndirib, keyin yerga bo'sh xolda tushish kerak. O'z tanasi og'irlik markazini boshqarishni gimnastika snaryadlarida: to'sin (turnik) va parallel to'sinchalar (bruslar)da yaxshi o'zlashtirish mumkin. Oddiy mashqlar: bruslarda qo'llarda tayanib turganча tebranish, unча baland bo'lmagan turnikka sakrab ushlab-tebranish va max qilib uzunlikka tashlash kabi mashqlar anchagina sezilarli natija beradi.

Yuqorida sanab o'tilgan mashqlardan, va juda ko'p boshqalaridan ham o'zbek tennischilarimiz kam foydalanadilar. To'p uzatish xarakati o'ziga xos bo'lib, insonni oddiy xayotiga mos emas. Shuning uchun bu xarakatni bajarish uchun aloxida muskullar kompleksi tanlanib, takomillashtirish jarayonida ularni individual ishlarini muvofiqlashtirib garmonik xolga keltiriladi. Maxsus mashqlarsiz, shu jumladan yuqorida sanalgan mashqlarsiz bu muammoni yechish qiyin. Samarali to'p uzatish uchun umumiy jismoniy tayyorgarlik xam kerak, kuchli yelka, bel va oyoqlar zarur bo'ladi. Uzatish tennisdagi eng muxim elementlardan biri, uni takomillashtirish uchun bir kunda biryarim soatdan kam bo'lmagan vaqt ajratilishi lozim. Nafaqat mo'ljalga uzatish uchun, u shunga loyiq.

2.4. To'r oldiga chiqib zarba berish texnikasi

To'r yonida o'yinning asosiy texnikaviy usullari bu parvozdagi uchayotgan to'pga zarba berishdir. To'rga chiqish aslida xujum kombinasiyasini yakuniy qismi bo'lsada, zarba bajarilishini murakkabligi unga tayyorgarlik bilan bog'liq, bunga sabab vaqtni yetishmasligidir. Taxlillar shuni ko'rsatmoqdaki, to'r yonida pozisiyani egallagan tennischini ixtiyorida zarbaga tayyorlanish uchun fursati 0,1 sekunddan oshmaydi. Vaqtni qisqaligi ko'pincha zarba texnikasini asosiy omillari va parametrlarini aniqlaydi. Birinchi navbatda bu o'ng va chapga zarba berish uchun universal raketka tutishdan keng foydalanish imkoniyatidir. Parvozdagi to'pga zarba berish texnikasida zarba berish nuqtasini balandligi xam katta ahamiyatga ega. Raqibni uncha tez bo'lmagan noilojdan qaytargan baland to'plarga, to'r oldiga chiqqan tennischiga kuchli yakunlovchi zarba berish uchun rasional raketka tutishni tanlash imkoni bo'ladi. Lekin orqa chiziqda turgan tennischi aylanib o'tuvchi zarba (*obvodka*) bilan xujumga o'tishga majbur, bunday xollarda to'rga chiqqan o'yinchi to'pni o'rta yoki pastki nuqtada tutib olish uchun tayyorlanishi kerak. O'rtacha balandlikdagi to'pga, odatda to'r ustidagi nuqtada kuchli tekis zarbadan foydalanish mumkin, bunday xollarda samarali javob bo'lish uchun aylanib o'tuvchi to'pni uchish tezligi xam yordam qiladi. Bunda qattiq konstruksiyali to'suvchi (*tana, qo'l va kistni maxkam tutib to'pga dinamik xarakatda chiqish*) zarbadan foydalanib to'pni maydonni himoyalanmagan qismiga yo'naltirish kerak. Ushbu xolatda raketkani qaytarib shaylanish (*zamax*), fursatni boy berish, raketkani to'pga olib kelishni murakkablashtirishga, butun koordinasion zanjirni buzilishiga olib keladi.



25-rasm

Biroq, D.Mayl va M.Krespolarning "Учебник передового тренера" kitobida keltirilishicha, bunday yondashuvni pofessio-nal o'yinlar to'g'risida gap ketsa, qaytadan ko'rib chiqish kerak bo'ladi. Avtorlarning xulosasi: "murabbiylar boshlang'ichlarga o'rgatayotganda raketkani qaytarib shaylanganda (*zamax*) yelkadan orqaga o'tmasligi kerak deb davom etishi mumkin. Ilg'or yosh tennischilarga, ayniqsa to'p uzatishdan keyingi bo'ladigan birinchi parvozdagi to'pga zarba berishda, raketkani qaytarib shaylash (*zamax*) dugasini ozgina uzaytirishiga ruxsat bor". Maxsus izlanib-o'rganishlar davrida parvozdagi to'pni o'ynaydigan yuqori klassli barcha tennischilar, to'pni gavdasidan oldinda urish imkoniyatiga ega edilar, deb yozadilar.

Parvozdagi to'pga pastki nuqtada zarba berish ancha murakkabroq sanaladi. Pastki nuqtadan parvozdagi zarba berishni o'yin mahorati to'pni yuqori ko'tarmasdan o'ynashlikda ko'rinadi. Parvozdagi to'pga zarbalar yakunlovchi va tayyorlovchi sifatida ajratiladi. Yakunlovchi zarba yordamida to'pni raqib yetolmaydigan qilib jo'natishga harakat qilish kerak,

ikkinchisida esa – iloji boricha raqibni to'pni qaytarib, aylantirib o'tuvchi zarba berish imkonini murakkablashtirish kerak. Ikkinchiga ko'proq pastki nuqtadan zarba berishlar kiradi, odatda bu zarbadan to'pni tezdan qaytarib "o'ldirish" imkoniyati aniq bo'lmagan xolatda foydalanishga to'g'ri keladi. Tayyorlovchi parvozdan zarbani asosiy afzalligi shundaki – uni uzunligi va pastligi, to'pni yotiq chopchishi bilan qarshi xujumga o'tib aylanib o'tuvchi (*obvodka*) zarba berishni qiyinlashtiradi. Pastki nuqtada ko'pincha aylanma xarakatli (*parron*) zarba bilan kutib olishga to'g'ri keladi.

To'rga chiqishni provard maqsadi – parvozdan yakunlovchi zarba berish. Yakunlovchi zarbani samarasi birinchi navbatda to'pni qanchalik yuqorida va to'rga yaqinlikda kutib olishga va tutishga bog'liq. Parvozdan yakunlovchi zarba berish uchun eng qulay nuqtaga, maksimal tezlikda oldinga harakatlanish va davomida kerak bo'lsa zarur tomonga sakrash bilan erishiladi. Bunday murakkab zarbani takomillashuviga yetishish shunda mumkinki, tennischi kombinasion o'yin jarayonida javob zarbani yo'nalishini oldindan sezib, raqibi raketkasidan to'p uzilishi bilan to'pga tashlanish xarakatini boshlashi lozim. Faqat shu xoldagina, qattiq koordinasion zanjir orqali xech qanday raketkani shaylovisiz (*zamax*), tashlanishning kuchli energiyasi to'pga o'tadi. To'r yonida o'ynashning takomillashtirishni muammosi shundan iboratki, bu jarayonda absalyut ko'p vaqtни parvozdagi to'pga, odatda joyda turib zarba berishni takomillashtirishga ajratiladi. Bu mashq - "biri to'r yonida turib, ikkinchisi kortning orqa chizig'i tashqarisida", bu zarbani bajarish bor-yo'g'i bir bo'lak-fragment, texnik murakkabligi va vaqt jixatidan ahamiyati ozroq bo'lgan to'r oldidagi o'yinning bir bo'lagi xolos. Kvalifikasiyalı tennischilarni musobaqadagi o'yinlarini chuqurroq taxlil qilinsa ko'rinadiki, juda ko'p to'rga

chiqish bilan bog'liq ochko yutishni natijasi, qaror qabul qilish momenti bilan aniqlanadi – oldinga harakat qilish va parvozdagi to'pga o'ynash. Risolada to'r yonida o'ynaganda odatda bitta zarba xal qiluvchi yoki ikkita zarba, juda kamdan-kam uchta zarba bo'lishi mumkin. Ikkala tennischi ham, to'r yonidami yoki orqa chiziqda turganmi, birinchi tennischini irodasi tufayli o'yinda qaltis pozisiyada bo'ladilar. Noaniq yoki sekin uchayotgan to'p raqib istagan o'ljaga aylanadi, bunday xolatni o'z foydasiga xal qilish uchun katta mahorat yoki kuch talab etilmaydi. Orqa chiziqda o'ynayotgan tennischi yaqinlashayotgan xavfni oldini olish uchun, tavakkallik bilan raqibni aylanib o'tuvchi zarba (*obvodka*) bilan aldashga qaror qiladi. To'rga talpinayotgan tennischi, raqibidan oddiy javob bo'lmasligini bilgan xolda, to'pni iloji boricha to'rga yaqin va uning ustida kutib va tutib olishga xarakat qilishi kerak. Agar u kerakli joyga yugurib yetib olishga qodir bo'lsada, bu bo'lishi mumkin bo'lgan turli variantlardagi barcha zarbalarni (*obvodka*) to'sish imkoniyatiga ega degani emas. Albatta to'rga chiqqan tennischini irodasigina o'yin situatsiyasi va raqiblarni resurslarini, ssenariyni rivojlanishini to'g'ri aniqlab, raqibni aldovchi (*obvodka*) zarba tanlashini yo'qqa chiqarishi mumkin. Shuning uchun xam birinchidan va ko'pinchalik xam to'rga chiqishda asosiy xatolik xujumni boshlash momentini tanlash paytiga to'g'ri keladi. Tennischi xujumga o'tishga qaror qilishi bilanoq intuisiyalar olamiga tushib qoladi. Ya'ni, to'rga chiqishga qaror qilishni o'zi xam intuitiv holda bo'lishi kerak desak to'g'riroq bo'ladi. Xuddi yirtqich kabi o'z o'ljasini qattiq poylab nishonga olishi, kutilayotgan situatsiyani xis qilgan xolda, xujumga tashlanishi, va xuddi samarali xujumini baroridan kelishini sezib bilgan tennischi kabi faol xarakatga kirishishi lozim. Oldinga xarakat va keyin – xammasi intuitiv ravishda tuzilgan

dinamik stereotipdagi silliq xarakatlardan foydalanish. Fikrlab qaror chiqarish uchun bu joyda vaqt yo'q. Parvozdagi to'pga zarba berish texnikasini o'rgatishni chopchigan to'pga va to'p uzatish zarbalari bilan bir vaqtda boshlash kerak. Qachonki bu usulni texnikasini elementar o'zlashtirilgandan keyin, murakkabroq mashqlarga o'tish mumkin: to'rga chiqishga tayyorlovchi zarbadan parvozdagi to'pga o'yinga o'tish, shuningdek aylantirib o'tuvchi zarba(*obvodka*)ga javob qilish, raqibni kutilmagan yo'nalishdagi zarbalarga o'tish. Bu mashqlar bilan ishlaganda tennisni juda murakkab reaksiyalarini takomillashtirishni nazarda tutiladi. Reaksiyalar ikki turga oddiy va murakkablarga bo'linadi. Yuguruvchi-yengilatletikachini startdagi reaksiyasi – oddiy reaksiyaga misol. Yengil atletikachi oldindan aniq biladi, qaysi signalga bo'ysunishni, va qaysinisiga aniq javob qilishi kerak bo'ladi. Tennisda va yana juda ko'p sport o'yinlarida ham bularning xammasi anchagina murakkabroq. Raqib qanday o'ynaydi, u to'pni qayerga va qanday yo'naltiradi – xar safar bu jumboqki, uni na faqat topib olish, unga zudlik bilan reaksiya bildirib javob izlash kerak. To'r oldida turgan tennischini, raqibi yon chiziq bo'ylab to'g'ri zarba, yoki aylanma xarakatli yonbosh zarbalar bilan, yuqoridan tashlab(*svecha*) aldab o'tishga xarakat qiladi, kamdan-kam xollarda oyoqlar tagiga – to'r o'rtasidan qisqartirilgan zarba bilan yo'naltiradi. Shuning uchun to'r yonidagi tennischining reaksiyasini uchmurakkabli va to'rtmurakkabli deb ataladi. Birinchi navbatda xuddi shuni rivojlantirish kerak. Katta tajribali buyuk mutaxassislar ogoxlantiradi – reaksiyani birmurakkabli va ikkimurakkabligini rivojlantiruvchi mashqlar: to'r yonida bir-biriga parvozdagi to'pni faqat oldindan kelishgan yo'nalishda o'ynash; yoki to'r oldidagi o'yinchini faqat past to'g'ri va yonbosh aylantirib o'tuvchi zarbalarnigina o'ynab,

yuqoridan tashlanuvchi(*svecha*) zarbalarni inkor qilishi, va ulardan ko'pincha va uzoq vaqt foydalanish, to'rda o'ynaydigan tennischiga zarur bo'lgan uchmurakkabli va to'rtmurakkabli reaksiyasini o'tmas bo'lishiga ta'sir etadi. Robert Lansdorp – Janubiy Koliforniyalik afsonaviy murabbiy, qaysiki Linsdey Devenport, Pit Sampras kabi va juda ko'p jahon miqyosidagi yuqori klassdagi professional o'yinchilarni tarbiyalagan, shunday degan edi: - "Juda ko'p zamonaviy o'yinchilar, ular buni tuzatishlari uchun, ularga professional tennischilar texnik xatolarini aytishlarini xoxlaydilar, va ular keyin o'ylardilarki, xammasi binoyidek chiroyli. Agar bularning xammasi xaqiqatda bo'lgandami, unda olamda qanchalar ko'p professionallar o'sgan bo'lar edi-ya! Agar Siz, eng yaxshi texnikali bo'lgani uchun, Maykl Jordan doimo eng zo'r basketbolchi bo'lgan deb o'ylasangiz, unda Siz mutlaqo noxaq bo'lasiz. Uning o'yinni xis qilishi, to'p tashlash va o'yin situasijasini sezish qobiliyati ko'p o'yinchilarga namuna bo'la oladi. U bu xissiyotlarni uzoq soatlab mashg'ulotlar natijasida rivojlantirgan, aytish joizki, bu zerikarli va jonga teguvchi mashg'ulotlardir!". O'yin situasijasi va to'p tashlashni xis qilish deganda, o'ylashimiz kerakki, Robert Lansdorp kuyidagini: ko'p soatli mashg'ulotlar va musobaqa o'yinlari natijasida o'zlashtirilgan avtomatik bajariladigan va ekstrapol-yasion xarakatlarni (*xarakatlar ketma-ketligini uyg'unlashuvini*) nazarda tutgan.

Yosh yetakchi o'zbek tennischilarini to'r oldidagi o'yinlarini taxlil natijalari shuni ko'rsatdiki, parvozdagi to'pga zarba berish texnikasi, maxsus mashqlarni bajarish jarayonida ko'pincha qoniqarli darajada. Lekin musobaqa o'yinlari davrida ularning ko'pchiligi to'r oldiga kam epizodik xollarda chiqadilar, shunda xam pozision zarurat tufayligina. To'r oldiga ko'proq chiquvchi tennischilarni to'p yutish foizi baland emas, taxminan yutqazish

foizi bilan teng. Bu ko'rsatgichlar o'yinni qiyin momentlarida oldinga xarakat qilish uchun rag'batlantirmaydi. To'r oldida o'ynashdan qochadigan o'yinchilarda bu ko'rsatgichlar undan xam past darajada. Balkim oldingi uchrashuvlarni achchiq tajribasi ularni parvozdagi to'pni to'r yoniga chiqib o'ynashdan qochishga undayotgandir. Bu achchiq tajriba yillar davomida ularning ishonchida yig'ilib o'tib bormoqda va keyingi yosh guruxlarida yanada murakkab tus olmoqda.

Robert Lansdropning aytganlaridan shunday xulosa chiqarish mumkin, aloxida usullarni texnikasini to'g'ri bajarishni bilishning o'zi yetarli emas ularni avtomatik darajaga yetkazish kerak, o'zining jismoniy va ruxiy imkoniyatlariga mos ravishda individuallashtirish kerak. Musobaqa o'yinlarida, o'rganib, o'zinig ishlangan xarakatlarini aloxida ochko o'ynalayotgan jarayonda o'yin situasiasiga tatbiq qilib, samarasini ko'rishi, ishonch xosil qilishi va ularni sevishi kerak. Va ularni darrov zudlik bilan tatbiq qilib, o'ylanmasdan, o'yin qizishgan paytda, yutug'iga ishonch bilan xarakat qilish kerak.

Shunday qilib, to'r oldida o'yinni turli xildagi xamma shakllari, zarur bo'lgan maxsus jismoniy, ruxiy va texnik komponentlari faqat musobaqa uchrashuvlari jarayonida takomillashtirilib boriladi. Bizning o'rganishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, ko'pchilik tennischilar to'rga chiqib o'ynashdan qochmoqdalar. Umuman buni shunday izoxlash mumkin, yosh yetakchi o'zbek tennischilarini to'r oldida o'yin yuklamasi yetarlicha emas, nostabil va samarasiz o'yin yuritishidan deb bilish kerak.

Bu xolatni tuzatish uchun, ko'p sonli tennis bo'yicha o'quv qo'llanmalarida yozilgan to'r oldida o'yinni takomillashtirishni an'naviy usullari bilan bir qatorida, to'r oldida o'ynashni musobaqa tajribasi yuklamasini sezilarli darajada oshiruvchi quyidagi mashqlarni tavsiya qilish mumkin.


To'rt yonida o'yinni takomillashtirishda ko'p komponentli uslubiy sxemadagi asosiy trenirovka mashqlarini asli ma'nosi musobaqa xarakteridagi maxsus vazifa bilan hisobga o'ynashdan iborat. Vazifani bajarayotgan o'yinchi raqibini oshirgan to'plarini kortga tushirmasdan qaytarishi kerak, ya'ni, to'p uzatishdan tashqari xamma to'plarni parvozdan o'ynashi lozim. Agar to'p o'z tomonidagi kortga tegsa u ochko yutqazadi, raqibi bo'lsa hech bir cheklovlarsiz qanday qulay bo'lsa shunday o'ynaveradi. Bu mashqlar, boshqa maxsus mashqlar jamlanmasi bilan birga xar kuni tatbiq qilinadi. Bir set o'yin yuklamasi xisobida bajariladi.

Maxsus takomillashuvni dastlabki davrida ushbu mashqlarni bajarish uchun asosiy o'yinchiga sherigini biroz kuchsiz darajadagi, lekin yumshoq bo'lsada, orqa chiziqdan muntazam xatosiz zarba beradigan o'yinchini tanlash kerak. Agar o'yin boshlanishidan istalgandek bir o'zakda tekis ketmasa, raqibi aylantirib o'tuvchi zarba (*obvodka*) bilan ko'proq "aut"ga, yoki to'rga urib, parvozdagi to'pni urish mashqidagi zarbalar soni kamayib ketsa, unda qo'shimcha vazifalar joriy qilish kerak. Misol, raqib-sherigi zarba berishda to'rga yoki "aut"ga urgani uchun jarimaga besh marta "kenguru" sakraydi, sharoitni tenglashtirish uchun asosiy mashq bajarayotgan tennischisi xam xato qilsa, u xam shuncha jarima sakraydi. Shundan keyin, odatda berilgan vazifadagi o'yin qiziqarliroq va zarbalar soni ko'payib mashg'ulotni zichligi ortadi.

Bu mashqlardan kutiladigan samara – bu yaxshi o'rganib uqilgan, raqibini xarakatiga zudlik bilan reaksiya qilib musobaqa sharoitida aniq to'rga chiqib o'ynashni o'rganish va o'zlashtirishdan iborat.

2.5. O'ng va chapdan zarba berishga orgatish

Tennisda zarba aniqligini takomillashtirish, vaqt va muhitda o'z harakatlarini boshqara olish qobiliyatini hamda o'z kuchini me'yorda ushlashni rivojlantirish bilan bo'g'liq. Bu esa o'z navbatida, vaqt va muhitda analizator hisoblangan ko'rish va eshitishdan tashqari "qorong'u" mushak sezuvchanligini rivojlantiradi. Bu qobiliyat, sportchining texnik harakatlarini turli tomonlarini ya'ni oddiy mashqlardan tortib barcha mashqlar natijalarini doimiy nazorat qilish kabi boy harakat tajribasiga tayanadi.



26-rasm

Mashg'ulotlardan muntazam shug'ullangan, bu sport takomillashuvi bosqichining boshlang'ich davriga to'g'ri keladi. Bu davrda tennischining bajarayotgan har bir zarba ta'siri shakllangan bo'ladi, lekin o'yin jarayonida sharoitni doimiy o'zgarib turishi, turli kutilmagan holatlarni keltirib chiqaradi. Kutilmagan vaziyatlardan, faqat o'z kuchiga ishongan, takomillashgan texnikaga ega "dynamik stereotipi" mustahkam irodali, sezgi organlari orqali keluvchi "qarshi" signallari

bo'yicha harakatlarini avtomatlashtirib boshqaradigan sport-chilargina chiqib kela oladilar.

"Dinamik stereotip"ni shakllantirish va rivojlantirish uchun mashg'ulot devori eng muhim trenajyor hisoblanadi. Mashg'ulot devori eng ishonchli va doimo tayyor sherikdir.

Ularning asosiy xususiyatlari, devordan qaytadigan javobni o'yinchi oldindan biladi hamda o'z harakatlarini to'g'irlash uchun eng qulay sharoit yaratadi. Devorda ishlayotganda "dinamik stereotip" mustahkam shakllanishi uchun, har bir zarbani ko'p marta takrorlash (o'n ming martagacha) imkoniyati yaratiladi.

Devor turlicha bo'ladi, oddiy, stationar, toshli, yog'ochli hamda egilish burchagi turlicha bo'lgan plastic paneldan yig'ilib ochiladigan, qovurg'ali, porolom yuzali yoki mayda yacheykali to'r tarang tortilgan devorlar. Agar oldindan bilish mumkin bo'lmagan sherikka zaruriyat sezilsa, unda devor notekisligini qovurg'ali devorga aylantirish mumkin. Mashg'ulot devoriga nishon belgisi qo'yilgan bo'lishi shart.

Bizning sharoitda ko'pincha, statsionar – beton blok, g'ishtli yoki yog'ochli tekis yuzali devordan foydalaniladi. Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqib quyidagi mashqlarni sanab o'tamiz:

1. O'ng va chapdan sakrab ko'tarilgan to'pga burama zarbalarni takomillashtirish.

Buning uchun tennis to'rini anglatuvchi devorga belgi qo'yilishi shart. O'ng va chapdan sakrab ko'tarilgan to'pga burama zarbalarni bajarish uchun ajratilgan 30 daqiqa vaqt, tennischini burama zarba texnikasini mustahkam shakllantiradi. Devordagi nishonga aylanuvchi burama zarbalarni amalga oshirish darajasini differensial his qilishni rivojlantirish uchun, nishonni shartli tennis turidan 50 sm dan 3 m gacha

ko'tarish lozim. Devor bilan tennischi orasidagi masofani 3-5m dan 15m gacha o'zgartirish mumkin. Mashqni o'zgartirib turish, tennischiga uchayotgan to'pning burilish trayektoriyasini boshqarishga yordam beradi.

2. O'ngdan va chapdan sakrab ko'tarilgan to'pga kesma zarbalarni amalga oshirishni takomillashtirish.

Kesma zarbani asosan, to'pni bel darajasida qabul qilib, uni shartli tennis turidan 20-30sm yuqorida joylashgan nishonga yo'naltirib bajarish maqsadga muvofiq. Shuningdek, kesma zarbani shartli tennis to'ridan 3-4m yuqorida joylashgan nishonga yo'naltirib burama zarba bilan navbatlashtirish mumkin. Bunda zarba yuqori nuqtadan bajarilishiga erishish lozim.

3. Sakragan to'pga turli zarbalarni navbatlashtirib zarba berish.

O'ndan va chapdan burama zarbalarini navbatlashtirib amalgam oshirish. O'ngdan baland burama, chapdan kesma zarba va hokazo. Imkoniyat darajasidagi barcha zarba variantlarini o'zgartirish, sakrab ko'tarilgan to'pni o'ynashda to'pni to'liq his etishni rivojlantiradi.

4. O'ngdan va chapdan uchib kelayotgan to'pga podsechka zarbasini takomillashtirish.

Tennischi va to'r orasidagi masofani 3m dan – 5m gacha o'zgartirish.

5. Bosh ustida – "smesh" zarbasini takomillashtirish.

Tennischi devordan 5-7m masofada turib, to'rdan bir metr uzoqlikda yerda joylashgan nishonga bosh ustidan zarba beradi. To'p devorga urilgandan (rikoshet) so'ng, tennischi tominiga baland ko'tariladi. O'z navbatida tennischi yana boshi ustida zarbani amalgam oshirib to'pni o'sha nishonga yo'naltiradi. Sikl ko'p marta takrorlanadi. Ritmni buzib ancha kuchli zarba berish

ham mumkin. Bunday holatlarda to'p yana ham balandga va uzoqqa boshdan orqaga ko'tariladi va tennischi orqaga yurishga majbur bo'ladi, hamda cho'zilgan to'rdan 1m balandlikda joylashgan nishonga sakrab, tartibli zarba bajaradi. Devorda "smesh" mashqlarining davomiyligi bir mashg'ulotda 15 daqiqadan oshmasligi kerak. Aks holda yelka mushaklariga berilayotgan yuklama ortib ketadi.


2.6. Burama zarba berish texnikasi

Tennis zarbalarini asosida quyidagi prinsip yotadi – maksimal energiyani yig'ishva shunga mos koordinasion zanjir orqali tezlik va massani o'zaro bog'liqligini xisobga olib, to'pga maqsadga muvofiq ravishda unumli va kerakli xarakterdagi zarbani berish. Zarbaga shunday chiqish kerakki, zarba oldidan oyoqlarni joylashuvi, (27-rasm) to'rdan uzoqda turgan oyoqdan to'rga yaqin oyoqlarga qarab xarakatlanayotgan gavda massasi energiyasini oldinga o'tkazishga imkon yaratishi. to'pni uchish trayektoriyasi yo'nalishi bo'yicha uzatilishi kerak.




27-rasm

Juda ko'pchilik yuqori klassdagi zamonaviy tennischilar o'ngdan zarbani ochiq xolatda turish bilan bajaradilar, ya'ni zarba paytida ularning yelkalari ochiq va to'rga parallel xolatda bo'ladi. Zarba yakunida urayotgan qo'lning tirsagi yuqoriga ko'tarilib, raketka chap yelka ustidan o'tib ketadi. Bu xolatda qo'shimcha ravishda tanani son yoki bel atrofida aylanishidan hosil bo'ladigan moment kuchidan foydalaniladi. Balkim bu harakat golfchilarnikidan olingangandekdir, xar qalay ushbu harakat klyushka bilan zarba berishga juda o'xshaydi. Lekin golfda tik turib uriladi. Tennischilar ochiq turish bilan urayotganida, chiziqli moment kuchi va aylanma xarakatdan bo'ladigan burchakli moment kuchini birlashtirib zarba yo'nalishiga uyg'unlashtirishi lozim. Bizning tennischilarda xar doim xam bunday bo'lavermaydi.



28-rasm

2.7. Qisqa zarba berish texnikasi



29-rasm

1. Chiziq bo'yicha sakrab ko'tarilgan to'pga zarbalar. Tekis, kesma, trayektoriya balandligi turlicha bo'lgan burama zarbalar. Maydonda turli maqsad bo'yicha bajariladigan zarbalar. Maydonda turli maqsad bo'yicha bajariladigan zarbalar:

a) ikkala o'yinchi orqa chiziqda joylashgan nishon bo'yicha ishlaydilar;

b) ikkala o'yinchi to'pni o'yinga kiritish zonasida joylashgan nishon bo'yicha;

v) bir o'yinchi orqa chiziqda joylashgan nishonga, boshqasi esa to'pni o'yinga kiritish zonasidagi nishonga to'pni yo'naltiradi.

2. Diagonal bo'yicha sakrab ko'tarilgan to'pga zarbalar tekis, kesma, trayektoriya balandligi turlicha bo'lgan burama zarbalar. Maydonda turli maqsad bo'yicha bajariladi:

a) ikkala o'yinchi orqa chiziqda joylashgan nishon bo'yicha ishlaydilar;

b) ikkala o'yinchi to'pni o'yinga kiritish zonasida joylashgan nishon bo'yicha;

v) bir o'yinchi orqa chiziqda joylashgan nishonga, boshqasi esa to'pni o'yinga kiritish zonasida joylashgan nishonga to'pni yo'naltiradi.

3. Chiziq bo'yicha uchayotgan to'pga zarbalar.

a) A o'yinchi orqa chiziqda, B o'yinchi to'r oldida.

b) ikki o'yinchi ham to'r oldida.

4. Diagonal bo'yicha uchayotgan to'pga zarbalar.

a) A o'yinchi orqa chiziqda, B o'yinchi to'r oldida.

b) ikki o'yinchi ham to'r oldida.

5. "Uchburchak"

a) to'rga chiqish bilan.

b) qisqartirilgan zarbadan keyingi chalg'itish.

6. "Vosmyorka":

a) to'rga chiqish bilan;

b) qisqartirilgan zarbadan keyingi chalg'itish.

7. Turli o'yin holatlarida sparring – sherik bilan svechkalarni qo'llab "vosmyorka".

8. "To'r oldida uchburchak".

a) uchib kelayotgan to'pga chuqur – uzun javob zarbalari.

b) qisqartirilgan zarbani qo'llab.

9. Qisqartirilgan zarbani qo'llash sharti bilan orqa chiziqda "vosmyorka".

10. To'r oldida "vosmyorka".

11. To'pni o'yinga kiritish (to'pni o'yinga kiritish maydonida joylashgan 1x1 kvadratlarga tushirish sharti bilan).

12. To'pni o'yinga kiritish maydonining o'ng tomoniga keyin chap tomoniga chuqur burama zarbalar: qabul qiluvchi chiziq yoki kross bo'yicha javob qaytaradi (vazifaga ko'ra). To'pni o'yinga kiritayotgan o'yinchi uchib kelayotgan to'pni maydonning o'ng burchagiga yo'naltiradi (vazifa bo'yicha), va chalg'itishga harakat qiladi (ayrim holatlarda svechka). To'pni

o'yinga kirituvchi to'pni uchayotganida yoki boshi ustida qaytarishga harakat qiladi.

13. Ikkinchi to'pni o'yinga kiritishdan keyin "uchburchak" yoki "vosmyorka" o'ynaladi (vazifa bo'yicha).

14. Uchib kelayotgan to'pga qisqartirilgan zarba.

15. Sakrab ko'tarilgan to'pga qisqartirilgan zarba.

16. Kombinatsiyalarda qisqartirilgan zarba (vazifa bo'yicha).

a) eng oddiy o'yin mashqlari;

b) o'yin holatiga yaqinlashtirilgan mashqlar (vazifa bo'yicha).

17. Yarim uchayotgan to'pga zarbalar.

18. Murakkab o'yin holatlarida uchayotgan to'pga zarbalar (vazifa bo'yicha)

19. Sakrab ko'tarilgan to'pga bosh ustida zarba (nishon qo'llash shart).

20. Uchib kelayotgan to'pga bosh ustida zarba (maydon burchagida joylashgan 1x10'lchamdagi to'pni tushirish shart).

21. O'ngdan va chapdan to'pni qabul qilish o'yincha maydon ichida turadi (to'pni o'yinga kirituvchi to'rdan bir necha metr masofada), zarba chuqurligini va to'r ustidan uchayotgan to'pning balandligini qat'iy nazorat qiladi.

Qabul qilish usullari:

a) podstavka bilan

b) kesma zarba bilan

c) burama zarba bilan

d) kesma svechka bilan

e) burama svechka bilan

f) qisqartirilgan zarba bilan.

22. Keyinchalik chalg'ituvchi zarbalar va kutilmagan svechka qo'llab to'r oldida "vosyorka".

23. Bir tennischi orqa chiziqda harakatlanadi va uning ikki raqibi to'ra oldida. Ikki tennischi, raqibini bir tomondan ikkinchi tomonga tez harakatlanishiga majbur qilib, past zarba bilan to'pni turli tomonlarga yo'naltiradilar ayrim holatlarda qisqartirilgan to'p holatlari qo'llaniladi. Orqa chiziqda o'ynayotgan tennischilar, past chalg'ituvchi zarbalar bilan to'pni aks ettiradilar, ayrim holatlarda kutilmaganda svechka qo'llaniladi.

24. Oldingi mashqlardan farqli o'laroq, tennischining orqada o'ynayotgan raqiblari, turli holatlarni egallaydilar: biri to'p oldida, ikkinchisi esa orqa chiziqda joylashadi. Endi tennischining vazifasi shundan iboratki, past zarba va svechkadan foydalanib, raqibga to'pni berib qo'ymaslik. Ikki "raqibning" vazifasi o'zgarmaydi: ular tennischini har tomonga harakatlantiradilar va ayrim paytlarda esa qisqartirilgan zarbaga yetish uchun oldinga jadal yugurishga majbur qiladilar.

25. Bir tennischi to'ra oldida, uning ikki "raqibi" esa orqa chiziqda harakatlandi. Ikki "raqibning" vazifasi to'ra oldidagi o'yinchini turli past zarbalar bilan va kutilmagan svechkalar bilan chalg'itish. "To'ra oldidagi" o'yinchi, eng qiyin to'plarni o'tkazib yubormaslikka harakat qilib, "raqiblarni" keyingi zarbalarini murakkablashtirish maqsadida sakrab ko'tarilgan to'pga past zarbalarni aks ettiradi:

a) "raqiblar" maydonning burchagida joylashadilar – "tur oldidagi" uchayotgan to'pga uzun zarbalarni bajaradi.

b) "raqiblar" to'pni o'yinga kiritish chizig'ining tashqi burchagiga qarshi yon chiziqlar orasida joylashadilar – "to'ra oldidagi" qisqa egri zarbalarni bajaradi.

26. Uch o'yinchi to'ra oldiga joylashadi va mashq "raqibni" qiyin ahvolga solish maqsadida uchayotgan va yarim uchayotgan to'pga "otishma" zarbalar bilan yakunlanadi.

2.8. Boshdan yuqoridan zarba berish (SMESH) texnikasi

Boshdan yuqorida zarb berish (smesh). Boshdan yuqorida zarb urishni yirik kalibrli qurol deyish mumkin. SMESHni o'zlashtirmagan tennischilar ko'p xollarda uni yaxshi o'zlashtirgan o'yinchilarga hasad ko'zi bilan qarashadi. SMESH zarbi - tashqi ko'rinishidan yassi to'p kiritishni eslatadi. Buning asosiy farqi shundaki, odatda, bosh tepasida zarbni harakatda bajarishga to'g'ri keladi. Siltov ham anchayin qisqa va tejamlidir.

Smeshdagi asosiy harakatlar. Chap qo'lingizni to'p yo'nalishida ko'taring, — bu juda muhim harakatdir. Chunki bu sizni yon tomonga burilishga va to'pni kutishga majbur etadi. Ko'p o'yinchilar bunga amal qilmasdan, oldindan o'ng yonga "tashlab qo'yadilar" yoki koptok ustiga "yotib oladilar" bu esa muvaffaqiyatsizlikka olib keladi.



30-rasm. SMESH zarbasini bajarish harakati

Chap qo'lingizni yuqorida erkin tuting, o'ng qo'lni tirsakdan bukib ko'taring va o'ng yelka yonida tayyor tuting. Bu holatda toki harakat vaqti kelguncha turmoq lozim. Ana endi oyoqlarni yerga tirab yoki to'p tomonga sakrab turib orqa tomondan (tepadan emas) raketka markazi bilan (aslo markazdan past emas) koptokni to'r tepasiga yo'naltirib zarb urish kerak

(30-rasm). SMEShga oldindan tayyorgarlik ko`rish kerak. Keyin koptokni oldingizdan urish uchun shunday paytni tanlash kerakki, bu zarb vaqtdan ilgari bo`lmasligi lozim. Faraz qilingki, koptok — bu qarshingizda tepada turgan bir mix, xuddi bu mixni oldinga va pastga qattiq zarb bilan urib qoqib yuborishga harakat qiling. To`pni toki uni peshonangiz tepasidan to`liq to`g`rilangan qo`l bilan zarb urmaguningizgacha nazardan yo`qotmang.

2.9. Kesma zarba berish (SMESH) texnikasi

Kesma zarbani asosan, to`pni bel darajasida qabul qilib, uni shartli tennis turidan 20-30sm yuqorida joylashgan nishonga yo`naltirib bajarish maqsadga muvofiq. Shuningdek, kesma zarbani shartli tennis to`ridan 3-4 m yuqorida joylashgan nishonga yo`naltirib burama zarba bilan navbatlashtirish mumkin. Bunda zarba yuqori nuqtadan bajarilishiga erishish lozim.



31-rasm

1. Chiziq bo'yicha sakrab ko'tarilgan to'pga zarbalar. Tekis, kesma, trayektoriya balandligi turlicha bo'lgan burama zarbalar. Maydonda turli maqsad bo'yicha bajariladigan zarbalar. Maydonda turli maqsad bo'yicha bajariladigan zarbalar:

a) ikkala o'yinchi orqa chiziqda joylashgan nishon bo'yicha ishlaydilar;

b) ikkala o'yinchi to'pni o'yinga kiritish zonasida joylashgan nishon bo'yicha;

v) bir o'yinchi orqa chiziqda joylashgan nishonga, boshqasi esa to'pni o'yinga kiritish zonasidagi nishonga to'pni yo'naltiradi.

2. Diagonal bo'yicha sakrab ko'tarilgan to'pga zarbalar tekis, kesma, trayektoriya balandligi turlicha bo'lgan burama zarbalar. Maydonda turli maqsad bo'yicha bajariladi:

a) ikkala o'yinchi orqa chiziqda joylashgan nishon bo'yicha ishlaydilar;

b) ikkala o'yinchi to'pni o'yinga kiritish zonasida joylashgan nishon bo'yicha;

v) bir o'yinchi orqa chiziqda joylashgan nishonga, boshqasi esa to'pni o'yinga kiritish zonasida joylashgan nishonga to'pni yo'naltiradi.

3. Chiziq bo'yicha uchayotgan to'pga zarbalar.

a) A o'yinchi orqa chiziqda, B o'yinchi to'r oldida.

b) ikki o'yinchi ham to'r oldida.

4. Diagonal bo'yicha uchayotgan to'pga zarbalar.

a) A o'yinchi orqa chiziqda, B o'yinchi to'r oldida.

b) ikki o'yinchi ham to'r oldida.

5. "Uchburchak"

a) to'rga chiqish bilan.

b) qisqartirilgan zarbadan keyingi chalg'itish.

6. "Vosmyorka":

a) to'rga chiqish bilan;

b) qisqartirilgan zarbadan keyingi chalg'itish.

7. Turli o'yin holatlarida sparring – sherik bilan svechkalarni qo'llab "vosmyorka".

8. "To'r oldida uchburchak".

a) uchib kelayotgan to'pga chuqur – uzun javob zarbalari.

b) qisqartirilgan zarbani qo'llab.

9. Qisqartirilgan zarbani qo'llash sharti bilan orqa chiziqda "vosmyorka".

10. To'r oldida "vosmyorka".

11. To'pni o'yinga kiritish (to'pni o'yinga kiritish maydonida joylashgan 1x1 kvadratlariga tushirish sharti bilan).

12. To'pni o'yinga kiritish maydonining o'ng tomoniga keyin chap tomoniga chuqur burama zarbalar: qabul qiluvchi chiziq yoki kross bo'yicha javob qaytaradi (vazifaga ko'ra). To'pni o'yinga kiritayotgan o'yinchi uchib kelayotgan to'pni maydonning o'ng burchagiga yo'naltiradi (vazifa bo'yicha), va chalg'itishga harakat qiladi (ayrim holatlarda svechka). To'pni o'yinga kirituvchi to'pni uchayotganida yoki boshi ustida qaytarishga harakat qiladi.

13. Ikkinchi to'pni o'yinga kiritishdan keyin "uchburchak" yoki "vosmyorka" o'ynaladi (vazifa bo'yicha).

14. Uchib kelayotgan to'pga qisqartirilgan zarba.

15. Sakrab ko'tarilgan to'pga qisqartirilgan zarba.

16. Kombinatsiyalarda qisqartirilgan zarba (vazifa bo'yicha).

a) eng oddiy o'yin mashqlari;

b) o'yin holatiga yaqinlashtirilgan mashqlar (vazifa bo'yicha).

17. Yarim uchayotgan to'pga zarbalar.

18. Murakkab o'yin holatlarida uchayotgan to'pga zarbalar (vazifa bo'yicha)

19. Sakrab ko'tarilgan to'pga bosh ustida zarba (nishon qo'llash shart).

20. Uchib kelayotgan to'pga bosh ustida zarba (maydon burchagida joylashgan 1x10'lchamdagi to'pni tushirish shart).

21. O'ngdan va chapdan to'pni qabul qilish: o'yincha maydon ichida turadi (to'pni o'yinga kirituvchi to'rdan bir necha metr masofada), zarba chuqurligini va to'r ustidan uchayotgan to'pning balandligini qat'iy nazorat qiladi.

Qabul qilish usullari:

a) podstavka bilan

b) kesma zarba bilan

c) burama zarba bilan

d) kesma svechka bilan

e) burama svechka bilan

f) qisqartirilgan zarba bilan.

22. Keyinchalik chalg'ituvchi zarbalar va kutilmagan svechka qo'llab to'r oldida "vosyorka".

23. Bir tennischi orqa chiziqda harakatlanadi va uning ikki raqibi to'r oldida. Ikki tennischi, raqibini bir tomondan ikkinchi tomonga tez harakatlanishiga majbur qilib, past zarba bilan to'pni turli tomonlarga yo'naltiradilar ayrim holatlarda qisqartirilgan to'p holatlari qo'llaniladi. Orqa chiziqda o'ynayotgan tennischilar, past chalg'ituvchi zarbalar bilan to'pni aks ettiradilar, ayrim holatlarda kutilmaganda svechka qo'llaniladi.

24. Oldingi mashqlardan farqli o'laroq, tnnischining orqada o'ynayotgan raqiblari, turli holatlarni egallaydilar: biri to'p oldida, ikkinchisi esa orqa chiziqda joylashadi. Endi tennischining vazifasi shundan iboratki, past zarba va

svechkadan foydalanib, raqibga to'pni berib qo'ymaslik. Ikki "raqibning" vazifasi o'zgarmaydi: ular tennischini har tomonga harakatlantiradilar va ayrim paytlarda esa qisqartirilgan zarbaga yetish uchun oldinga jadal yugurishga majbur qiladilar.

25. Bir tennischi to'r oldida, uning ikki "raqibi" esa orqa chiziqda harakatlandi. Ikki "raqibning" vazifasi to'r oldidagi o'yinchini turli past zarbalar bilan va kutilmagan svechkalar bilan chalg'itish. "To'r oldidagi" o'yinchi, eng qiyin to'plarni o'tkazib yubormaslikka harakat qilib, "raqiblarni" keyingi zarbalarini murakkablashtirish maqsadida sakrab ko'tarilgan to'pga past zarbalarni aks ettiradi:

a) "raqiblar" maydonning burchagida joylashadilar – "tur oldidagi" uchayotgan to'pga uzun zarbalarni bajaradi.

b) "raqiblar" to'pni o'yinga kiritish chizig'ining tashqi burchagiga qrshi yon chiziqlar orasida joylashadilar – "to'r oldidagi" qisqa egri zarbalarni bajaradi.

26. Uch o'yinchi to'r oldiga joylashadi va mashq "raqibni" qiyin ahvolga solish maqsadida uchayotgan va yarim uchayotgan to'pga "otishma" zarbalar bilan yakunlanadi.

"Texnik usullarga o'rgatish " mavzusi bo'yicha nazorat savollari

1. Texnik tayyorgalikni rivojlantiruvchi mashqlarni aytib bering.

2. Kiritilayotgan to'pni qabul qilish texnikasini ko'rsatib bering.

3. Yo'nalish bo'yicha zarba berish texnikasiga o'rgatish haqida so'zlab bering.

4. To'r oldiga chiqib zarba berish texnikasi qanday bajariladi?

5. O'ng va chapdan zarba berishga o'rgatish texnikasi qanday amalga oshiriladi?

6. Burama zarba berish texnikasi qanday amalga oshiriladi?

7. Qisqa zarba berish texnikasi qanday amalga oshiriladi?

8. Boshdan yuqoridan zarba berish (SMESH) texnikasi qanday amalga oshiriladi?

9. Kesma zarba berish (SMESH) texnikasi qanday amalga oshiriladi?

III BOB. TAKTIK USULLARGA O'RGATISH

Tennisda biz o'yinchilarning raqib ustidan g'alaba qozonishga qaratilgan harakatlarining tashkiliyligi va xarakterini taktika deb ataymiz. Tennischining o'yin harakatlari va uning raqobat muhitidagi xatti-harakati uzviy bog'liqdir. Tennischining harakatlari zarbalarga tayyorgarlik ko'rishda va ularning turli kombinatsiyalarida to'pga ma'lum zarbalarni qo'llashda, ya'ni ma'lum taktik kombinatsiyalarda, texnikada va zarbalar oralig'ida maydon atrofidagi harakatlarda ifodalanadi.

Tennischi g'alaba qozonish uchun o'zining kuchli tomonlari, texnik va taktik tayyorgarligi hamda raqibining imkoniyatlari va raqobat vaziyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'z harakatlarini musobaqaning taktik rejasiga muvofiq tashkil qiladi. U birinchi navbatda qaysi zarbalarni, qanday kombinatsiyalarda ishlatishini, ularni qayerga yo'naltirishni va musobaqa paytida o'zini qanday tutishni hal qiladi.

Tennischining texnikasi va taktikasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq va o'zaro bog'liqdir.

Yuqori va xilma-xil texnikaning yo'qligi tennischining taktik imkoniyatlarini cheklaydi. O'z navbatida, yaxshi rivojlangan taktik tafakkursiz va texnik usullarni to'g'ri qo'llamasdan turib, yuqori texnologiyani egallash yuqori sport natijalariga erisha olmaydi. Tennischining texnikasi qanchalik xilma-xil bo'lsa, uning taktika doirasi shunchalik keng bo'ladi. Ko'pincha yetarlicha yaxshi texnikaga ega bo'lmagan tennischilar bor, lekin ularning tajribasi va taktik o'yin rejasini to'g'ri tuzish qobiliyati tufayli ular yuqori texnikaga ega, ammo uni qanday to'g'ri qo'llashni bilmaydigan o'yinchilarni mag'lub etishadi. Oxirgi ahvolga tushib qolgan ko'plab yosh tennischilarga individual zarbalarni o'rgatishadi (ular aytganidek, "uruvchi" zarbalar)

taktik fikrlashni rivojlantirmasdan - bu zarbalarni o'z vaqtida va oqilona ishlatish qobiliyati.

Tennischining taktikasi bir qator doimiy faoliyat ko'rsatadigan omillar bilan belgilanadi. Ularni o'yinchiga qarab sub'ektiv, raqibga va o'yinning tashqi sharoitiga qarab ob'ektivga bo'lish mumkin. Bu omillarning barchasi o'zaro bog'liq va bir-biriga bog'liqdir.

Subyektiv omillarga tennischining texnikasi, uning axloqiy va irodaviy fazilatlari, jismoniy tayyorgarligi va taktik fikrlashning rivojlanish darajasi, ya'ni musobaqa vaziyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'z texnikasini qo'llash qobiliyati kiradi.

Bizga ob'ektiv omillar kiradi: texnika, taktika, axloqiy va irodaviy fazilatlar, jismoniy tayyorgarlik, raqibning taktik tafakkurining rivojlanish darajasi va o'yinning tashqi sharoitlari.

O'yin taktikasi qiyosiy tahlil va yuqoridagi barcha omillarni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Qanday qilib taktika tanlash tennischining texnikasi va raqibining texnikasiga bog'liq? Tennischi eng avvalo qaysi zarba va taktikada yaxshiroq va qaysi biri yomon ekanligini aniqlashi, o'z o'yinini shunday qurishi kerakki, eng samarali zarbalardan tez-tez foydalansin. Keyin u raqibining texnikasi va taktikasini tahlil qiladi, o'z o'yinining zaif va ustun tomonlarini aniqlaydi va raqib kuchli zarbalaridan foydalanish imkoniyatini bermay, tez-tez kuchsizroq zarbalar berishga majbur bo'ladigan taktikani qo'llaydi. Keling, taktika tanlashning raqobatdosh o'yinchilarning texnik arsenaliga bog'liqligiga bir nechta misollar keltiraylik.

1-misol. Ko'pgina tennischilar asosan kortning orqa chizig'ida o'ynash taktikasiga amal qilishadi va to'rga tushishmaydi. Ular buni yo g'alaba qozonishlari yo'q yoki to'rga

chiqish uchun tayyorgarlik zarbalarida zaif bo'lgani uchun qilishadi. Qisqasi, ularning texnologiyasi taktik imkoniyatlarini cheklaydi. Tayanch chizig'idan o'ynaydigan, ammo voleybolda yaxshi bo'lgan raqiblar bilan to'qnash kelganda, ular tez-tez mag'lubiyatga uchradilar. To'rda o'ynashni bilmagan tennischilar odatda dribling zarbalariga katta e'tibor berishadi.

2-misol. O'yinchi bekkadan ko'ra aniqroq va kuchli forehandga ega. Bu zarbani tez-tez qo'llash uchun u boshlang'ich pozitsiyasini egallaydi, to'pni maydon o'rtasida emas (uning markazida - o'rta belgi) kutadi, lekin u bir oz chapga, ya'ni ataylab. to'pni tez-tez u erga yo'naltirishi uchun maydonning o'ng tomonini raqibga ochadi. Bu noto'g'ri taktika, lekin, afsuski, u juda keng tarqalgan.

O'yinchi o'zining zaif orqa tomonini yaxshilashga e'tibor bermaydi, u forehand ostida "yugurish" odatini rivojlantiradi, shuning uchun u kort atrofida keraksiz yugurish uchun ko'p kuch sarflashi kerak. Tez qiyshiq forehandga ega bo'lgan tajribali raqib bilan uchrashganda, bunday o'yinchi mag'lub bo'ladi.

3-misol. Tennischi tez sur'atda o'ynashda raqibi o'zidan yaxshiroq ekanini biladi, lekin sekin o'ynaganda ritm va ishonchni yo'qotadi. Bu sizning taktikangizni yumshoq zarbalarni tez-tez ishlatishga asoslashingiz kerakligini anglatadi. Va aksincha, agar raqib noqulay bo'lsa, etarli harakatchanlik va reaksiya tezligi bo'lmasa, siz tez sur'atda o'ynashga harakat qilishingiz kerak. Biroq, taktikangizni o'zgartirish uchun siz o'zingiz turli templarda o'ynashingiz kerak.

4-misol. Raqib bilan o'yin davomida tennischi o'z texnikasining asosiy kamchiligini aniqlaydi: masalan, kambag'al, noaniq, past faol voleybol. Orqa chiziqdan o'ynaganda ham, to'rga o'tayotganda ham tennischi unga yutqazadi, chunki

raqibda aniq zarbalar bor. Keyin tennischi o'z taktikasini qisqa zarbalar bilan raqibni to'rga tortib olish va to'r ustida past to'plar bilan uning atrofida dribling qilishga asoslaydi. Bunday taktikalarni qo'llash uchun siz qisqartirilgan va qo'shimcha zarbalarni o'zlashtirishingiz kerak.

5-misol. Agar sizning raqibingiz voleybolda yaxshi bo'lsa va o'z taktikasini to'rga chiqishga asoslasa, siz imkon qadar tez-tez uzoqdan zarba berishingiz kerak, bu esa uning to'rga tushishini qiyinlashtiradi.

Taktika tanlash raqiblarning jismoniy tayyorgarligiga bog'liq. Tennischi ma'lum bir o'yin uchun o'z taktikasini belgilashda, masalan, to'rga tez-tez tashrif buyurish va voleybollardan foydalanish, buning uchun kerakli tezlik va chidamlilikka ega yoki yo'qligini bilishi kerak. Ko'pincha musobaqalar bir necha soat davom etadi va to'rga tizimli yondashuvlar bilan hujum taktikasini qo'llash uchun siz yaxshi tezlikka chidamli bo'lishingiz kerak. Agar tennischida bunday chidamlilik bo'lmasa, u birinchi o'yinda bu taktikani muvaffaqiyatli qo'llagan holda, keyin charchashi va raqobatni osongina yutqazishi mumkin. Bunday taktikani qo'llash uchun bu tennischi tezlikni rivojlantirishi kerak.

Tennischi musobaqaning taktik rejasini tuzayotganda raqibining jismoniy tayyorgarligini ham hisobga oladi. Misol uchun, agar raqib etarlicha tez bo'lmasa, u holda to'plar uni tez sur'atda o'ynashga majbur qilish uchun maydonning turli joylariga yuborilishi kerak. Agar sizning raqibingiz texnik jihatdan mahoratli bo'lsa-da, lekin etarlicha qattiqqo'l bo'lmasa, uni o'yin boshida, birinchi o'yinda, hatto uni yutqazib qo'yish xavfi ostida ham charchatib qo'yishga urinib ko'rishingiz kerak, charchagan bo'lsa, u osonlikcha yutqazadi degan umidda. ikkinchi va hal qiluvchi. To'plarning turli xil aylanishi,

shuningdek, qisqartirilgan zarbalar va shamlar bilan turli xil texnik usullardan foydalanish katta epcillik va harakatchanlikka ega bo'lmagan raqibga qarshi eng yaxshi taktikadir. 1-1,5 soat yaxshi o'ynashini bilgan tennischi, keyin charchab, xato qila boshlagan holda, o'yinni shunday o'ynashi kerakki, o'yinni tengdosh raqibga qarshi eng oson hisobda, birorta ham mag'lubiyatga uchramaydi. qo'shimcha nuqta.

Shartli raqib bilan trenirovka uslubiyati, turli yordamchi jihozlar va ko'rilmalardan foydalanishni nazarda tutadi: nishonlar; maneken; turli trenajyor ko'rilmalari; dasturli boshqariladigan raqib modeli va hokazo. Bu harakatlarni masofada, vaqt va ritmik tavsifini qayta ishlab chiqishga, ko'rib harakatlanish va kinestetik sezgilarni rivojlantirish hamda takomillashtirishga yordam beradi. Ushbu uslub musobaqa faoliyatini modellashtirishda, maxsus sifatlarni rivojlantirish

uchun qo'llaniladi. Sherik bilan trenirovka uslubi taktik harakatlarni o'zlashtirish uchun qo'llaniladi. Ushbu holatda sherik eng faol yodamchi hisoblandi. Bu uslubdan foydalanishdagi asosiy vositalar: katta xilma-xillikka ega va taktik takomillashuvga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Raqib bilan trenirovka uslubi taktik harakatlar qismlarini qayta ishlash, sportchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqib taktik takomillashuvga erishish, raqib tomonidan vujudga kelgan turli taktik vaziyatlarda o'z imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalana olishni tarbiyalash uchun qo'llaniladi.

Bu uslub tez o'zgaruvchan holatlardagi vaqt va muhit noaniqligi taktik vazifasini yechish uchun, vaqt va axborot yetishmovchiligi sharoitida taktik harakatlarni takomillashtirishga yordam beradi. Bunday vaziyatlar, musobaqa sharoiti faoliyatiga aniq emotsional holat va yuqori zo'riqishni keltirib chiqaradi.

U yoki bu taktik variantni tanlash, uni qayta ishlash va musobaqa faoliyatida amalga oshirish, sportchining texnik mahorat darajasiga va muhim funksional tizimlarning imkoniyatlariga, iroda va ruhiy tayyorgarlik hamda uning harakat sifatlarini rivojlanganligiga asoslangan. Shuning uchun amaliyot uslubiyatlari yordamida sport taktikasi elementlarini o'zlashtirish jarayonini sport mahoratini boshqa tarkibiga nisbatan boshlang'ich bog'lanish sifatida ko'rish mumkin.

Oldidagi musobaqa xususiyatlari, asosiy raqiblar va sheriklarning texnik va taktik, ruhiy va jismoniy imkoniyatlarini o'rganib chiqish taktik tayyorgarlikning muhim bo'limi hisoblanadi. Ushbu bo'lim yuqori raqobat va natijalar zichligini tavsiflovchi, rejadagi musobaqalarga yuqori malakali sportchilarni tayyorlash jarayonida asosiy ahamiyatga ega.

Birinchi navbatda, sportchilarning texnik, taktik imkoniyatlarini o'rganib chiqish lozim. Bu tennisda juda muhimdir. Tennis kabi boshqa sport turlarida, raqiblar imkoniyatlarini o'rganib chiqishda, musobaqa sharoitidan kelib chiqib, musobaqa kurashi uslubiyatlari va vositalaridan foydalanib, turli vaziyatlarda qo'llaniladigan sevimli harakatlar, taktik usullari va kombinatsiyalarga asosiy e'tibor qaratish lozim.

Raqib imkoniyatlari bo'yicha olingan bilimlarga asoslanib, aniq musobaqa paytidagi shaxsiy imkoniyatlar va holatlarni hamda musobaqa kurashini hisobga olib, sportchining yoki jamoaning qulay taktikasini prognoz qilish mumkin. Odatda prognoz ikki darajaga bo'linadi: a) asosiy shakl, vosita va raqib taktikasining turlari hamda butun musobaqa davomidagi va aniq kurashlarda vujudga kelgan ehtimoldagi vaziyatlar, shaxsiy texnik, taktik rejalarning prognozi; b) musobaqa kurashida raqib harakatlarining va shaxsiy harakatlarning tezkor prognozi.

Taktik tayyorgarlikni yana bir muhim bo'limi – bu musobaqa xususiyatlaridan kelib chiqib, asosiy raqib imkoniyatlari va ularni musobaqa kurashi mobaynidagi amalga oshirishga yo'naltirilgan taktik harakatlarining individual modellarini ishlab chiqish hisoblanadi.

Taktik harakatlarning individual modelini yaratishda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozm:

- yetarli va yetarli bo'lmagan shaxsiy texnik va taktik tayyorgarlikni tan olish;

- musobaqa kurashini olib borishga tayyorlovchi harakatlar va asosiy vositalar orasidagi o'zaro aloqani anglash;

- chigil yozdi mashqlarini to'g'ri o'tkazish va ruhiy holatni boshqarish, kurashning turli vaziyatlarida aql bilan tavakkal

variantlarni topish va shu vaziyatlardan chiqib ketish uchun zaruriy chidamkorlikni tan olish;

- stil va kuch jihatdan turlicha bo'lgan raqiblarga qarshi harakatlanish qobiliyatini rivojlantirish;

- musobaqa kurashini psixologik va taktik xususiyatlarini anglash;

- oldinga qo'yilgan maqsadga erishish ehtimoli va realligi haqida alohida kurashlar musobaqada ishtirok etish, tayyorgarlik maqsadi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish (V.Skeller, 1999).

Sport kurashining murakkab va variantlarga boy sharoitida, to'g'ri qaror qabul qilish va uni amalga oshirish qobiliyati, sportchining ijodiy imkoniyatlari va uning fikrlash xususiyatlariga bog'liqdir (S.P.Belits-Geyman). Bu imkoniyatlar trenirovka faoliyatning ijobiy imoniyatiga kirib borgan xilma-xillik, musobaqa kurashini olib borish usullari turlicha bo'lgan ko'p sonli raqiblar bilan uchrashuvlar natijasida sport tajribasi orttirish jarayonida takomillashtiriladi.

L.M. Matveyev ta'kidlashicha, sport taktikasining asosiy elementlari aniq musobaqa vaziyatlariga xos sport texnikasini maqsadga muvofiq usullari bilan bog'lash va ularni qo'llashni nazarda tutadi hamda sport texnikasining taktik shakllari izohi hisoblanadi. Shuni yodda tutish kerakki, taktik elementlar har doim texnik elementlardan kattaroq bo'ladi: birinchilar o'zlarining tarkibi sifatida ikkinchilarni qo'shadilar va ularni musobaqani maqsadga muvofiq olib borish usullari shaklida aniq tartibda bog'laydilar. Bunday musobaqa faoliyatidagi texnik va taktik elementlarning birdamligi taktik takomillashuv jarayonida hisobga olinishi lozim.

G'alaba uchun alohida texnik harakatlarni sifatli bajarish va o'yinda raqibning ojiz tomonlarini topa olish kerak.

3.2. To'r oldida o'ynash taktikasi

To'r yonida o'yin, mahsus prinsip va ko'nikmalarga asoslangan bo'lishi lozim. Tez qulay holatni egallashga va raqibning chalg'ituvchi zarbalariga tayyorgarlik vaqtini kamaytirishga yordam beruvchi, o'yin borishini o'zgartirmasdan to'rga chiqish mumkin emas. Ochko o'ynaladigan vaqtda, to'rga chiqish uchun kutilmagan vaziyatlar vujudga keladi. Yaxshi texnik va taktik tayyorgarlikka ega tennischilarda, uchib kelayotgan to'pni o'ynash uchun befoyda to'rga chiqish amalgam oshirilishi zarur bo'lgan usullar qayta ishlangan bo'lishi lozim. To'r yonida o'ynashning asosiy prinsiplari:

1) To'rni oldiga chiqish uchun, raqibning ojiz tomoniga, uni iloji boricha kortning orqa chizig'igi chiqarish uchun zarbalar berish zarur. Tajribali o'yinchi, raqibni o'zi uchun foydali javob qaytarishiga majbur qila oladi.

2) Oddiy bo'lmagan dinamika uchayotgan to'pga zarbalar. Uchayotgan to'pga zarbalar, zarba beruvchi qo'l tirsagini tana orqasiga o'tishiga to'sqinlik qiluvchi qisqa siltanish yordamida, to'pni o'z oldida qarshi olib oldinga harakatlanib amalga oshiradi.

3) Uchayotgan to'pga birinchi zarba juda muhim. Umuman ular uchtdan oshmasligi kerak. Agar to'p to'rdan ancha uzoqqa uchsa, uni orqa chiziq yaqinida o'ynashga harakat qilib, so'ng to'rga yetarli darajada yaqinlashtirib, kuchli egri zarba bilan o'yinni yakunlash zarur. Qoida bo'yicha, uchayotgan to'pga birinchi zarba, kamida raqibni himoyalaniishga majbur qilishi, ikkinchi zarba, o'yin ochko bilan yakunlanishi kerak. Uchinchi zarbada esa ko'pincha, yetakchilik raqib qo'lga o'tadi.

4) To'r oldida o'zini raqib xujumiga qo'ygan tennisch, uchib kelayotgan to'pga zarbani omadsiz bajargandan keyin u to'r

oldida ushlanib qolmasligi kerak. Bunday vaziyatlarda raqib zarur yo'nalishda zarbani amalga oshirishi uchun e'tiborini chalg'itish maqsadida, tana bilan aldamchi harakatlarni bajarishi lozim. Asosiysi, uchayotgan to'pni o'ynashda to'pni his qilish zarur. Buning uchun to'r oldida texnik harakatlarni takomillashtiruvchi mashqlarni har kuni ko'p marta takrorlash lozim.

To'r oldiga chiqish ko'nikmalarini takomillashtiruvchi mashqlar quyidagilar:

1 – mashq. "Vosmyorka". A va B ikki sherik orqa chiziqda turadi, birinchisi kortning o'ng tomonida, ikkinchisi chap tomonida. A1 va B1 o'yinchilar esa maydonning orqa chizig'i va to'pni o'yinga kiritish chizig'i orasida. Bitta to'p bilan o'ynaladi. Orqa chiziqda turgan birinchi sherik A, B1 sherik turgan to'pni o'yinga kiritish kvadratiga diagonal bo'yicha baland sakrab ko'tarilgan to'pga burama zarbani yo'naltiradi, u yuqori nuqtada oldinga harakatlanib kesma zarbani, to'rga chiqishni aks ettirib, to'g'ri chiziq bo'yicha orqa chiziqqa ya'ni B sherik turgan joyga yo'naltiradi va dastlabki holatga qaytadi, B sherik navbatida A1 va hakozi sherik yo'nalishi bo'yicha to'pni diagonal burama zarba bilan ko'taradi.

2 – mashq. Sparring – sherik to'pli savat bilan, o'z korti yarmida orqa chiziq ortida turadi. O'rganuvchi tennischi o'z yarmida orqa chiziqdan bir metr masofada. Tennischi shartli signal bo'yicha to'rga yugurishni boshlaydilar. O'rganuvchi tennischi to'pni o'yinga kiritish chizig'ini kesib o'tayotgan vaqtda, sparring – sherik tezkor zarbalar bilan, yugurib kelayotgan tennischini chalg'itishga harakat qiladi. Tennischining vazifasi, harakatni so'ndirmasdan, to'pga oldinga sakrab uni uchayotganda o'ynashi kerak. Mashqni, zarba uchun to'pni bosh ustiga uloqtirib, uchayotganda zarbani bajargandan



keyin, shu ondayoq davom ettirish mumkin. Bunday seriya zarbalar bajarilgandan so'ng, tennischi keyingi seriyani bajarish uchun dastlabki xolatga tez qaytadi.

3 – mashq. Sparring – sherik to'pli savat bilan, o'z korti yarmida orqa chiziq ortida turadi. O'rganayotgan tennischi o'z yarmida orqa chiziqdan bir metr masofada. Sparring – sherik xavkortga yarim svecha uloqtiradi. O'rganuvchi tennischi to'pning uchish trayektoriyasini aniqlab, shu trayektoriyaning taxminiy nuqtasiga, harakatni so'ndirmasdan uchib kelayotgan to'pga zarba berish uchun yugurib chiqadi yoki aksincha, imkon boricha tezkorlikni oshirib, kortning qarama – qarshi tomoniga orqa chiziqqa podsvechka bilan to'pni yo'naltiradi va to'p oldida holatni egallaydi. Mashqni uchayotgan to'pga zarba berish, song boshdan zarba berish bilan yakunlash mumkin. Bu seriya zarbalar bajarilgandan so'ng tennischi keyingi seriyalarni bajarish uchun dastlabki holatga qaytadi.

4 – mashq. Ikkala sherik orqa chiziqda turadi. Ulardan biri chuqur burama svechka bajarib, oldinga yuguradi, boshqasi o'ziga qulay zarba uchun, sherigi esa to'rning oldiga turibsvechkani o'ynaydi. Boshqasi uchayotgan to'pga orqa chiziqqa zarba bilan javob qaytaradi. Ikkinchisi burama svecha bilan to'r oldidagiga uloqtirib beradi va o'zi oldinga harakatlanadi. Birinchi, to'r oldida turgan sherigiga qulay zarba bilan svechkani o'ynab, javob zarbadan keyin to'pni to'r oldidagiga svechka uloqtiradi va o'zi oldinga yuguradi. Bu mashq, tennischilarni maydon atrofida uchib kelayotgan to'pga zarbalarni qo'llab harakatlanishni takomillashtiradi.

3.3. To'p o'yinga kiritgandan so'ng tez to'r oldiga chiqib kombinatsion xujum taktikasini qo'llash

To'pni o'yinga kiritishni qabul qilish, tennischi taktik harakatlarining muhim elementlaridan biridir. V.Golenko, A. Skorodumova va Sh.Tarpishev (2002) Uimbuldon turniri finalida V.Uilyams va L.Devenport orasidagi bahsda bajarilgan barcha zarbalarining umumiy sonidan, to'pni o'yinga kiritish 29,94% va 16,95% to'pni qabul qilish 16,95% va 19,25% bajarilganligini kuzatdilar. Lekin to'pni qabul qilishni takomillashtirishga yo'naltirilgan maxsus trenirovkalar vaqtida V.Uilyams goho bunga umuman e'tibor qilmagan, goho mashg'ulotning 7%gina vaqtini ajratdi.



O'zbekistinning kuchli yosh tennischilarining 50ta musobaqa uchrashuvini tomosha qilib, ular foydalangan to'pni qabul qilishni takomillashtirish an'anaviy usullarining natijalari aniqlandi.

12-14 yoshli O'zbekiston tennischilarining har bir musobaqa uchrashuvida o'rtacha 4 eys va 4 "ikkitalik" dan xatolar aynan to'pni o'yinga kiritishda, shu bilan birga bu o'yinlarda to'pni

qabul qilishda o'rtacha 12ta "uchib ketish" xatolar kuzatildi. Shunday qilib, bu oddiy ko'rsatkichlardan shu ma'lum bo'ldiki, musobaqa natijalari uchun to'pni o'yinga kiritishga nisbatan to'pni qabul qilishning takomillashgan usuli ikki marta samaralidir.

Barcha musobaqa o'yinlarining taktik tuzilishida, to'pni qabul qilish eng muhim qism hisoblanadi. Birinchi va ikkinchi to'pni o'yinga kiritishda, to'pning turli tezlikda uchishi, uni qabul qilish uchun turli taktikalardan foydalanishga majbur qiladi. Birinchi to'pni o'yinga kiritishda, raqib to'pining uchish tezligini e'tibordan chetda qoldirmaslik va unga nisbatan harakatlanish lozim. Bunday holatlarda to'pning tezligini oshirishga va xilma-xil to'siq usullari yordamida javob zarba uchun qo'llash maqsadga muvofiq:

To'siq usullari:

- agar raqib to'pni o'yinga kiritishdan keyin to'pga chiqsa, unda qoida bo'yicha qabul qilish qisqa va raqib oyoqlariga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Lekin maydonning yon chiziqlaridan bevosita yaqinga yo'naltirilgan chuqur to'pni yoddan chiqarmaslik zarur. Bunday holatda to'pni o'yinga kiritishning birinchi kvadratidan chapga kross va ikkinchidan o'ngga kross bajarilgan to'plar juda samarali bo'ladi:

- agar raqib to'pni o'yinga kiritgandan so'ng kortning orqa chizig'ida qolsa, unda to'pni kortning ichiga chuqur kiritish lozim. To'pni qabul qilish uchun ketadigan barcha kuch, to'pning uchish tezligidan kelib chiqib, bir zumdayoq yoki asta sekin amalga oshirish mumkin bo'lgan qarshi hujumga qaratiladi.

Birinchi va ikkinchi kvadratda to'pni qabul qilish plesirovka bayonnomasi)

"0", belgisi – hujum shaklida to'pni qabul qilish .

"!", belgisi – bir lahzada ochko yutib olish bilan yakunlangan

hujum shaklidagi to'pni qabul qilish.

"X" belgisi – raqibning keskin to'pni o'yinga kiritishdan keyingi, majburiy himoya shaklidagi to'pni qabul qilish.

"^", belgisi – raqibga hujum boshlashga yordam beruvchi passiv to'pni qabul qilish.

Ikkinchi to'pni o'yinga kiritishni qabul qilish taktikasi, birinchisidan ancha farq qiladi. To'pni uchish tezligi hujumchidan o'yin yetakchiligini o'z qo'liga olishi uchun va kort bo'yicha o'yin bosimini o'tkazish bilan bog'liq faol harakatni amalga oshirishga yordam beradi.

To'pni qabul qilishning taktik usullarini takomillashtirishga asoslangan uslubiyatlarini ishlab chiqish maqsadida va to'pni qabul qilish samaradorligi chuqur qonuniyatlarini aniqlash uchun, ma'lumotlarni to'plash va maxsus ishlab chiqilgan uslub zarur.

To'pni qabul qilish taktik harakatlarini ro'yxatlash uslubi ko'rsatilgan. Shular asosida aniq malumotlar to'plandi va WTA musobaqalarida A va I to'pni qabul qilish taktik fikrlarni amalda qo'llash tahlil qilindi.

Oqgul Omonmurodovanning turnir lideri Morokolik B. Mouxtasin bilan uchrashuvida, to'pni qabul qilish samaradorligi bayonnomasidan ma'lumotlar. Oqgul Omonmurodovada ushbu uchrashuv darajasi uchun zarur, to'pni o'yinga kiritish usuli bo'yicha mahorati raqibiga nisbatan ancha pastligini ko'rsatdi. Birinchi kvadratdan to'pni qabul qilish plasirovkasi aniqligini belgilanuvchi bayonnoma Omonmurodovanning tashabbusni qo'ldan chiqarganligini ko'rsatdi To'pni qabul qilishdan keyin xox u passiv himoyalanuvchi bo'lsin yoki hujumga o'tishga uringanda ham, to'pning qo'nish nuqtasining barchasi raqib uchun juda qulay zonalarga tushgan. Vaholanki, hujum istagida to'pni qabul qilganda ham to'p aynan to'rga tushgan (to'rttdan

bittasi). Buning sababi, Oqgul birinchi kvadratda to'pni o'ngdan zarba bilan qabul qildi, bu uning uchun ishochli zarba.

Ikkinchi kvadratdan to'pni qabul qilish plasirovka ko'rsatkichlari, Omonmurodovanning to'pni qabul qilishda o'z oldiga qo'ygan maqsadi va o'z o'zini baholash darajasi haqida haqqoniy dalillarni berdi. Qabul qilish yo'nalishi birinchi kvadratdagi kabi kort o'rtasida diagonal bo'yicha, lekin to'pni yerga tushirish (kuchnost) ancha kam, chunki ko'proq o'ng tomondan to'pni qabul qilishga to'g'ri keldi. O. Omonmurodovanning to'pni qabul qilish bo'yicha statistik tahlili plasirovka tahlili natijalari xulosasini to'liq tasdiqlaydi. Birinchi navbatda, passiv zarbalar foizi ancha katta uchrashuvining birinchi geymidagi raqibining to'pni uzatishi e'tiborni o'ziga jalb qildi. Vaholanki, umuman o'zi o'yin davomida tashabbus ko'rsata olmadi, faqat beshta passiv qabul qilish bajarildi shunda ham ularning ikkitasi xato bilan yakunlandi. Uchrashuv davomida zarba kuchini va yo'nalishini to'g'ri tushuntira oladigan bironta ham qabul qilish bo'lmadi. O'zbekistonning kuchli tennischilarining to'pni qabul qilish samaradorligini tahlil qilib, shunday xulosa qilish mumkin:

1) Tennischilarda maxsus ishlab chiqilgan to'pni qabul qilish taktikasi yo'q. Ular to'pni qabul qilish uchun, o'zlariga xos bo'lgan orqa chiziqdan sakrab ko'tarilgan to'pga zarbalarni qo'llaydilar;

2) Tennischilarda musobaqa o'yinlarida maxsus ishlab chiqilgan to'pni qabul qilish taktik sxemasi kuzatilmaydi;

3) Biz kuzatayotgan tennischida raqibning keskin to'pni o'yinga kiritishdan keyin, to'pni qabul qilish maromi va samaradorligi juda past;

4) To'pni qabul qilish musobaqa jarayonida muhim ahamiyatga ega va trenirovkaning ko'p vaqtini shu usulni

takomillashtirish uchun yo'naltirish lozim.

To'pni qabul qilish texnikasining takomillashgan uslubi-yatini ishlab chiqish va takomillashtirish zarur.

1 – mashq. Devorga kesma zarbalar bilan o'ynash.

2 – mashq. Devorga aralash zarbalar bilan o'ynash – chizilgan to'rdan ikki metr balandda joylashgan devor nuqtasidan sakragan to'pga burama zarba, so'ng yelka darajasidagi yuqori nuqtada qabul qilish bilan kesma zarbalar.

3 – mashq. Kortda sherik bilan kesma zarbali o'yin.

4 – mashq. O'ngdan va chapdan podsechka bilan to'pni qabul qilish zarbalari: o'yinchi, zarbalarning berilgan chuqurligi va to'pning to'r ustidagi uchish balandligini qat'iy nazorat qilib, maydonning ichida turadi (to'pni o'yinga kirituvchi to'rdan bir necha metr masofada joylashadi).

Qabul qilish turlari:

a) podstavka

b) kesma zarbalar

c) kesma svechka

d) burama svechka

e) qisqa zarbalar.

5 – mashq. To'pni o'yinga kirituvchi 1 nishonga to'pni o'yinga kiritishni bajaradi, qabul qiluvchi 1a nishonda to'pni aks ettiradi. To'pni o'yinga kirituvchi va qabul qiluvchining o'ttizta urinishidan to'pning nishonga tushgan soni belgilanadi. Musobaqa prinsipini kiritish maqsadga muvofiq. Nishonga tushish soni kam bo'lgan tennisch, kort atrofida bir oyoqda sakrashni bajaradi. Jarima aylana soni, nishonga tushish sonidagi farqqa teng. Har bir o'yinchi 1 va 2 nishonlarga 30 tadan to'pni uzatadi. O'z navbatida sheriklar 1a va to'r yonida o'yin, mahsus prinsip va ko'nikmalarga asoslangan bo'lishi lozim. Tez qulay holatni egallashga va raqibning chalg'ituvchi

zarbalariga tayyorgarlik vaqtini kamaytirishga yordam beruvchi, o'yin borishini o'zgartirmasdan to'rga chiqish mumkin emas. Ochko o'ynaladigan vaqtda, to'rga chiqish uchun kutilmagan vaziyatlar vujudga keladi. Yaxshi texnik va taktik tayyorgarlikka ega tennischilarda, uchib kelayotgan to'pni o'ynash uchun befoyda to'rga chiqish amalga oshirilishi zarur bo'lgan usullar qayta ishlangan bo'lishi lozim. To'r yonida o'ynashning asosiy prinsiplari:

1) To'rni oldiga chiqish uchun, raqibning ojiz tomoniga, uni iloji boricha kortning orqa chizig'igi chiqarish uchun zarbalar berish zarur. Tajribali o'yinchi, raqibni o'zi uchun foydali javob qaytarishiga majbur qila oladi.

2) Oddiy bo'lmagan dinamika uchayotgan to'pga zarbalar. Uchayotgan to'pga zarbalar, zarba beruvchi qo'l tirsagini tana orqasiga o'tishiga to'sqinlik qiluvchi qisqa siltanish yordamida, to'pni o'z oldida qarshi olib oldinga harakatlanib amalga oshiradi.

3) Uchayotgan to'pga birinchi zarba juda muhim. Umuman ular uchtdan oshmasligi kerak. Agar to'p to'rdan ancha uzoqqa uchsa, uni orqa chiziq yaqinida o'ynashga harakat qilib, so'ng to'rga yetarli darajada yaqinlashtirib, kuchli egri zarba bilan o'yinni yakunlash zarur. Qoida bo'yicha, uchayotgan to'pga birinchi zarba, kamida raqibni himoyalanişga majbur qilishi, ikkinchi zarba, o'yin ochko bilan yakunlanishi kerak. Uchinchi zarbada esa ko'pincha, yetakchilik raqib qo'liga o'tadi.

4) To'r oldida o'zini raqib xujumiga qo'ygan tennishi, uchib kelayotgan to'pga zarbani omadsiz bajargandan keyin u to'r oldida ushlanib qolmasligi kerak. Bunday vaziyatlarda raqib zarur yo'nalishda zarbani amalga oshirishi uchun e'tiborini chalg'itish maqsadida, tana bilan aldamchi harakatlarni bajarishi lozim. Asosiysi, uchayotgan to'pni o'ynashda to'pni his qilish

zarur. Buning uchun to'rt oldida texnik harakatlarni takomillashtiruvchi mashqlarni har kuni ko'p marta takrorlash lozim.

To'rt oldiga chiqish ko'nikmalarini takomillashtiruvchi mashqlar quyidagilar:

1 – mashq. "Vosmyorka". A va B ikki sherik orqa chiziqda turadi, birinchisi kortning o'ng tomonida, ikkinchisi chap tomonida. A1 va B1 o'yinchilar esa maydonning orqa chizig'i va to'pni o'yinga kiritish chizig'i orasida. Bitta to'p bilan o'ynaladi. Orqa chiziqda turgan birinchi sherik A, B1 sherik turgan to'pni o'yinga kiritish kvadratiga diagonal bo'yicha baland sakrab ko'tarilgan to'pga burama zarbani yo'naltiradi, u yuqori nuqtada oldinga harakatlanib kesma zarbani, to'rga chiqishni aks ettirib, to'g'ri chiziq bo'yicha orqa chiziqqa ya'ni B sherik turgan joyga yo'naltiradi va dastlabki holatga qaytadi, B sherik navbatida A1 va hakozi sherik yo'nalishi bo'yicha to'pni diagonal burama zarba bilan ko'taradi.

2 – mashq. Sparring – sherik to'pli savat bilan, o'z korti yarmida orqa chiziq ortida turadi. O'rganuvchi tennischi o'z yarmida orqa chiziqdan bir metr masofada. Tennischi shartli signal bo'yicha to'rga yugurishni boshlaydilar. O'rganuvchi tennischi to'pni o'yinga kiritish chizig'ini kesib o'tayotgan vaqtda, sparring – sherik tezkor zarbalar bilan, yugurib kelayotgan tennischini chalg'itishga harakat qiladi. Tennischining vazifasi, harakatni so'ndirmasdan, to'pga oldinga sakrab uni uchayotganda o'ynashi kerak. Mashqni, zarba uchun to'pni bosh ustiga uloqtirib, uchayotganda zarbani bajargandan keyin, shu ondayoq davom ettirish mumkin. Bunday seriya zarbalar bajarilgandan so'ng, tennischi keyingi seriyani bajarish uchun dastlabki xolatga tez qaytadi.


3 – mashq. Sparring – sherik to'pli savat bilan, o'z korti yarmida orqa chiziq ortida turadi. O'rganayotgan tennischi o'z yarmida orqa chiziqdan bir metr masofada. Sparring – sherik xavkortga yarim svecha uloqtiradi. O'rganuvchi tennischi to'pning uchish trayektoriyasini aniqlab, shu trayektoriyaning taxminiy nuqtasiga, harakatni so'ndirmasdan uchib kelayotgan to'pga zarba berish uchun yugurib chiqadi yoki aksincha, imkon boricha tezkorlikni oshirib, kortning qarama – qarshi tomoniga orqa chiziqqa podsvechka bilan to'pni yo'naltiradi va to'p oldida holatni egallaydi. Mashqni uchayotgan to'pga zarba berish, song boshdan zarba berish bilan yakunlash mumkin. Bu seriya zarbalar bajarilgandan so'ng tennischi keyingi seriyalarni bajarish uchun dastlabki holatga qaytadi.

4 – mashq. Ikkala sherik orqa chiziqda turadi. Ulardan biri chuqur burama svechka bajarib, oldinga yuguradi, boshqasi o'ziga qulay zarba uchun, sherigi esa to'rning oldiga turib svechkani o'ynaydi. Boshqasi uchayotgan to'pga orqa chiziqqa zarba bilan javob qaytaradi. Ikkinchisi burama svecha bilan to'r oldidagiga uloqtirib beradi va o'zi oldinga harakatlanadi. Birinchi, to'r oldida turgan sherigiga qulay zarba bilan svechkani o'ynab, javob zarbadan keyin to'pni to'r oldidagiga svechka uloqtiradi va o'zi oldinga yuguradi. Bu mashq, tennischilarni maydon atrofida uchib kelayotgan to'pga zarbalarni qo'llab harakatlanishni takomillashtiradi.

3.4. Maydonning o'ng va chap tomonlariga zarba berish taktikasi

Tennischi mahorati, uning raqib tomonga orqa chiziq ustidan to'pni chuqur yo'naltirishni bilishi bilan aniqlanadi. Kimki raqib tomonga yaqin masofaga zarbani bajara olsa, u

o'zining taktik usullarini o'yinda amalga oshirish imkoniyatini qo'lga kiritadi. Orqa chiziqdan uzoqqa uzun to'p bilan raqibni siqib, uchib kelayotgan to'pga zarba berib yakuniy ochkoni yutib olish uchun to'rga chiqish mumkin.



Bu oddiy va tushunarli bo'lgan taktik sxema asosida, sakrab ko'tarilgan to'pga zarbalar samaradorligi yotadi.

O'zbekistonning 12 – 16 yoshli tennischilari musobaqa o'yinlarida amalga oshirgan yakuniy zarbalar tavsifini tahlil qilib, qiziqarli ma'lumotlar olindi.

O'ynalgan ochkolar 4 turga bo'linadi.

1. Hujumda yutib oligan.
2. Raqib tomonidan atayin uyushtirilmagan shaxsiy xato.
3. Raqibning faol harakatlari keltirib chiqargan, shaxsiy xato.
4. Kuzatilayotgan tennischining aniq harakatlari.

12 – 13 yoshli bolalarda o'zlari yoki raqibning xujum harakatlari natijasida yutuq bilan yakunlanadigan ochkolar, umumiy o'ynalgan ochkolar sonining 20 % ni tashkil etadi. Qolgan 80 % ni raqib tomonidan uyushtirilmagan harakatlar tashkil qiladi. 15-16 yoshli o'smirlarda xujum harakatlari

natijasida yutib olingan ochkolarga nisbatan uyushtirilmagan xatolar, taxminan 50 x 50 %ni tashkil qiladi.

Yosh o'zgargan sari, o'zining yoki raqibning ongli maqsadga yo'naltirilgan tashabbusi natijasida yutib olingan yoki yutkazilgan ochkolar, uyushtirilmagan xatolar nisbatini, o'yin tajribasi oshganligini yoki taktik fikrlar takomillashganligini ko'rsatadi.

Bu davrda, tennisda asoslangan xaqiqiy o'yin kuzatiladi. Qulay holatda qabul qilib, raqibning uzoq burchagiga, chiziqning o'ziga kuchli zarba bilan to'pni yo'naltirib, ochkoli o'yinni bir zarbada yakunlash mumkin, shu bilan o'ylangan niyatni amalga oshirish vaziyatlarida, o'ziga 100 % ochko yutib olish kafolatini ta'minlaydi. Lekin juda qulay holatda kuchli zarba bilan chiziqqa tushush kafolati 70 – 80 % ni tashkil etishi ham mumkin. Tajribali o'yinchi boshqacha yo'l tutgan bo'lar edi. U qulay holatda turib, 100% tushishini kafolatlovchi zarba bilan maydonning biron bir burchagiga to'pni yo'naltirgan bo'lar edi, ammo raqib uchun bu zarbaga yetish 90 % ga yaqin bo'lishi lozim. Raqibni qoyilmoqom zarbalar bilan xayron qoldirish kerak emas. O'yin davomida bunday zarbalar bir nechta bo'lishi mumkin, lekin ishonchli ochkolarni anchagina ko'p to'plash zarur.

Ammo, ayrim xolatlarda noaniq taktik harakatlar oqibatida o'yin paytida sodir bo'ladigan psixologik muammolarni yechishga urinib ko'rish mumkin. Masalan: o'z omadsizligidan va raqibning omadidan siqilgan tennischi bir zarba bilan to'pni raqib kortining himoyasiz joyiga yo'naltirishi mumkin. Yana chiroyli zarba bilan o'yinni yakunlashi ham mumkin. Lekin, bu holatda ham tavakkalchilik darajasi, tennischining tajribasini hamda uning har bir taktik harakatlari qiymatini aniqlaydi.

Tennischining taktik harakatlar tanlovi bo'yicha takomillashuvini, bozorda ko'p va yaxshi mahsulot sotib oladigan yoki aksincha kam va yomon mahsulotlarni harid qiluvchi uy bekasi bilan taqqoslash mumkin.

Alohida taktik harakatlarni takomillashtirishga yordam beruvchi trenirovka mashqlarini har bir o'yinchi uchun zarur poydevorva ularning o'yin stilini individual rivojlanishi muammolarini yechishga qaratilgan individual usullarga bo'lish mumkin.

Poydevor sifatidagi mashqlarga kortda yoki bir nechta sheriklar bilan maydonda belgilangan nishonlar bo'yicha o'yinni kiritish mumkin. Ularning maqsadi, ahamiyatli zarbalarni maksimal ishonchda bajarishga erishishdir.

1 - mashq. Tennis kortida, orqa va yon chiziqlar tashkil qilgan burchaklarda 1x1 m o'lchamdagi nishon o'rnatiladi. Nishonlarni yupqa lenollumdan yoki boshqa xom ashyodan 1m x5sm lentalar bilan belgilanadi. Bunda lennolum to'liq yotishi kerak va to'p unga tushganda sakrab ko'tarilib yo'nalishini kuchli o'zgartirmasligi kerak.

Sheriklar bir biri bilan 1, 1a nishonlarga diogonal bo'yicha burama yoki kesma zarbalarni amalgam oshiradilar. Har bir sherik maydonida joylashgan nishonlarga tushgan to'pni baland ovozda - "bir", "ikki", "uch" va xakozoaytib boradilar. Sheriklar oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi: Har bir qarama qarshi tomondagi nishonlarga to'p (5-10) aniq sanoq bo'yicha tushishi kerak. Sheriklardan birining zarbasidan so'ng ikkinchi marta ham qoplamaga to'p tushsa, natija hisobga olinmaydi va mashq boshidan boshlanadi.

2 - mashq. Shuning o'zi, faqat 2, 2a nishonlarga diogonal bo'yicha chapdan chapga zarbalar.

3 – mashq. Nishon bo'yicha "восмёрка". To'p yo'qotilguncha sheriklarning har biri 5 – 10 ta to'p tushishini bajaradilar. Birinchi variantda sheriklardan biri to'g'ri chiziq bo'yicha, ikkinchisi esa diagonal bo'yicha.

4 – mshq. "vosmyorka". Birinchi sherik tur yonida, ikkitasi orqa chiziqda. To'p yonidagi oyinchi diagonal zarbalar bilan 1 va 2 nishonlarga, birinchi variantda va to'g'ri chiziq bo'yicha boshqasi bilan o'ynaydi. Orqa chiziqdagi sheriklar albatta to'g'ri yoki diagonal bo'yicha burama yoki kesma zarbalarni bajaradilar. O'yin to'r yonidagi o'yinchi nishonga aniq tushguncha davom etadi. Agar to'p o'yindan chiqsa, mashq boshidan boshlanadi.

5 – masq. Bir o'yinchi ikki o'yinchiga qarshi.

a) tennischi to'r yonidan joy egallaydi, "raqib" – orqa chiziqda, "raqiblar" erkin o'ynaydilar, "to'rchi" – vazifa bo'yicha;

b) tennischi orqa chiziqda joylashib erkin o'ynaydi, "raqiblar" vazifa bo'yicha.

6 – mashq. O'yin orqa chiziqda. Tennischi, maydonning buyurilgan joyiga to'pni yo'naltiradi, uning "raqibi" – o'z xoxishiga ko'ra o'ynaydi.

7 – mashq. Hisob bilan buyurilgan vazifa bo'yicha o'yin.

a) buyurilgan kombinatsiyani bajarish bilan to'pni o'yinga kiritishdan keyin to'pga chiqish;

b) vazifa bo'yicha, ochko uchun to'pni qabul qilish.

8 – mashq. O'zining birinchi holatini vaqti vaqti bilan o'zgartirib bir tennischi, ikki "raqib"ga qarshi to'pga chiqish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanib hisob uchun o'yin.

a) ikkisi ham orqa chiziqda;

b) birinchisi orqa chiziqda, boshqasi to'r yonida;


9 – mashq. Vazifa bo'yicha "bir o'yinchi ikkinchi o'yinchiga qarshi" hisob uchun o'yin.

10 – mashq. Mahsus vazifa bo'yicha, stili yaqqol namoyon bo'ladigan o'yinchiga qarshi hisob uchun o'yin:

- a) keskin xujumchi "to'rchi";
- b) orqa chiziqda o'ynaydigan keskin xujumchi;
- v) orqada va to'r yonida bir xil o'ynaydiganlar;
- g) qarshi xujumchi;
- d) ximoya (raqib xatolari hisobiga o'ynaydigan).

3.5. Raqib tomonidan to'p kiritilganda sherik bilan o'ynash taktikasi

Bizda barcha mashqlarni sanab o'tish imkoniyati mavjud emas. Ko'pincha ular trenirovka jarayonida tu'iladi, ya'ni ular yordamida yechim topadigan vazifalar turlichadir. Yuqorida keltirigan mashqlar yordamida tennishining biron bir yo'nalishdagi o'yin harakatlari takomillashtiriladi. Ammo eng asosiysi-murabbiy bilan o'quvchining birgalikdagi ijodi hisoblanadi. Har bir aniq mashq tanlovi va yo'nalishi, har bir o'yinchi uchun individual bo'lib, ustoz va spo'rtchining asosiy vazifasi- buni to'g'ri bajarish.



Besh yillik tajribaga ega 12-16 yoshli tennischilarni maqsadga yo'naltirilgan trenirovka faoliyatini takomillashtirish

bosqichida, tennis kortida ayrim masqlarni bajarish uchun, maydonni maxsus nishon bilan belgilash zarur. Nishon turli materiallardan tayyorlangan bo'lishi mumkin, faqat ular kortda turib to'pni sakrab ko'tarilishiga kuchli ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Nishonlarni tennisga xos joylashishi 9-rasmda ko'rsatilgan. Uzun zarbalarni bajarish uchun 1,2,3,4 nishonlar, qisqa zarbalarga 5,6 nishon, to'pni o'yinga kiritish uchun 1x1 o'lchamda 1dan 8 gacha nishonlar. Tennisda havo nishonlari ham mavjud. Ular quyidagicha yasaladi. Tennis to'rini tortish uchun ustunlarga vertical holatda yog'och planka yoki metal simlar ko'tariladi. Keyin, ular orasiga to'r darajasidan yuqoriga keng lenta yoki shnur gorizontal tortiladi. Xullas, to'rning yuqori chegarasi va ular orasida, havo nishoni bo'lib xizmat qiluvchi muhit hosil bo'ladi. Bunday nishonlar, to'pning uchish trayektoriyasi va balandligini nazorat qilish imkoniyatini beradi. Nishonning balandligi almashtirib turish mumkin. Bu o'z navbatida, past zarbalar kabi baland zarbalarni ham bajarishga yordam beradi.

O'yin mashqlari.

1. Chiziq bo'yicha sakrab ko'tarilgan to'pga zarbalar. Tekis, kesma, trayektoriya baladligi turlicha bo'lgan burama zarbalar. Maydonda turli maqsad bo'yicha bajariladigan zarbalar. Maydonda turli maqsad bo'yicha bajariladigan zarbalar:

a) ikkala o'yinchi orqa chiziqda joylashgan nishon bo'yicha ishlaydilar;

b) ikkala o'yinchi to'pni o'yinga kiritish zonasida joylashgan nishon bo'yicha;

v) bir o'yinchi orqa chiziqda joylashgan nishonga, boshqasi esa to'pni o'yinga kiritish zonasidagi nishonga to'pni yo'naltiradi.

2. Diagonal bo'yicha sakrab ko'tarilgan to'pga zarbalar tekis, kesma, trayektoriya balandligi turlicha bo'lgan burama zarbalar. Maydonda turli maqsad bo'yicha bajariladi:

a) ikkala o'yinchi orqa chiziqda joylashgan nishon bo'yicha ishlaydilar;

b) ikkala o'yinchi to'pni o'yinga kiritish zonasida joylashgan nishon bo'yicha;

v) bir o'yinchi orqa chiziqda joylashgan nishonga, boshqasi esa to'pni o'yinga kiritish zonasida joylashgan nishonga to'pni yo'naltiradi.

3. Chiziq bo'yicha uchayotgan to'pga zarbalar.

a) A o'yinchi orqa chiziqda, B o'yinchi to'r oldida.

b) ikki o'yinchi ham to'r oldida.

4. Diagonal bo'yicha uchayotgan to'pga zarbalar.

a) A o'yinchi orqa chiziqda, B o'yinchi to'r oldida.

b) ikki o'yinchi ham to'r oldida.

5. "Uchburchak"

a) to'rga chiqish bilan.

b) qisqartirilgan zarbadan keyingi chalg'itish.

6. "Vosmyorka":

a) to'rga chiqish bilan;

b) qisqartirilgan zarbadan keyingi chalg'itish.

7. Turli o'yin holatlarida sparring – sherik bilan svechkalarni qo'llab "vosmyorka".

8. "To'r oldida uchburchak".

a) uchib kelayotgan to'pga chuqur – uzun javob zarbalari.

b) qisqartirilgan zarbani qo'llab.

9. Qisqartirilgan zarbani qo'llash sharti bilan orqa chiziqda "vosmyorka".

10. To'r oldida "vosmyorka".

11. To'pni o'yinga kiritish (to'pni o'yinga kiritish maydonida joylashgan 1x1 kvadratlarga tushirish sharti bilan).

12. To'pni o'yinga kiritish maydonining o'ng tomoniga keyin chap tomoniga chuqur burama zarbalar: qabul qiluvchi chiziq yoki kross bo'yicha javob qaytaradi (vazifaga ko'ra). To'pni o'yinga kiritayotgan o'yinchi uchib kelayotgan to'pni maydonning o'ng burchagiga yo'naltiradi (vazifa bo'yicha), va chalg'itishga harakat qiladi (ayrim holatlarda svechka). To'pni o'yinga kirituvchi to'pni uchayotganida yoki boshi ustida qaytarishga harakat qiladi.

13. Ikkinchi to'pni o'yinga kiritishdan keyin "uchburchak" yoki "vosmyorka" o'ynaladi (vazifa bo'yicha).

14. Uchib kelayotgan to'pga qisqartirilgan zarba.

15. Sakrab ko'tarilgan to'pga qisqartirilgan zarba.

16. Kombinatsiyalarda qisqartirilgan zarba (vazifa bo'yicha).

a) eng oddiy o'yin mashqlari;

b) o'yin holatiga yaqinlashtirilgan mashqlar (vazifa bo'yicha).

17. Yarim uchayotgan to'pga zarbalar.

18. Murakkab o'yin holatlarida uchayotgan to'pga zarbalar (vazifa bo'yicha)

19. Sakrab ko'tarilgan to'pga bosh ustida zarba (nishon qo'llash shart).

20. Uchib kelayotgan to'pga bosh ustida zarba (maydon burchagida joylashgan 1x10'lchamdagi to'pni tushirish shart).

21. O'ngdan va chapdan to'pni qabul qilish: o'yincha maydon ichida turadi (to'pni o'yinga kirituvchi to'rdan bir necha metr masofada), zarba chuqurligini va to'r ustidan uchayotgan to'pning balandligini qat'iy nazorat qiladi.

Qabul qilish usullari:

a) podstavka bilan

b) kesma zarba bilan

c) burama zarba bilan

- d) kesma svechka bilan
- e) burama svechka bilan
- f) qisqartirilgan zarba bilan.

22. Keyinchalik chalg'ituvchi zarbalar va kutilmagan svechka qo'llab to'r oldida "vosyorka".

23. Bir tennischi orqa chiziqda harakatlanadi va uning ikki raqibi to'r oldida. Ikki tennischi, raqibini bir tomondan ikkinchi tomonga tez harakatlanishiga majbur qilib, past zarba bilan to'pni turli tomonlarga yo'naltiradilar ayrim holatlarda qisqartirilgan to'p holatlari qo'llaniladi. Orqa chiziqda o'ynayotgan tennischilar, past chalg'ituvchi zarbalar bilan to'pni aks ettiradilar, ayrim holatlarda kutilmaganda svechka qo'llaniladi.

24. Oldingi mashqlardan farqli o'laroq, tannischining orqada o'ynayotgan raqiblari, turli holatlarni egallaydilar: biri to'p oldida, ikkinchisi esa orqa chiziqda joylashadi. Endi tennischining vazifasi shundan iboratki, past zarba va svechkadan foydalanib, raqibga to'pni berib qo'ymaslik. Ikki "raqibning" vazifasi o'zgarmaydi: ular tennischini har tomonga harakatlantiradilar va ayrim paytlarda esa qisqartirilgan zarbaga yetish uchun oldinga jadal yugurishga majbur qiladilar.

25. Bir tennischi to'r oldida, uning ikki "raqibi" esa orqa chiziqda harakatlandi. Ikki "raqibning" vazifasi to'r oldidagi o'yinchini turli past zarbalar bilan va kutilmagan svechkalar bilan chalg'itish. "To'r oldidagi" o'yinchi, eng qiyin to'plarni o'tkazib yubormaslikka harakat qilib, "raqiblarni" keyingi zarbalarini murakkablashtirish maqsadida sakrab ko'tarilgan to'pga past zarbalarni aks ettiradi:

a) "raqiblar" maydonning burchagida joylashadilr – "tur oldidagi" uchayotgan to'pga uzun zarbalarni bajaradi.

b) "raqiblar" to'pni o'yinga kiritish chizig'ining tashqi burchagiga qarshi yon chiziqlar orasida joylashadilar – "to'r oldidagi" qisqa egri zarbalarni bajaradi.

26. Uch o'yinchi to'r oldiga joylashadi va mashq "raqibni" qiyin ahvolga solish maqsadida uchayotgan va yarim uchayotgan to'pga "otishma" zarbalar bilan yakunlanadi.

3.6. Sparring – sherik va to'pli savat yordamida tennis zarbalarini takomillashtirish.

Tennis o'yini texnikasini o'rganishning beshinchi yiliga kelib, yosh tennischilarni o'qitish dasturi maqsad va yo'nalishiga ayrim o'zgartirishlar kiritila boshlandi. Afsuski, barcha sportchilar ham yetarli darajada buni tushunmaydilar. Agar dastlabki yillarda to'pga to'liq, kuchli, aniq va turli aylanma zarbalar berishni o'rganib biron yutuqqa ega bo'lgan bo'lsa, ya'ni o'zi uchun qulay bo'lgan to'pni raqib maydonidagi nishonga yo'naltira olgan bo'lsa va uni yutib olsa, keyingi yillarda uning oldiga – qanday qilib u tomoniga uchib o'tgan to'plar javob zarba berish uchun qulay bo'ladi degan ancha murakkab vazifalar qo'yiladi. Bu esa zarbalarga tayyorgarlik muammosini keltirib chiqaradi. Ko'p tennischilar sport takomillashuv davrida o'zlari tanlagan mashg'ulot tizimi bilan o'zlarini boshi berk ko'chaga kiritib qo'yadilar. Ular mashg'ulot vaqtining katta qismini, maydonda joyida turib samarali zarbalar almashinuviga ajratadilar. Bu ularga yaxshi kayfiyat bag'ishlaydi va tomoshabinlarda yaxshi taassurot qoldiradi. Ayrim ayyor murabbiylar, yosh tennischining ota – onasida yaxshi taassurot qoldirishga harakat qilib, sparring – sherik sifatida to'pni standart zarba uchun maydonning aniq nuqtasiga uloqtirib berish usulidan keng foydalanadilar. Bu albatta

samarali, zarbalar kuchli, aniq xuddi buyuk tennischilar bajarayotganidek ko'rinadi. Ammo ana shu "super tennischi" musobaqa o'yinlari uchun raqib bilan kortga chiqqanda kuchli zarbaga ega bo'lmagan, lekin to'pni turli murakkab vaziyatlarda tortib olishni va uni tezlanishsiz raqib tomonga kortning kutilmagan qismiga yo'maltira oladigan tennischi "super tennischini" dog'da qoldirishi mumkin. Sportchi to'pga o'zi o'rganib qolgandek noto'g'ri yondoshadi, biroq u samarali zarbani amalgam oshirish imkoniyati tug'ilganda to'pga katta tezlikda "uchishi" kerak.

4 - 5 yillik o'qitish siklini bosib o'tgan bolalar bilan to'pli savatga ega bo'lgan sparring - sherik mashqlari, asosan turli tezlikda va yo'nalishda kelayotgan harakatdagi to'pga zarba berishga tayyorgarlikni takomillashtiradi.

1. Sparring - sherik to'pni o'yinga kiritish chizig'ida turadi, tennischi esa orqa chiziqdan bir metr oldinda maydon markaziga joylashadi. Sparring - sherik to'pni uncha katta bo'lmagan tezlikda yon chiziqlarga yaqin o'ng va chapga xavkortning o'rta qismiga uloqtirib beradi. Bunda tennischi oldinga yurishini hisoblab shunday harakat qilishi kerakki, raketka to'pga zarba berayotgan paytida yugurish tezligi kamayib ketmasligi lozim. Bu mashqni bajarishdan maqsad, yugurish, siltanish va to'pga zarba berish harakatlari bir - biri bilan moslashishi hamda yugurishning to'liq quvvati zarba kuchiga sarflanishi kerak. Zarbadan so'ng albatta sparring - sherik harakatlarini ko'zdan qochirmasdan orqalab yugurib dastlabki holatga tez qaytish kerak. Sparring - sherik, tennischi dastlabki holatiga qaytmasidan, keyingi zarba uchun to'pni uloqtiradi. Mashq 30-40 zarbadan takrorlanadi.

2. Shu mashqning o'zi, faqat keyingi zarbalarni murakkablashgan seriyasi.

Sakrab ko'tarilgan to'pga o'ngdan (chapdan) dinamik zarbalardan so'ng, o'rganuvchi tennischiga chapdan(o'ngdan) uchib kelayotgan to'pga bosh ustidan zarba berish uchun to'p tashlab beriladi. Mashqning maqsadi dinamik zarbadan chiqib, so'ng keyigi zarbaga tezkor tayyorgarlikni takomillashtirish. Ketma-ket bajariladigan zarbalarni, mashqni o'zlashtirish darajasidan kelib chiqib tezlashtirish mumkin.

3. Sparring-sherik to'pli savat bilan, o'z maydonining yarmida orqa chiziq ortida, o'rganuvchi tennischi esa o'z maydoninig yarmida orqa chiziqdan bir metr masofada turadi. Tennischi shartli signal bo'yicha torga qarab yugurishni boshlaydi. Tennischi to'p uzatish bosib o'tishi bilan, sparring-sherik tezkor zarbalar yo'llab yugurib kelayotgan tennischini aldashga harakat qiladi. Tennischining vazifasi, harakatni so'ndirmasdan uchib kelayotgan to'pga oldinga sakrab qabul qilish. Mashqni uchayotgan to'pga zarbani amalga oshirilishi bilan shu ondayoq, boshdan zarba uchun to'pni tashlab berib davom ettirish mumkin. Bu seriya bajarilgandan keyin tennischi,navbatdagi seriyalarni bajarish uchun dastlabki holatga qaytadi.

4. Sparring-sherik to'pli savat bilan o'z maydonining yarmida orqa chiziq ortida turadi, o'rganuvchi tennischi esa o'z maydonining orqa chizig'idan bir metr masofada turadi. Sparring-sherik, xavkortga yarim svechka uloqtirib beradi. O'rganuvchi tennischi to'pning uchish trayektoriyasini aniqlab, shu trayektoriyaning taxmin qilingan zarba uchun qulay nuqtasiga yugurib keladi va harakatni so'ndirmasdan, aksincha tezkorlikni oshirib svechka ostida to'pni qarshi tomonning orqa chizig'iga yo'naltiradi va to'r oldiga chiqadi. Bu seriya zarbalarni bajargandan so'ng tennischi, keyingi seriyani bajarish uchun dastlabki holatga qaytadi.

5. Sparring-sherik topni o'yinga kiritish chog'ida, o'rganayotgan tennischi esa, orqa chiziqdan bir metr masofada maydon markazida. Sparring-sherik uchish tezligi kam bo'lgan to'pni asta o'rganuvchi tennischi tomoniga to'r yoniga, yon chiziqlarga yaqin, yo o'nga yo chapga qisqartirilgan zarbani aks ettirib tashlab beradi. Tennischi qisqartirilgan zarbani kesma zarba bilan qaytarib, tez orqa bilan yugurib dastlabki holatga qaytishi kerak.

O'rganayotgan tennischining zaif joyiga ta'sir ko'rsatib, sparring-sherik va to'pli savat bilan mashqlarni qo'llab, tennischi o'yin faoliyatini takomillashtiruvchi boshqa zarba bog'lamlarni bajarishi mumkin.

Ikki yoqlama o'yinda harakat texnikasini takomillashtirish.

1. Chiziq bo'yicha sakrab ko'tarilgan to'pga zarbalar. Tekis, kesma, trayektoriya balandligi turlicha bo'lgan burama zarbalar. Maydonda turli maqsad bo'yicha bajariladigan zarbalar. Maydonda turli maqsad bo'yicha bajariladigan zarbalar:

a) ikkala o'yinchi orqa chiziqda joylashgan nishon bo'yicha ishlaydilar;

b) ikkala o'yinchi to'pni o'yinga kiritish zonasida joylashgan nishon bo'yicha;

v) bir o'yinchi orqa chiziqda joylashgan nishonga, boshqasi esa to'pni o'yinga kiritish zonasidagi nishonga to'pni yo'naltiradi.

2. Diagonal bo'yicha sakrab ko'tarilgan to'pga zarbalar tekis, kesma, trayektoriya balandligi turlicha bo'lgan burama zarbalar. Maydonda turli maqsad bo'yicha bajariladi:

a) ikkala o'yinchi orqa chiziqda joylashgan nishon bo'yicha ishlaydilar;

b) ikkala o'yinchi to'pni o'yinga kiritish zonasida joylashgan nishon bo'yicha;

v) bir o'yinchi orqa chiziqda joylashgan nishonga, boshqasi esa to'pni o'yinga kiritish zonasida joylashgan nishonga to'pni yo'naltiradi.

3. Chiziq bo'yicha uchayotgan to'pga zarbalar.

a) A o'yinchi orqa chiziqda, B o'yinchi to'r oldida.

b) ikki o'yinchi ham to'r oldida.

4. Diagonal bo'yicha uchayotgan to'pga zarbalar.

a) A o'yinchi orqa chiziqda, B o'yinchi to'r oldida.

b) ikki o'yinchi ham to'r oldida.

5. "Uchburchak"

a) to'rga chiqish bilan.

b) qisqartirilgan zarbadan keyingi chalg'itish.

6. "Vosmyorka":

a) to'rga chiqish bilan;

b) qisqartirilgan zarbadan keyingi chalg'itish.

7. Turli o'yin holatlarida sparring – sherik bilan svechkalarni qo'llab "vosmyorka".

8. "To'r oldida uchburchak".

a) uchib kelayotgan to'pga chuqur – uzun javob zarbalari.

b) qisqartirilgan zarbani qo'llab.

9. Qisqartirilgan zarbani qo'llash sharti bilan orqa chiziqda "vosmyorka".

10. To'r oldida "vosmyorka".

11. To'pni o'yinga kiritish (to'pni o'yinga kiritish maydonida joylashgan 1x1 kvadratlarga tushirish sharti bilan).

